

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*

*UDK: 943.75+634.1*

**HOJIYEVA NIGINA HAYOT QIZI**

**O'ZBEK TILIDA MEVACHILIK LEKSIKASI**

**10.00.01 – O'zbek tili**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva Dilorom Nigmatovna**

## **Buxoro – 2023**

## MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI..... 3

### I BOB. MEVACHILIK LEKSIKASI UMUMLISONIY HODISA SIFATIDA

1.1. Mevachilik leksikasining maxsus lugʻatlarda ifodalanishi lingvistik muammo sifatida.....	11
1.2. <i>Lison~nutq~matn</i> trixotomiyasida meva nomlari talqini.....	22
1.3. Oʻz qatlamga oid meva nomlari xususida.....	32
1.4. Oʻzlashgan qatlamga tegishli meva nomlari haqida.....	43
Bob boʻyicha xulosalar.....	57

### II BOB. OʻZBEK TILIDA MEVACHILIK NOMLARINI IFODALOVCHI ATOV BIRLIKLARINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Mevachilik nomlariga xos umumlisoniy xususiyatlar.....	58
2.2. Mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining gipo-geperonimik munosabati .....	69
2.3. Mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining semantik paradigmalari.....	77
Bob boʻyicha xulosalar.....	90

### III BOB. MEVACHILIK LEKSIKASIGA OID AYRIM BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

3.1. Oʻzbek tilida mevachilik leksikasi bilan bogʻliq frazeologik birliklar hamda maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari .....	91
3.2. Tibbiy evfemizmlar va badiiy matnlarda mevachilik nomlarining qoʻllanilishi .....	104
Bob boʻyicha xulosa.....	116
<b>UMUMIY XULOSALAR.....</b>	<b>118</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....</b>	<b>121</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>132</b>

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tilga milliy madaniyat fenomenining asosiy belgisi sifatida yondashuv yuzaga keldiki, buni dunyo miqyosidagi globallashuv bilan bog‘lash o‘rinli. Bu, tabiiyki, tilshunoslikda maxsus o‘rganilmagan hodisalarini tezkorlik bilan tadqiq etishga, shu asosda lingvomadaniy va lingvoma‘naviy bo‘shliqlarni to‘ldirishga keng yo‘l ochib bermoqda. Jumladan, mevachilik leksikasiga tegishli so‘zlar xalq tili lug‘at boyligining ajralmas qismi sifatida tahlil qilinishi, mevachilik leksikasining vujudga kelishi insoniyat o‘tmishi bilan, insonning mehnat jarayonini o‘zlashtirish tarixi bilan uzviy aloqadorligini ko‘rsatib berish, xususan, muayyan meva va uning turlari nomi, izohli lug‘atlarda, qomuslarda shu mevaga berilgan ta’riflar, mazkur ta’riflarning kishi ongida shu meva tushunchasi bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi masalalarini tadqiq etish ham muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida tillarning lingvomadaniy, lingvoma‘naviy, lingvokommunikativ munosabatlarini o‘zida aks ettiruvchi masalalar bo‘yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Hatto mevachilik leksikasiga til nuqtayi nazaridan yondashuv asosida qator ishlar amalga oshirildi, muayyan til doirasida mevachilik leksikasini yig‘ish, o‘rganish, ular bilan bog‘liq izohli lug‘atlar yaratishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda lingvokognitologiya yangi yo‘nalish sifatida rivojlandi va unda lisoniy birliklarning kognitiv xususiyatlarini aniqlashga kirishildi. Milliy til, milliy madaniyat va milliy tafakkur mushtarakligidan kelib chiqqan holda har bir lisoniy hodisaning kognitiv-pragmatik jihatini tekshirish muhim. Bugun tilni o‘z egalari bilan birga ijtimoiy muhit, madaniyat, milliylik kabi omillar uyg‘unligida tahlil etish davr talabiga aylandi. Zero, “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

O‘zbek tilidagi meva nomlarining milliy-kognitiv, struktur va leksikografik xususiyatlari bilan bog‘liq izlanishlar olib borish, bir tomondan, til o‘rganuvchilarga qulaylik tug‘dirsa, ikkinchi tomondan, biologiya va tilshunoslik integratsiyasini ta‘minlashga xizmat qiladiki, bu kabi masalalarni tafakkur, til, nutq va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi asosida talqin etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qarori qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6048-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida meva nomlari leksikasi qisman S.D.Katsnelson, E.A.Zemskaya, Y.N.Karaulov, F.R.Palmer, B.A.Plotnikov, A.A.Zalevskeya, K.Buhler, E.S.Kubryakova,

Y.G.Zavali Shina<sup>2</sup> kabi ko‘plab olimlarning ishlarida tahlilga tortilganligini kuzatamiz.

Turkologiyada meva nomlari M.V.Markov, A.K.Borovkov, D.B.Gareev, L.V.Dmitriyev, A.Aygabilov, T.Bazarkulov, E.S.Kuliyev, B.K.Kaliyev, G.M.Muxtarov<sup>3</sup> singari qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Shuningdek, mazkur muammo bir qator tatar olimalari tomonidan ham fundamental tadqiqot sifatida tahlilga tortildi. Bu borada Eleanora Xaustovanning “Meva-sabzavot nomlarining rus va ingliz tillari leksik-semantik maydonidagi o‘rni, Chulpan Fergaliyevaning “Zamonaviy tatar tilida bog‘dorchilik leksikasi”ni, Endje Axmetovanning “Tatar tilida sabzavot va meva nomlari” nomli nomzodlik ishlari diqqatga sazovor.

O‘zbek tilshunosligida meva nomlari tahlili Mahmud Koshg‘ariydan boshlangan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida turkiy tillarga xos meva nomlari ham sanab o‘tilgan<sup>4</sup>. Shuningdek, S.Sahobiddinov foydali va zararli o‘simliklar, S.Muhammadxonov, F.Jonguzarovlar o‘simlik nomlariga oid ikki tilli lug‘atlarni tuzishdi. Tilshunos H.Jamolxonov botanika terminlari etimologiyasi, Y.Eshonqulov urug‘chilik nomlari leksikasi, K.M.Musayev turkiy so‘zlar leksikasi tarkibida mevachilik nomlari, I.Ismoilov, K.Meliyev, M.Sapayevlar mevali daraxt nomlari, poliz ekinlariga doir, G.Nigmatova o‘zbek

---

<sup>2</sup> Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М. Л, 1965.–109 с.; Земская Е.А. Современный русский язык: Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. –304 с.; Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М., 1976. –356 с.; Palmer F.R. Semantiks. Moskow, 1982. – 112 p.; Плотников Б.А. Основы семасиологии. / Под ред. А.Е.Супруна. – Минск, 1984. – 223 с.; Залевская А.А. Слово в лексиконе человека. Психолингвистическое исследование. – Воронеж: Изд-во Воронежск. ун-та, 1990. –208 с.; Buhler K. Theory of Language. The Representational Function of Language. – Amsterdam, Philadelphia, 1990. –508 p.; Кубрякова Е.С. Человеческий фактор в языке. Язык и порождение речи. – М., 1991. –240 с.; Завалишина Ю.Г. Зоонимы и фитонимы в русской и английской паремиологии в аспекте этнического менталитета. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Белгород, 1998. –18 с. va b.

<sup>3</sup> Марков М.В. Дикорастущие съедобные растения Татарии. – Казань, 1970. –С.79-86.; Боровков А.К. Названия растений по бухарскому списку «Мукаддамит ал-адаб» (к изучению узбекской ботанической терминологии) // Тюркская лексикология и лексикография. М., 1971. – С. 96-111.; Гареев Д.Б. Сорта овощных культур и картофеля. – Уфа: Башкирское изд., 1972. –79 с.; Дмитриева Л.В. Названия растений в тюркских и других алтайских языках // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. Л., 1972. – С.151-223.; Айгабылов А. Профессиональные слова плодовоовощеводства в казахском языке: Автореф. дисс. канд. филол. 00наук. – Алма-Ата, 1976. – 29 с.; Базаркулова Т. Формирование и развитие киргизской биологической терминологии: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1978. – 29 с.; Кулиев Э.С. Фитонимы в азербайджанском языке (опыт историко-типологического анализа): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Баку, 1987. –24с.; Калиев Б.К. Названия растений в казахском языке: Автореф. дис. д-ра филол. наук. Алма-Ата, 1991. – 47 с.; Мухтарова Г.М. Энтомологическая лексика в татарском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Казань, 2009.–34 с. va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

<sup>4</sup> Кошғарий М. Девони луғатит турк. I-II-III китоб. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

tilida o‘simlik nomlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirishdi <sup>5</sup>. Yuqoridagi ishlarda, asosan, o‘simlik nomlarini ifodalovchi apellyativ leksika tadqiq etilgan, biroq o‘zbek tilidagi meva nomlarini ifodalovchi atov birliklari maxsus to‘planmagan hamda monografik tarzda tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq kiruvchi “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dolzarb masalalari” mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining o‘zbek tili lisoniy tizimidagi o‘rni va sistemaviy xususiyatlari yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** atov birliklari ma’nolarining maxsuslashuvi lingvistik muammo ekanligini ochib berish, maxsuslashuvni ta’minlovchi omillarning birikma ma’nosiga ta’sirini yoritish, maxsuslashuvning yondosh hodisalar tizimidagi o‘rni va mohiyatini yoritish;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining semantik munosabatlarini tiklash, bu semantik munosabatlarni hosil qiluvchi unsurlarni aniqlash, atov birliklarining semantik va paradigmatic munosabatlari asosida yotuvchi lisoniy ziddiyatlarini lison va nutq dixotomiyasi tamoyillari asosida tavsiflash;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik strukturasi tahlil qilish, til leksik qatlamining ichki va tashqi omillar asosida boyib borishi

---

<sup>5</sup> Саҳобиддинов С.С. Ўрта Осиёдаги фойдали ва зарарли ўсимликларнинг маҳаллий номлари луғати. – Т. 1953. – 452 б.; Муҳаммадхонов С., Жонгузаров Ф. Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. – Т.: Меҳнат, 1989. – 320 б.; Жамолхонов Х. Ўзбек ботаника терминологиясининг шаклланиш ва ривожланиш тарихидан: Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати. – Т., 1969. – 25 б.; Эшонкулов Ю. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.; Мусаев К.М. Лексика тюркских языков. М.: Наука, 1984. – 230 с.; Исмоилов И., Мелиев К., Сапаев М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот (мева ва дархат, поллиз экинлари номлари ва уй-рўзгор буюмлари лексикаси материаллари асосида). – Т.: Фан, 1990. – 256 б.; Нигматова Г.Х. Система и художественное функционирование лексем-названий растений в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 21 с.

metodologiyasiga tayangan holda o‘z va o‘zlashma qatlamga oid birliklarni ajratish, ularning ichki bo‘linishlarini ochish hamda tasniflash;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining grammatik strukturasi aniqlash, ularning shu asosdagi sodda, qo‘shma va murakkab; bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turlarini ajratish;

meva nomlari tushunchalarini ifodalovchi atov birliklarining ma‘naviy strukturasi aniqlash, semik xususiyatlarini tavsiflash, sema turlarini ajratish, bu semalarni tilshunoslik an‘analari asosida tasniflash.

**Tadqiqotning obyekti** qilib o‘zbek tilidagi meva nomlarini ifodalovchi atov birliklari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek tilidagi meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining lingvomadaniy, leksikografik xususiyatlarini o‘rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyoslash, tasniflash, leksikografik, komponent, statistik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

til leksik sistemasida meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining o‘rni, madaniyatlararo universalialarni namoyon qilishi, ushbu birliklarda milliy-madaniy belgining nominativligi hamda kognitiv-semantik xususiyatlarga ega falsafiy, lingvistik birliklar sifatida semantik // struktural guruhlarining farqlari va tasniflari aniqlangan;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik, o‘z va o‘zlashma qatlamga oid mikrosistemalar//makrosistemalarini aniqlash, natija, vaqt-predikativ bog‘langan terminlar tipi hamda shakliy strukturalari, ularning sodda, murakkab tiplari, bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turlari asoslangan;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida, paremiologik birliklar: maqol // matal // hikmatli so‘z // frazeologik birliklarda hamda badiiy matnlarda meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining ma‘no ko‘lami milliy-madaniy // diniy-axloqiy // falsafiy // tibbiy dunyoqarashning muhim qirralari verballashuvi isbotlangan;



meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining mavjud lugʻatlardagi leksikografik talqinlari taqqoslangan hamda umumlashma taʼriflari leksik-semantik // nominatsion-motivatsion belgilari // meva nomlarining oʻrni // leksik tizimi va tarkibi // xalqning yashash hududi // milliy-madaniy hayoti // turmush tarzi bilan bogʻliq qirralari dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“meva” va “meva nomlari” tushunchalari, ularning milliy-kognitiv, struktur va leksikografik xususiyatlari bilan bogʻliq izlanishlar orqali chiqarilgan nazariy xulosalar lingvomadaniyat va leksikografiya masalalarini oʻrganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba boʻlib xizmat qilishi dalillangan;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining inson ongida aks etgan obrazi, yaʼni kishilarning ijtimoiy hayoti va lisoniy faoliyati natijasida vujudga kelgan meva nomlarining lugʻatlarda qanday ifodalanishi kerakligi aniqlangan;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklariga xos lisoniy belgilarning milliy semantikasi izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, birlamchi ilmiy-metodik manbalarga tayanilgani, samarali hamda ishonchli tavsiflash, tasniflash, shuningdek, statistik tahlil usullari qoʻllanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan olamning lisoniy manzarasida kognitiv jarayon aksini oʻrganish, turli milliy tillarning madaniy-maishiy mazmunini tahlil qilish, lisoniy ong va til tashuvchisi kabi masalalar kognitologiya, pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslikning rivojiga muayyan darajada hissa qoʻshishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilshunoslik, xususan, lugʻatshunoslikka oid fanlarni oʻqitish, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, “Leksikografiya asoslari”, “Sotsiolingvistika”, “Pragmalingvistika”,

“Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, ma’ruza, amaliy hamda seminar mashg‘ulotlari, maxsus kurslar o‘tishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida davlat tilini rivojlantirish, tildan o‘rinli va unumli foydalanish madaniyatini keng yoyishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek tilida mevachilik leksikasini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

til leksik sistemasida meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining o‘rni, madaniyatlararo universalialarni namoyon qilishi, ushbu birliklarda milliy-madaniy belgining nominativligi hamda kognitiv-semantik xususiyatlarga ega falsafiy, lingvistik birliklar sifatida semantik // struktural guruhlarining farqlari va tasniflariga oid xulosalardan A-OT-2021-2-raqamli, “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda (2020-2021-yy) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 11-iyuldagi 04/1842-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilida meva nomlarini ifodalovchi atov birliklar manba va ma’lumotlar bilan boyigan;

meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik, o‘z va o‘zlashma qatlamga oid mikrosistemalar//makrosistemalarini aniqlash, natija, vaqt-predikativ bog‘langan terminlar tipi hamda shakliy strukturalari, ularning sodda, murakkab tiplari, bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turlariga asoslangan nazariy ma’lumotlardan FZ-2019081663 raqamli “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek folklor san’ati terminlarining qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug‘ati”ni yaratishda (2020-2021-yy.) foydalanilgan (O‘zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasining 2023-yil 15-iyundagi 1/04-67-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida ikki tilli lug‘atlarni yaratishda til, madaniyat va ma’naviyat mushtarakligini ta’minlash tamoyillarining ishlab chiqilishiga erishilgan;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida, paremiologik birliklar: maqol // matal // hikmatli so‘z // frazeologik birliklarda hamda badiiy matnlarda meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining ma’no ko‘lami milliy-madaniy // diniy-axloqiy // falsafiy // tibbiy dunyoqarashning muhim qirralari verballashuviga oid xulosalar asosida Buxoro viloyat televideniyesining “Assalom, Buxoro”, “So‘z va adabiyot”, “Xalq qadrlagan durdonalar”, “Til - millat ko‘zgusi”, ko‘rsatuvlari va Buxoro radiosining “Xalqning ma’naviy boyliklari” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yi 14-iyuldagi 02.09-179-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlarning ilmiyligi va ommabopligi shakllanib, aholining bilim darajasi oshishiga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 2ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (shu jumladan, 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat bo‘lib, jami 120 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. MEVACHILIK LEKSIKASI UMUMLISONIY HODISA SIFATIDA

### 1.1. Mevachilik leksikasining maxsus lug‘atlarda ifodalanishi lingvistik muammo sifatida

Jahon tilshunosligida ham va uning bir qismi bo‘lgan o‘zbek tilshunosligida ham *leksema*, *so‘z*, *leksika* birliklariga turlicha ta’rif beriladi. Jumladan, rus tilshunosi Vladimir Gregorevich Gak: “So‘z tilning asosiy struktur-semantik birligi bo‘lib, borliq hodisalari, narsa va predmetlarning xususiyatlarini nomlashga xizmat qiladi va u fonetik, leksik, semantik va grammatik belgilarning majmuyi sifatida amalda qo‘llanadi”<sup>6</sup>, deb yozadi. Rus Vikipediyasi esa: “*Лексика – совокупность слов того или иного языка, части языка. Лексика является центральной частью языка, именующей, формирующей и передающей знания о каких-либо объектах, явлениях. Изучением лексики занимается наука лексикология, а также семасиология и ономасиология*”<sup>7</sup> ya’ni “*Leksika – ma’lum bir tilning so‘zlari to‘plami, tilning bir qismi. Leksika –tilning markaziy qismi, har qanday obyektlar, hodisalar to‘g‘risida bilimlarni nomlash, shakllantirish va uzatish birligidir. Leksikologiya fani, shuningdek, semasiologiya va onomasiologiya leksikani o‘rganish bilan shug‘ullanadi,*“ degan e’tirofni beradi.

Internet lug‘atida yana shunday talqinga ham duch kelamiz: “*Лексика* (греч. *lexikos* – относящийся к слову) – это совокупность слов языка, словарный состав. *Лексика* не является наукой или разделом языкознания”<sup>8</sup>, ya’ni “*Leksika (yunoncha lexikos – atashga ishora) –tildagi so‘zlar to‘plami, borliqni atash uchun qo‘llaniladigan so‘zlar jamlanmasi. Leksika fan yoki tilshunoslikning bir sohasi emas (uning mavjudligidir)*”.

Aslida, yuqorida aytilganlar leksika yoki so‘z ifodalaydigan semantikani yoki so‘z, *leksika*, *leksema* birliklarining funksional, stilistik xususiyatlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Zero, V.G.Gak jahon tilshunosligida so‘zga ta’rif berishning

<sup>6</sup> Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация: Общие вопросы. М.: Наука, 1977. – С. 230-293.

<sup>7</sup> <https://www.google.com/> викапедия\_лексика

<sup>8</sup> [ru.wikipedia.org > wiki > Лексика](https://ru.wikipedia.org/wiki/Лексика)

yetmishdan ortiq mezonlari ishlab chiqilganligini aytgan edi<sup>9</sup>. Tabiiyki, bu soʻzning serqirraligidan dalolat beradi.

Atov birliklarida tilning atash-nomlash vazifasi namoyon boʻlishini bilamiz. Aslida, atash-nomlash xususiyati tilning azaliy va milliy mohiyatini xarakterlaydi. Tilshunoslikka doir aksariyat manbalarda, hatto diniy manbalarda ham tilning ilk shakllangan vazifalaridan biri atash-nomlash vazifasi ekanligi uqtiriladi. Zero, obyektiv ehtiyoj va ijtimoiy zarurat har doim til atash-nomlash vazifasining dolzarbligini belgilab turadi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi doimiy oʻzgarishlar bu vazifaning qamrov koʻlamini kengaytirib boraveradi. Yana sivilizatsiyalar toʻqnashuvi, madaniyatlararo integratsiya jarayonlarida ham tilning mazkur vazifa doirasi oʻziga xos tarzda oshib boradi. Zamon talablari va lisoniy jamiyat ehtiyojlariga moslashish zaruratidan kelib chiqib til oʻzining qayishqoqlik xususiyatini namoyon qiladi, zamon va makonga moslashadi. Bu, ayniqsa, tom maʼnoda, yangi boʻlmasa-da, yangi mohiyat kasb etgan meva nomlari atash-nomlash jarayonida ham yaqqol koʻzga tashlanadi.


Yaxlitlik, ajralishlilik (ajratib olish mumkinlik) va nutqda qoʻllanishlik kabi asosiy xususiyatlarga ega boʻlgan soʻzda fonetik, morfologik va semantik strukturalar farqlanadi. Mana shu strukturalarni yaxlit holda birga oʻrganish soʻzning har bir tilga xos taʼrifini berish uchun keng imkoniyatlar yaratishning vositalaridan biridir. Buning ustiga, tilda soʻz ifoda va mazmun planlarining majmuyi, nutqda esa ifoda, mazmun va funksiya planlarining yigʻindisi sifatida oʻrganishni mantiqan toʻgʻri deb hisoblaymiz. Zero, axborot asrida jahon xalqlarining madaniy integratsiyasi tez surʼatlarda kengayib bormoqda. Bu milliy oʻziga xoslikni saqlab qolish dunyo sivilizatsiyasi tarixida oʻziga xos oʻrin tutgan har bir xalqning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini yaqqol namoyon etmoqda<sup>10</sup>.

---

<sup>9</sup> Гак В.Г. Лисоний белги ассиметрияси ва терминологиянинг айрим умумий муаммолари. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси//Филология. IV чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. –Самарқанд: СамДУ, 2002. –183 б.

<sup>10</sup> Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. – Тошкент: Фан, 2004. –17-б.

O‘zbek lingvistikasida XX asrning 70-yillarida shakllanib 90-yillarida fan sohasida rasmiy tan olingan substansial (mohiyat) tilshunoslik til va lisonni, lison va nutqni, lisoniy hamda nutqiy birliklarni keskin farqladi.<sup>11</sup>



### “1.1.-rasm.” Til-lison-nutq hodisalarining farqlanishi

Shu asosda leksema va so‘z munosabatiga ham bir qadar aniqlik kiritildi. Leksema lisoniy birlik, so‘z esa nutq birligi sifatida e’tirof etildi.<sup>12</sup>

### “1.1.- jadval.” Leksema va so‘z munosabati

Lisoniy birlik	Nutqiy birlik
<i>fonema</i>	<i>tovush</i>
<i>morfema</i>	<i>qo‘shimcha</i>
<i>leksema</i>	<i>so‘z (tub so‘z, yasama so‘z, qo‘shma so‘z...)</i>
<i>qolip</i>	<i>so‘z birikmasi, gap (sodda gap, qo‘shma gap...)</i>

Tabiiyki, mustaqil semali leksemalar inson tafakkurida o‘zi atab kelayotgan predmet, voqelik, harakat yoki belgi, miqdor va h.lar bilan bog‘liq holatda muayyan tasavvurlarni beradi, tasvirlarni voqelantiradi. Har qaysi millat vakili

<sup>11</sup> Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талкини: Филол. фан. докт. дисс.... автореф. – Тошкент, 2001.- 41 б.; Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол. фан. докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2002.- 67 б.

<sup>12</sup> Ne‘matov H., Vozorov O. Til va nutq. –T.: O‘qituvchi, 1993. -72 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.–112 б.

muayyan soʻzni eshitganda uning tafakkurida nimaiki jonlansa, oʻsha nominativ birlik ifodalagan leksik maʼno til lugʻatlarida ham shu holatda aks etishi zarur. Zero, hozirda oʻzbek tiliga antroposentrik yondashuv davri lisoniy ifoda birliklarini ham “shakldan maʼnoga...” yoʻnalishida emas, balki “maʼnodan shaklga...” tamoyili asosida tadqiq etish, meva nomlarini turli boʻlim va sathlarda qamrab olib, masalani yanada kengroq koʻlamda – funksional-semantik maydon sifatida tadqiq etish zaruratini kun tartibiga qoʻymoqda. Bunda tilning sistem-struktur munosabatlari yanada yaqqol koʻzga tashlanadi. Zero, “til oʻzining material mohiyatiga koʻra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi”<sup>13</sup>.

Tilimizdagi mevachilik nomlarini funksional-semantik maydon sifatida tadqiq etish va ularning leksikografik talqinlarini oʻzbekona tafakkur tarziga moslashtirishning bir qancha afzalliklari mavjud. Jumladan,

1) soʻz maʼnolari tushuncha ifodalashi maʼlum. Bunda kishi ongida aks etgan obyektiv olamdagi narsa, hodisa, harakat, holat va belgi haqidagi tushuncha soʻzda oʻz ifodasini topadi<sup>14</sup>. Mevachilik nomlarini maʼnosiga koʻra tasniflashda tilning umumiy ontologik tabiati yaqqolroq koʻzga tashlanadi;

2) oʻzbek tilidagi mevachilik leksikasini “maʼnodan shaklga...” tamoyili asosida tadqiq etish tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini oshiradi;

3) tilshunos K.Allan taʼkidlaganidek, tildagi maʼno ifodasi aloqa vositasining asosini tashkil etib, leksik maʼno ifodasi vositasida muayyan shaxs boshqa bir shaxsga jamiyat chegarasida oʻz fikrini yetkazib beradi<sup>15</sup>. Demak, nutqiy faoliyat nazariyasiga koʻra, inson borliqni oʻz ongida aks ettiradi, bu nusxa asosida tushuncha hosil qiladi, uni maʼnoga aylantirib, nutqda ifodalash uchun oʻziga eng tushunarli va maʼqulini rang-barang darajalanish qatorida turuvchi birliklar ichidan tanlaydi. Tabiiyki, bu soʻzlovchining tafakkuri, didi, lisoniy zaxirasi va nutqiy qobiliyati, qolaversa, nutqiy vaziyatni toʻgʻri baholay olishiga bogʻliq.

<sup>13</sup> Косовский Б. Общее языкознание. – Минск, 1969. –37 с.

<sup>14</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.–27 б.

<sup>15</sup> Allan K. Natural Language Semantics. – Oxford: Blackwell Publishers, 2006. – 3 p.

Keltirilgan asoslar o‘zbek tilidagi mevachilik leksikasini ma’nodan shaklga yo‘nalishida tadqiq qilinishi asosli ekanligini dalillaydi.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan, barcha xalq, millat vakillariga ba’zan tarjimonsiz ham tushunarli bo‘lgan mevachilikka oid ko‘plab so‘zlar borki, ular hamisha til leksikasining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Masalan, yer yuzida olma mevasini bilmaydigan yoki uni sevib iste’mol qilmaydigan xalq, deyarli, yo‘q. Ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzida olma daraxti qariyb besh ming yildan beri o‘stirilar ekan. Yevropaliklar Qadimgi Yunonistonni olma yetishtirishning beshigi deb bilishadi. Katon, Varron, Kolumella, Pliniy kabi Qadimgi Rim yozuvchilarining asarlarida o‘zlari yashagan davrda olmaning 36 turi yetishtirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar uchraydi<sup>16</sup>. Olmasevar yevropaliklar bu mevani kishiga boqiylik va abadiy yoshlik baxsh etuvchi, ya’ni yoshartiruvchi deb hisoblaganlari uchun ham unga **gold** (ЗОЛОТО; oltin) so‘zini sifatlovchi sifatida qo‘shib ishlatishgan: *gold apple*, *золотые яблоки*, *oltin olma*.

Inglizlarda “*An apple a day keeps the doctor away*” (“*Ешь по яблоку в день, и врачу не будет работы*”), ya’ni “*Har kuni olma yegan kishining shifokorga ishi tushmaydi*” maqolining paydo bo‘lishi ham yuqoridagi mantiq bilan bog‘liq, bizningcha.

Ruslarning o‘zida ham aynan shu mazmuni beruvchi “*Одно яблоко в ночь гонит доктора прочь*” (“*One apple a night drives the doctor away*”), ya’ni “*Kechasi bir olma yesang, shifokordan uzoqroq yuraver*” yoki “*Одно яблоко на ужин и врач не нужен*” (“*One apple for dinner and no doctor needed*”) “*Kechki ovqat uchun bitta olma yesang, senga shifokorning keragi yo‘q*” maqollari ham ishlatiladi.

Hatto kelt tilidagi “jannat” so‘zi Avalon mazmunan “olma mamlakati” ma’nosini berar ekan<sup>17</sup>.

Bu mevaning nomi turkiy tillarda (talaffuzi jihatidan bir-biriga nihoyatda yaqin) quyidagicha: o‘zbek tilida – **olma**; boshqird, qozoq, qorachoy-bolqor,

<sup>16</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Яблоко>

<sup>17</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Яблоко>



qo‘miq, no‘g‘ay, tatar tillarida – *alma*; ozarbayjon tilida – *alma* (آلما); usmonli turk tilida – *elma* (الما); gagauz, qrim-tatar, qoraqalpoq tillarida – *alma*; uyg‘ur tilida – elma (ئالما); chuvash tilida – *ulma* va h<sup>18</sup>.

Dunyo tillarida esa sal boshqacharoq: rus tilida – яблоко; ingliz tilida – apple; arab tilida – *tafaha* (تفاحة); nemis tilida – *apfel*; fransuz tilida – *pomme*; ispan tilida – *manzana*; shotland tilida – *ubhal*; latish tilida – *abols* va h. Shved tiliga bu so‘z ingliz tilidan aynan o‘zlashgan bo‘lsa, belorus tiliga rus tilidan *yablik*, ukrain tiliga *yabluko*, serb tiliga *jabuka* shaklida o‘rinlashgan. Olma mevasining lotin tilidagi shakli *malum* (*yabloko*), *malus* – olma daraxti (yablonya).

Mevachilik leksikasi doirasidagi nomlarning katta qismi uzoq tarixga ega. Ularning paydo bo‘lishi, muhimi, umumiste’olda qo‘llana boshlashi, yozma manbalarning guvohlik berishicha, qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dehqonchilik, jumladan, bog‘dorchilikning paydo bo‘lishi qanchalik uzoq tarixga ega bo‘lsa, mevachilik leksikasining tarixi ham shunchalik qadimiydir.

Masalan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari(XI asr)da shunday o‘rinlar bor:

*Yigitlarig ishlatu,*

*Yig‘ach yemish irg‘atu,*

*Qulan, keyik avlatu,*

*Bazram qilip avnalim<sup>19</sup>.*

**Mazmuni:**

*Yigitlarni ishlatib,*

***Daraxt mevalarini qoqtiraylik.***

*Qulon, kiyiklarni ovlatab,*

*Bayram qilib ovunaylik.*

Agar Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asaridagi mehnat qo‘shiqlari asar yozilishidan qariyb 5-6 asrlar ilgari yaratilib o‘sha davr

<sup>18</sup> [www.google.com](http://www.google.com) Ўзбекистон Республикасига 2010-2015 йиллар мобайнида олиб келинган олма навлари рўйхати.

<sup>19</sup> Кошғарий Махмуд. Девону луғатит турк/ таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов/. Уч томли. 1-том. –Тошкент: Фан, 1960. – 498 б.

kishilarining nutqida avloddan avlodga o'tib yashab kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni inobatga olsak, "*daraxt mevalarini qoqtirish*" bilan bog'liq o'rinlar mevachilik leksikasi juda qadimdan mavjudligini isbotlaydi.

Mahmud Koshg'ariy izohlaridan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, meva so'zi qadimda "*yig'ach yemish*", ya'ni "*daraxtdagi yemish*" tarzida birikma holatida qo'llanilgan ekan.

Insoniyat paydo bo'lgan dastlabki paytlarda yovvoyi holda o'sgan buta, daraxtlar hosilini iste'mol qilgan bo'lsa, ular o'troq hayotda yashashni boshlashgach, mevali daraxtlarni xonakilashtirishga, madaniylashtirishga harakat qilishgan. Insonlar orasida ayriboshlashning boshlanishi, keyinchalik turli mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining kuchayishi mevachilikning, tabiiyki, mevachilikka oid leksikaning ham taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.

Masalan, Buyuk Ipak yo'lida harakat qilgan savdogarlar qimmatbaho kiyimlar, matolar, dur-u javohirlar bilan birgalikda, mevalardan tayyorlangan turli shirinliklar (masalan, *turshak, mayiz, quritilgan jiyda, olmaqoqi*), ichimliklar (*sharbat, sharob, sok*)ni ham ellardan ellarga olib borganlar.

Har qaysi xalqda, har bir millat yashagan joyning tabiiy sharoiti, iqlimi, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq bo'lgan holda, turli mamlakat xalqlarining yonma-yon yashashi, o'zaro moddiy va madaniy aloqalarining o'sishi natijasida mevalar va mevalardan tayyorlangan mahsulotlar turi ham, tabiiyki, ularning nomlari ham ko'payib borgan. Mevachilikning taraqqiy etishi tilda leksik qatlamning boyishini ta'minlagan. Zero, mevachilikning vujudga kelishi insoniyat o'tmishi bilan, insonning mehnat jarayonini o'zlashtirish tarixi bilan uzviy aloqador. Izohli lug'atlarda meva nomlariga berilgan ta'riflar turlicha. Buni olma mevasiga berilgan izoh misolida kuzatamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"(O'TIL)da olma so'zining izohi quyidagicha:

*" OLMA 1 Atirullilar oilasiga mansub ko'p yillik mevali daraxt. Olma ko'chati. – Bu olmalar hosilga kirgach, besh-olti yil o'tishi kerak. S.Zunnunova. Olov.*

2 *Shu daraxtning mevasi. Oq olma. Qizil olma. – Juvon qo‘lidagi olmani ustma-ust bir necha marotaba tishladi va chala chaynab yutdi. A.Qahhor. Ming bir jon*”<sup>20</sup>.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”(O‘zME)da esa *olma* so‘zi bilan bog‘liq quyidagi izohga duch kelamiz: “*Olma (Malus) – ra‘nodoshlar oilasiga mansub, barg to‘kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi; urug‘li meva daraxti. Shimoliy va janubiy yarim sharning mo‘tadil mintaqalarida olmaning 25-30 turi, jumladan, O‘rta va Sharqiy Osiyo, O‘rta Osiyo va Kavkazda 10 turi tarqalgan. Ekiladigan mevali daraxtlar orasida maydoni jihatidan birinchi o‘rinda turadi...*

*O‘zbekistonda 8 turi yovvoyi holda uchraydi (Qarang Yovvoyi olma). Dunyo bo‘yicha yetishtiriladigan navlarining asosiy qismi xonaki olma (domestica) turiga kiradi...*

*Mevasi yangiligida yeyiladi, qoqi, konserva, murabbo, jem qilinadi.... Odatda, bog‘ga o‘tqazilganidan keyin 4 yil o‘tgach, hosilga kiradi. 40-50 yil mo‘l hosil beradi.... O‘rta Osiyo mahalliy navlari – oq olma, qizil olma, Samarqand olmasi, Namangan olmasi, achchiq olma, qimizak olma, Xorazm olmalari guruhi va boshqa olmaning mahalliy navlari O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, issiqqa, sovuqqa chidamli. Mevasi shirin, ertapishar...*

*Olma Malus domestica turiga mansub mevali daraxt va uning mevasidir*”<sup>21</sup>.

Bayon etilganlarga e‘tibor bersak, O‘TILda ham, O‘zMEda ham olma daraxti biologik nuqtayi nazardan izohlangan. Olma mevasi xususida esa bor-yo‘g‘i “*shu daraxtning mevasi*”, “*uning mevasi*” yoki “*mevasi shirin, ertapishar*” izohlari berilgan, xolos.

Aytaylik, O‘zbekistonga kelib o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlikka olma mevasi va uning xususiyatlarini mevaning o‘zini yoki tasvirini ko‘rsatib emas, so‘z bilan tasvirlab berishga to‘g‘ri keldi. Shunda biz “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ma‘lumotlariga tayanib: “*Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yil mevali daraxtning mevasi*” deb tushuntiramizmi yoki “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”dagi

<sup>20</sup> [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com) Ўзбек тилининг изоҳли луғати. О ҳарфи.

<sup>21</sup> <https://aim.uz/> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. О ҳарфи.

ma'lumotlarga ko'ra: "*Ra'nodoshlar oilasiga mansub, barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumiga kiruvchi urug'li meva daraxtining mevasi*" degan izohni beramizmi? Fikrimizcha, har ikkala izoh ham so'z ma'nosini ochib berishda sodda va tushunarlikdan yiroq. (Zero, o'zbek tilda muayyan tushunchani sodda, aniq, tushunarli tarzda ifodalash imkoniyati nihoyatda keng. Tilshunos olim, akademik Alibek Rustamov ta'biri bilan aytganda: "Agar o'zbek tilining so'z va iboralarini zamon-u makon nuqtayi nazaridan cheklamay yig'ilsa, dunyodagi eng ko'p so'zli lug'atlardan ulug'roq lug'at tuzish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilining boyligi va yetukligini ta'minlovchi ichki vositalari ham bor. Bu – ushbu tilda so'z va uning shakllarini yasovchi qo'shimchalar ko'pligi, qoidalarning istisnosizligi hamda ta'bir (bayon qilish, ifoda) soddaligidir. Ta'birning soddaligi o'zbek tilining kamolidan nishonadir"<sup>22</sup>.)

"Rus tilining izohli lug'ati"da olma so'zining lug'aviy ma'nosi ifodasi quyidagicha:

**"Яблоко** – сочный кисло-сладкий плод яблони, который употребляется в пищу в свежем виде, служит сырьём в кулинарии и для приготовления напитков. Наибольшее распространение получила яблоня домашняя, реже выращивают яблоню сливолистную. Размер красных, зелёных или жёлтых шаровидных плодов 5-13 см в диаметре. Происходит из Центральной Азии, где до сих пор произрастает дикорастущий предок яблони домашней – яблоня Сиверса. На сегодняшний день существует множество сортов этого вида яблони, произрастающих в различных климатических условиях. По времени созревания отличают летние, осенние и зимние сорта, более поздние сорта отличаются хорошей стойкостью..."<sup>23</sup>

E'tiborli jihati shundaki, internet tizimidagi rus wiki.ru lug'atida olma tushunchasi (etimologiyasi, botanik xususiyati, tarqalish tarixi, ozuqalilik qiymati, olmadan yegulik tayyorlashda foydalanish, olma savdosi, uning turlari va h.) bilan bog'liq 13ta mavzuviy guruh ma'lumotlari keltirilgan. Shuningdek, internet

<sup>22</sup> Рустамов А. Сўз хусусида сўз.–Тошкент: Extremum press, 2010.–160 б.

<sup>23</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Яблоко>

tizimidagi “рус wikisitatnigi”da olma tushunchasi bilan bog‘liq 5 turdagi – “Prozada olma timsoli” (“Яблоко в прозе”), ”She’riyatda olma obrazi” (“Яблоко в стихах”), ”Olma haqida maqollar, topishmoqlar” (“Пословицы, загадки”), ”Olma bilan bog‘liq manbalar” (“Источники”), “Olma haqida yana qarang” (“См. также”) – qiziqarli ma’lumotlar jamlangan<sup>24</sup>.

“Большая Российская энциклопедия”(Яблоня / Е.Н.Седов // гл. ред. Ю.С.Осипов. М., 2004-2017.)da ham, “Рус tilining izohli lug‘ati”da ham olma so‘ziga (olma daraxtiga emas, uning mevasiga): “*Yangi (uzilganidayoq) yeyiladigan, shuningdek, (turli yeguliklarni) pishirishda va ichimlik tayyorlashda xomashyo sifatida ishlatiladigan; olma daraxtining suvli, nordon-shirin ta’mli mevasi. Qizil, yashil yoki sariq sferik mevalarning diametri 5-13 sm bo‘ladi*” tarzida izoh berilgan.

Ko‘rinadiki, rus lug‘atlarida olma va olma daraxti tushunchalari o‘zbek lug‘atlariga qaraganda aniqroq izohlangan. Vaholanki, o‘zbek tilida ham yoki istalgan tilning leksik qatlamida ham gipo-geperonimik munosabatlarda ular boshqa-boshqa (meva va daraxt kabi) uyalarda turadi.

Ya’ni–

**o‘zbek tilida:**

“*meva uyasi*”: *olma, o‘rik, olcha, olxo‘ri, uzum, behi, nok, shaftoli, anor, banan, apelsin, mandarin* va b.

“*daraxt uyasi*”: *terak, tol, archa, olma, o‘rik, olcha, olxo‘ri, uzum, behi, nok, shaftoli, anor, banan, apelsin, mandarin, dub, qarag‘ay* va b.

**rus tilida:**

“*фруктовое гнездо*”: *яблоко, абрикос, вишня, слива, виноград, айва, груша, персик, гранат, банан, апельсин, мандарин* и так д.

“*гнездо дерева*”: *тополь, ива, пихта, яблоко, абрикос, вишня, слива, виноград, айва, груша, персик, гранат, банан, апельсин, мандарин, дуб, сосна* и др.

**ingliz tilida:**

---

<sup>24</sup> <https://ru.wikisitatnik>

“*fruit nest*”: *apple, banana, orange, mandarin, kiwi, apricot, cherry, plum, grape, quince, pear, peach, pomegranate* etc.

“*Tree nest*”: *poplar, willow, fir, apple, apricot, cherry, plum, grape, quince, pear, peach, pomegranate, banana, orange, mandarin, oak, pine* etc.

Yana shu o‘rinda aytish mumkinki, garchi O‘zME izohlarida: “O‘zbekistonda olmaning 10ta navi yetishtiriladi”, deyilsa-da, “O‘zbekiston Respublikasiga 2010-2015-yillar mobaynida olib kelingan olma navlari ro‘yxati”<sup>25</sup> da quyidagi olma turlari sanab o‘tilgan: *aydored, jonagold, alva, arnabel, topred, arnika, ligol, topaz, florina, mutsu, fridom, gala, kiku, gibson, pinova, chempion, gloster, piros, golden, empayter, jinjergold* va b. Bu navlar soni 40 dan ortiq.

O‘zbekiston Respublikasi M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining olimlari tomonidan yaratilgan olma navlari ham allaqachon yurt dasturxoniga chiqqan. Bular: *Toshkent borovinkasi, Samarqand a‘losi, afrosiyobi, oydin, bolajon, farangiz, go‘zal, feruza, kamola, cho‘lpon, mehmoniy, tilla olma, nafis*.

Xalq tilida olma navlarini *tramayi (kuzgi), eshakolma (xarseb), naqsholma, olmacha* (ertapishar nav), *dumchaolma (dumchaborik), kelinolma, farangolma, xashaki* deb atalishini ham kuzatamiz va tildagi olmachilik bilan bog‘liq “nomlarning barchasi shartlilik printsipi asosida yuzaga kelgan” tarzida xulosa chiqarish bir qadar to‘g‘ri emas, deb hisoblaymiz.

Davrimiz kishilari, odatda, olma sotib olganda, sotganda, yeganda yoki shu mevani ko‘rganda mazkur mevani rangiga qarab ajratadilar, xolos. Ya‘ni – *sariq olma, qizil olma, ko‘k olma, yashil olma*.

Demak, tilimizda mevachilik leksikasiga oid so‘zlar miqdori ham ancha salmoqli: ular o‘ziga xos umumiy lug‘aviy ma‘no to‘dalari hamda xususiy lug‘aviy ma‘no guruhlariga ega. Jumladan, birgina olma mevasi bilan bog‘liq so‘zlar miqdorining o‘zi o‘zbek tilida yuzdan oshadi.

---

<sup>25</sup> [www.google.com](http://www.google.com) Ўзбекистон Республикасига 2010-2015 йиллар мобайнида олиб келинган олма навлари рўйхати

(Mevachilik leksikasini til nuqtayi nazaridan yig'ish, o'rganish, ular bilan bog'liq izohli lug'atlar tuzish, meva nomlariga berigan ta'riflarni til imkoniyatlaridan foydalanib (xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashgan holda) soddalashtirish hamda mukammallashtirish, bir tomondan, til o'rganuvchilarga qulaylik tug'dirsa, ikkinchi tomondan, biologiya va tilshunoslik integratsiyasini ta'minlaydi.)

Tilning lug'at tarkibini o'xshashlik jihatlariga ko'ra muayyan paradigmatic qatorlarga birlashtirish tilning o'zi kabi murakkab, xilma-xil va, ayni paytda, o'ta qiziqarlidir. O'zbek tilidagi mevachilikka oid so'zlarni yig'ish va muayyan mavzuviy guruhlariga birlashtirish ham xuddi shunday murakkab masala bo'lsa-da, sohaning so'z va atamalarini yig'ish, o'xshashlik belgisi ostida paradigmatic qatorlarini tuzish, lug'atlarda nafaqat meva daraxtlarining nomini, balki meva va unga tegishli atamalarni ham (faqat biologik xususiyati nuqtayi nazaridan emas) til egalari ongida qanday o'rinlashganligiga qarab izohlash zarur. Bu, tabiiyki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, soha leksikasi uchun ham muhim.

## **1.2. *Lison~nutq~matn* trixotomiyasida meva nomlari talqini**

Dialektikaning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab hamda uning assemitriyasida turuvchi alohidalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat munosabati butun borliq – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash qonuniyatlaridan biri bo'lganligi sababli u har bir fanda o'ziga xos tarzda xususiylashadi. Til va uning voqelanishiga shu nuqtayi nazar bilan yondashuvchi substansial tilshunoslik til va lisonni faqlaydi<sup>26</sup>.

Jumladan, struktur, substansial tilshunoslikda *til* atamasi keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Jumladan,

*keng ma'noda*: Til – jamiyat a'zolari o'rtasida kommunikativ, ekspressiv, akkumulativ vazifalarni amalga oshiruvchi butunlik;


*tor ma'noda*: Til – lison va nutq, lisonning nutqiy voqelanishini muvozanatga solib turuvchi me'yori, ya'ni *lison~nutq~me'yori* majmuyi.

---

<sup>26</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Germaniya: "Globe Edit international Publishing Group" ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020.–555 b.



Buni quyidagi rasmda ifodalashga harakat qilamiz .



### “1.2.- rasm”. Til atamasi keng va tor ma’nolarda tushunilishi

Zero, til o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan butunlik sanaladi. Jumladan,

1. **Til** – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat.
2. **Til** – tafakkur mahsulini shakllantirish (kodlashtirish) vositasi.
3. **Til** tafakkur mahsulini xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga xizmat qiladi.
4. **Til** – axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi.
5. **Tilda** bosh ichki ziddiyat – atash (nominativ) va ifodalash (ekspresiv) vazifalarining dialektik birligi.

Demak, tilga nisbatan lison xususiy xarakterda bo‘ladi. Mazkur yondashuv asosida lisonga shunday ta’rif berilganligi o‘rinli:

**LISON** – ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash hamda turli maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar, shuningdek, bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisi.

Lison tilga nisbatan xususiylik, nutqqa nisbatan esa umumiylik xarakterida mavjud butunlik sanaladi. Lisonga xos xususiyatlar quyidagilar:



1.**Lison** – UMIS tabiatli butunlik. U tilga nisbatan xususiy, nutqqa nisbatan esa umumiylik xarakteriga ega.

2.**Lison** – lisoniy birliklarning serqirra, ko‘p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror sistema.

3.**Lison** – tashqi muhit ta‘siriga o‘ta sezgir, o‘zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o‘z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik tizim.

4.**Lison** bevosita kuzatishda berilmagan.

**NUTQ** – lisonning me‘yor elagidan o‘tgan muayyan moddiy (yozma, og‘zaki, tasviriy, imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishi.

Demak, nutq lisonning voqelanish shakli hisoblanadi.

*Nutqqa xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni keltirish o‘rinli:*


1.**Nutq** – AHVO tabiatli butunlik. U lisonga nisbatan hamisha xususiylik kasb etadi.

2.**Nutq** – rang-barang, takrorlanmas, bunyodkor tizim.

3.**Nutq** bevosita kuzatishda berilgan.

Hamisha xususiy hodisalar zahirida umumiylikni ko‘rish mumkin<sup>27</sup>.

Demak, borliq tilda, til lisonda, lison esa nutqda voqelanadi yoki moddiylashadi, yuzaga chiqadi. Buni quyidagi chizmada ifodalaymiz:



**“1.3.-rasm.” Borliq tilda, til lisonda, lison esa nutqda voqelanishi**

<sup>27</sup> Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O‘qituvchi, 1993.; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.; Sayfullayeva R., Abuzalova M., Mamadaliyeva N., Yuldasheva D. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–296 b. va b.

Bizning fikrimizcha, nutqning asosiy birligi matn hisoblanadi. Matn keng tushuncha bo‘lib uni mutaxassislar turlicha talqin etadilar. Jumladan, bir so‘z ham matndir (Potebniya). Matn semantik jihatdan ikki turga bo‘linadi:

1) bog‘lanishli matn va 2) bog‘lanishsiz matn.

Odatda, muayyan mavzu, fikr, tushuncha atrofida bildirilgan fikrlar gap shaklida shakllantirilganda bog‘lanishli matnlar yuzaga keladi. Ba‘zan qaysidir mavzu, tushuncha, tavsif va tasvir atrofidagi birliklar so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida ifodalanganda bog‘lanishsiz matn hosil bo‘ladi.

Shuningdek, matnlar hajman – 1) katta hajmli (makro) va 2) kichik hajmli (mikro) matnlarga ham bo‘linadi.

Bog‘lanishli matnlar qaysi uslubda ifodalanganligiga qarab – 1) ilmiy matn, 2) badiiy matn, 3) publitsistik matn, 4) so‘zlashuv matni, 3) rasmiy matn kabilarga ham ajratiladi.


Bog‘lanishli matnlarni ifoda shakliga ko‘ra – 1) she‘riy matn, 2) nasriy matn yoki 3) she‘riy-nasriy matn kabilarga bo‘linadi.

Nutqning barcha ko‘rinishlari uchun xarakterli bo‘lgan birlik matn bo‘lib, matnning tarkibi nutq tovushlar (grafema), affiksial birliklar, so‘z, ibora, so‘z birikmasi, gap kabilardan iborat bo‘ladi.



**“1.4.-rasm.” Lisoniy va nutqiy birliklar**

Fikrimizcha, nutq orqali butun jamiyat a'zolari o'rtasida amalga oshiriladigan kommunikativ, ekspressiv, akkumulativ faoliyat *LISON~NUTQ~MATN* trixotomiyasida ixtilofida amalga oshadi.



“1.5.-rasm.” *LISON~NUTQ~MATN* trixotomiyasi

*Lison~nutq~matn* trixotomiyasida meva nomlari – lisonda mustaqil leksema, nutqda matn tarkibidagi atash ma'noli so'z sifatida voqelanadi.

Ma'lumki, atash-nomlash muammosi ustida V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, V.G.Gak, V.G.Guzev, V.P.Danilenko, L.L.Kutina, R.G.Piotrovskiy, N.P.Kuzmin va boshqa olimlar keng izlanishlar olib borishgan<sup>28</sup>. Ular nominatsiya jarayonida ikki vazifa farqlanishini ta'kidlaydilar:

- 1) mavjud til birliklariga yangi ma'noviy vazifa yuklash;
- 2) mavjud so'zlardan yangi birikmali ifodani vujudga keltirish.

Mavjud til birliklari o'z qatlamga xos bo'lishi ham, boshqa tildan o'zlashtirishi ham mumkin.

<sup>28</sup> Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. Изд. второе. – М.: Высшая школа, 1972. – 614 с.; Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М., 1959. – 492 с.; Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.: Добросвет, 2004. – 228 с.; Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Имя. – Л., 1987. – 170 с.; Даниленко В.П. Введение в языкознание. – Москва: Флинта, 2020. – 268 с.; Кутина Л.Л. Формирование языка русской науки – Москва: Наука, 1964. – 222 с.; Пиотровский Р. Г. Информационные измерения языка. — Л., 1968.

Shu asosda ilmiy manbalarda nominatsiyaning quyidagi usullarini ajratish urf bo'lgan:

semantik usul (umumxalq tilidagi leksik birlikka yangi ma'no berish);

morfologik usul (so'zshakllarga atamaviy ma'no berish);

sintaktik usul (erkin so'z birikmalaridan yangi atov birligini hosil qilish);

boshqa tillardan so'z va so'z birikmalarini olish.

Tilning atash-nomlash vazifasi imkoniyatlari meva nomlari tushunchalari nomlanishida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Mevachilik leksikasini ifodalovchi atov birliklari, asosan, atash-nomlash vazifasini bajaruvchi leksik birlik va erkin so'z birikmalari hisoblanadi. So'z birikmalarining atov birliklariga aylanishi haqida tilshunos L.B.Tkachevaning quyidagicha fikrlari bor: "...abbreviatura va so'z birikmalaridan foydalanish mobaynida termin yaratilishida obyektiv qonuniyatlariga asoslanganligini aks ettiruvchi qarama-qarshiliklar birligi deb qaraladi. Ularning atash-nomlanishida ko'p komponentli terminlar ishlatiladi va, bir tomondan, tushunchalarning murakkabligi bilan o'zaro bog'langanligi bo'lsa, boshqa tomondan, tejamlilikka intiladigan aloqa jarayonini jadallashtirish zaruratiga bog'langanligi va axborot oqimi ko'payganidir"<sup>29</sup>.

Vaqt o'tishi bilan yangi ma'no xalqning milliy-ruhiy boyligi darajasiga ko'tariladi: Y.D.Apresyaning yozishicha: "... til belgisining semantikasi narsa, xususiyat, harakat, jarayon va shu kabilar haqidagi sodda tushunchalarni aks ettiradi, shu til egasi – xalqning asrlar davomida shakllangan oddiy dunyo ko'rinishidagi moddiy va ma'naviy tajribasini aniqlaydi"<sup>30</sup>.

Borliqni ongda aks ettirish va ifodalashda inson uchun til asosiy vosita. Uning yordamida kishi borliq haqidagi tasavvurlarini umumlashtiradi, xususiy ko'rinishlarini hosil qiladi, ajratadi va farqlaydi.

Tilda tejamlilik qonuniyati ustuvor, kamdan-kam hollarda yangi ifoda hosil qilinadi, asosan, mavjud birliklaridan unumli foydalanib, yangidan-yangi shakl va ma'no yaxlitliklari vujudga keltirildi. Hatto, aytish mumkinki, "Odamlar yangi

<sup>29</sup> Ткачева Л.Б. Основные закономерности английской терминологии: Монография. – Томск: ТГУ, 1986. – 198 с.

<sup>30</sup> Апресян Ю.Д. Что такое структурная лингвистика? // Иностранные языки в школе. –1961. № 3. –С. 82-96.

o‘zaklarni o‘ylab topmaydilar (yangi o‘zaklar tilda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish yoki “eski” o‘zaklarning qayta bo‘linishi yoxud soddalashuvi natijasida paydo bo‘ladi). Shartli ma’noda shuni ham ta’kidlash mumkinki, yangi so‘zlar ham kishilar tomonidan o‘ylab topilmaydi, odamlar tilda mavjud sermahsul so‘z yasash modellarining imkoniyatlarini ishga soladilar, tilda avvaldan bor bo‘lgan, ammo qo‘llanmay kelayotgan potensial so‘zlarni “faollashtiradilar”. Binobarin, yangi obyektlar va holatlarni belgilash, atash, asosan, (mutlaqo deyish noto‘g‘ri bo‘ladi) tilda avvaldan mavjud bo‘lgan lisoniy birliklarni yangi ma’noda qo‘llash, ya’ni polisemiya orqali amalga oshiriladi”<sup>31</sup>. Polisemiya va polifunksionallik tilning ixchamligini, ifoda vositalari yashovchanligining sistemaviyligi va barqarorligini, faolligi va davomiyligini ta’minlaydi.

Tilda eski va yangining uzviy bog‘liqligi, muttasil hamkorligini ko‘ramiz. Ijtimoiy ongda tinimsiz oshib boradigan yangi tushunchalarni ifodalash uchun til, ko‘pincha, «eski fond»idan vosita tanlaydi va uni yangi mazmun bilan birlashtiradi, natijada yangi va ohorli ifoda vositasi vujudga keladi.

Har qanday borliq hodisasining tildagi ifodasida fonetik, leksik va grammatik jihatlar uyg‘unligi mavjud. Biror leksik vosita fonetik va grammatik xususiyatdan xoli bo‘lishi mumkin emas. Shu boisdan bu uch sath tilning asosiy “suyagi” sanaladi.

Tilda yangi ifodalarning vujudga kelishida (yuqorida aytilganidek, biz bunda tom ma’nodagi yangi ifodani emas, balki yangi tushunchani ifodalayotgan eski ifodani nazarda tutyapmiz) leksika va grammatikaning yangi munosabati vujudga keladi. Bu holat mevachilik nomlari bilan bog‘liq birliklarda ham kuzatiladi.

Biz mevachilik leksikasining lisondagi paradigmatic qatorlari nutqiy voqelanishini bir meva nomi – *olma* misolida bir necha leksik-semantik guruhlariga ajratishga harakat qilib ko‘rdik.

Kuzatishlarimiz asosida olma leksikasi birliklarini quyidagi tematik guruhlariga ajratishni ma’qul topdik.

### **1. Olma mevasidan foydalanish maqsadiga ko‘ra guruh.** Bilamizki, olma

---

<sup>31</sup> Кустова Г.И. Когнитивные модели в семантической деривации система производных значений // Вопросы языкознания, 2000. – №4.

mevasi pishib yetilgach, iste'mol uchun yaroqli bo'ladi. Uni tozalab yuvib iste'mol qilish, quritib olmaqoqi tayyorlash, maxsus zavodlarda esa undan olma soki, olma sirkasi, olma murabbosini, olma djemi, olma pyurisi va vino tayyorlash mumkin. Demak, olma mevasidan foydalanish maqsadiga ko'ra guruhni ikkita ichki guruhchaga ajratish mumkin:

- 1) xo'raki olma navlari va
- 2) xomashyobop olma navlari.

Xo'raki olma navlariga *besh yulduz, rozmarin, golden, afrosiyobi, naqsholma, nokpayvand* kabilar kiradi.

Xomashyobop olma navlariga *starkrimson, fudzi, simarenko, jonatan, Toshkent borovinkasi* va b.lar kiradi.

## **2. Pishish vaqtiga ko'ra olma navlarini ifodalovchi birliklar guruhi.**

Aksariyat mevalar yurtimizda ertapishar, o'rtapishar va kechpishar singari navlarga bo'linadi. Ertapishar olma navlari nomlarini ifodalovchi birliklarga *olmacha* (mazkur olma turi, asosan, Buxoro viloyatida yetishtiriladi. Olmacha pishgach, 3-4 kun ichida iste'mol qilinmasa, u ta'mini yo'qotadi. Murabbosini juda xushxo'r chiqadi), *dumchaolma, bolajon* singari nomlar kirsam, o'rtapishar olma navlariga *jersimak, golden, Samarqand a'losi, afrosiyobi, naqsholma, besh yulduz, qirmizak* singari nomlar kiradi. Kechpishar navlarni ifodalovchi birliklarga esa *tiramayi, sariq olma, xarseb, mutsu, fridom, gala, kiku, gibson, pinova, chempion, gloster, piros* singarilar kiradi.

## **3. Onomastik birliklar asosida nomlangan olma navlarini ifodalovchi leksik birliklar guruhi.**

Olmachilik leksikasida shaxs nomi yoki joy nomi bilan ataluvchi leksemalar ham mavjud. *Toshkent borovinkasi, Samarqand a'losi, Jizzax golden, Namangan naqshi* kabilar birikma tarzida uchrasa, *afrosiyobi, cho'lpon, kamola, skarletspur, simarenko, jonatan* kabilar sodda so'z tarzida uchraydi.

Antroponimlar bilan bog'liq olma nomlarini ham bevosita ichki guruhlarga bo'lish imkoniyati mavjud. Jumladan,

- 1) muayyan antroponimga bevosita aloqador olma nomlari va
- 2) muayyan antroponimga bevosita aloqador bo'lmagan olma nomlari.

Muayyan antroponimga bevosita aloqador olma nomlari, tabiiyki, o'sha olma

navini yaratgan selektsioner, olim, payvandchi yoki shu olma navini chetdan olib kelib ko‘paytirgan mevachilikka qiziquvchi shaxs nomi (ismi, familiyasi yoki taxallusi) bilan atalgan bo‘ladi: *simarenko...*

Muayyan antroponimga bevosita aloqador bo‘lmagan olma nomlari, odatda, mashhur kishilarning sharafiga yoki xalq orasida ko‘p ishlatiladigan sevimli kishi nomlariga qo‘yiladi. Masalan, *jonatan, gibson, piros; cho‘lpon, kamola* va h.

**4. Tarqalish o‘rniga ko‘ra olma navlarini ifodalovchi leksik birliklar guruhi.** Tarqalish o‘rni deganda olma navlarining qaysi hududlarda yetishtirilishi nazarda tutiladi. Masalan,

Xorazm olmasi: *oydin, bolajon, simarenko...*

Jizzax olmasi: *Jizzax golden, farangiz, go‘zal...*

Toshkent olmasi: *Toshkent borovinkasi, mehmoniy, tilla olma, nafis, qandil...*

Samarqand olmasi: *afrosiyobi, Samarqand a‘losi, kamola, achchiq olma...*

Eron olmasi, Xitoy olmasi kabi.

**5. Rang-tusiga ko‘ra olma navlarini ifodalovchi leksik birliklar guruhi.** Bu guruhga, tabiiyki, *qizil, oq, sariq, ko‘k* va *yashil* tusli olma navlarining nomlari kiritiladi. Garchi mazkur guruhga kiruvchi olma navlari nomi ichki guruhlarda ko‘pchilikni tashkil etmaydigandek ko‘rinsa-da, aslida, *oq-sariq, oq-qizil, qirmizi* kabi rang-tusga ega olma navlari ham borligini unutmasligimiz zarur.

**6. Maza-ta‘miga ko‘ra olma navlarini ifodalovchi leksik birliklar guruhi.** Mazkur guruhdan *shirin, nordon, taxir, sho‘r* va *nordon-shirin* (kislo-sladkiy) olma turlari o‘rin oladi.

**7. Olma zararkunandalari va kasalliklarini ifodalovchi nomlar guruhi:** *olma qurti, olma qo‘ng‘izi, olma kuyasi, olma biti, qandala, qizil o‘rgimchakkana, Kaliforniya qalqondori; chirish (monilioz), oftobda kuyish, bakterial kuyish, sovuq urishi, suvlanish, muzlash, rang o‘zgarishi, un shudring, qo‘tir (parsha)...*

**8. Olma yetishtirish sohasida foydalaniladigan gerbitsitlar nomini ifodalovchi birliklar guruhi.** Olmachilikda olma mevalarini bevaqt to‘kilishidan saqlab qolish yoki uning daraxtiga turli gerbitsitlar orqali ishlov berish va shu orqali mo‘l hosil olish ishlari ham amalga oshiriladi. Bu guruhga *fungusid, kalsiy, tiofanat metil, fositel alyuminiy* singari gerbitsit nomlari kiradi.

**9. Olma yetishtirish agrotexnikasiga oid leksik birliklar guruhi.** *Ko'chat o'tqazish, ishlov berish, dorilash, butash, kesish, shakl berish, payvand qilish, payvandtag, sug'orish, o'g'itlash, changlatish, terish, saqlash va h.lar.*

**10. Olma bilan bog'liq partonimik (butun-bo'lak munosabatli) birliklar guruhi.** *Olma (meva; butun) – po'st, et, urug', dumcha, naycha, changdon, changchi, olma suvi, sharbati, temir moddasi (qismlar);*

*olma (daraxt; butun) – tana, navda, shox, ildiz, barg, po'stloq, gul, gulkosa, pindi, kurtak, g'o'ra, meva (qismlar) va h.*

**11. Olma bilan bog'liq gipo-geperonimik (tur-jins munosabatli) birliklar guruhi.** *Olma – Toshkent borovinkasi, oydin, bolajon, farangiz, go'zal, feruza, kamola, cho'lpon, mehmoniy, tilla olma, nafis....*

**12. Olmachilik bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlarini ifodalovchi leksik birliklar guruhi:** *bog'bon, sohibkor, agronom, olim, seleksioner, olmachi, mexanizator, traktorchi, dorilovchi, payvandlovchi...*

**13. Olmachilikda qo'llaniladigan texnika vositalari, turli ish qurollari va buyum nomlari guruhi:** *simbag'az, shpalera, narvon, tirgak, traktor, yuk mashinasi, dori purkagich, cho'p yashik, qog'oz yashik, chelak va b.*

**14. Olma fotosintezi bilan bog'liq leksik birliklar guruhi:** *fotosintez, barg, nafas olish, ildiz, gullash, rivojlanish, pishish kabi.*

**15. Olmachilik leksikasining tuzilishi bilan bog'liq birliklar guruhi:**  
*sodda so'z shaklida: tiramay, qirmizak, xarseb, mutsu, fridom, gala, kiku, gibson, pinova, chempion, gloster, piros...*

*qo'shma so'z shaklida: kelinolma, farangolma, naqsholma, besh yulduz, nokpayvand...*

*birikma shaklida: Toshkent borovinkasi, sariq olma, Samarqand a'losi, Jizzax golden, Namangan naqshi...*

**16. Olmachilik leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam birliklari guruhi.**  
Mana shu asosga ko'ra o'zbek tilidagi olmachilik bilan bog'liq birliklarni ikki guruhga ajratamiz:

- 1) olmachilik leksikasidagi o'z qatlam birliklari va
- 2) olmachilik leksikasidagi o'zlashma qatlam birliklari.



Tabiiyki, o‘z qatlam leksikasini o‘zlashma qatlam leksikasikasiga nisbatan farqlaymiz. Shu o‘rinda eslatib o‘tishimiz zarurki, o‘z qatlam leksikasi genetik jihatdan faqat turkiy so‘zlardangina iborat emas. Asosi o‘zlashgan qatlamga tegishli bo‘lsa-da, o‘zbek tilining so‘z yasash sistemasida yangidan yasalgan so‘zlar ham o‘z qatlamga mansub. Masalan, *payvand* mevachilik atamasi o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *qo‘shish, ulash, bog‘lash* (ya’ni biror o‘simlikning navda yoki kurtagini boshqa o‘simlik tanasiga o‘tqazish, ulash usuli) ma’nolarini anglatadi. Payvand leksemasiga *-chi, -lovchi, -kash* affikslarini qo‘shish orqali yangi shaxs otlari yasalgan: *payvand+chi, payvand+lovchi, payvand+kash*.

Yoki *payvand+la(moq), payvand qilish* fe’llari ham, *payvandtag, payvandust* qo‘shma otlari ham o‘zbek tilining o‘z qatlam leksikasidan allaqachon o‘rin egallagan.

Bu qatorlarni yana davom ettirish imkoni mavjud bo‘lib, fikrimizcha, ijtimoiy hayotimizdagi har bir sohaga tegishli birliklar til nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi, ularga tilimizni boyituvchi manbalar sifatida qaralishi, zaruriy o‘rinlarda ularning imlo va izohli lug‘atlari tayyorlanishi zarur.

Xullas, Mahmud Koshg‘ariy umumturkiy leksema sifatida izohlagan o‘g‘uzcha alma (olma) so‘zi<sup>32</sup> turmush tarzimizga singib ketgan meva nomini ifodalaydi va xalq tilida kayfiyatni ko‘taruvchi, go‘zallik tashuvchi (*olma yonoqli, oq olmadek yoqimli, naqsholmadek oqi oqqa, qizili qizilga ajralgan, o‘ta go‘zal*) tashbeh birligi sifatida hamisha qo‘llaniladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olsak, o‘zbek tilda mevachilikka oid leksikani o‘rganish ham alohida ahamiyatga egaligi ma’lum bo‘ladi.

### **1.3. O‘z qatlamga oid meva nomlari xususida**

Inson til orqali tashqi olamdagi barcha predmet, narsalar va hodisalarni idrok qiladi; ongida, tafakkurida ularni mujassamlashtiradi, ular haqidagi bilim doirasini kengaytiradi. Natijada, bularning umumlashmasi, xulosasi kishilarning

---

<sup>32</sup> Кошғарий Махмуд. Девону луғатит турк/ таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов/. Уч томли. 1-том.—Тошкент: Фан, 1960. — 498 б.

ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Narsa va predmetlarni faqat o‘z holicha, ya’ni ularning tashqi tuzilishi va shakliy xususiyatlariga qarab ongi, fikri va tafakkurida umumlashtirmasdan, balki ularning tuzilishi asosida mavjud bo‘lgan ichki xususiyatlari haqidagi fikrlarni ham o‘z faoliyatida umumlashtiradi<sup>33</sup>.

Tabiiyki, o‘z qatlam leksikasini o‘zlashma qatlam leksikasiga nisbatan farqlaymiz. Eslatib o‘tishimizdek, o‘z qatlam leksikasi genetik jihatdan faqat turkiy so‘zlardangina iborat emas. Asosi o‘zlashgan qatlamga tegishli bo‘lsa-da, o‘zbek tilining so‘z yasash sistemasida yangidan yasalgan so‘zlar ham o‘z qatlamga mansub. Masalan, payvand mevalilik atamasi o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, qo‘shish, ulash, bog‘lash (ya’ni biror o‘simlikning navda yoki kurtagini boshqa o‘simlik tanasiga o‘tqazish, ulash usuli) ma’nolarini anglatadi<sup>34</sup>. Payvand leksemasiga **-chi, -lovchi, -kash** affikslerini qo‘shish orqali yangi shaxs otlari yasalgan: **payvand+chi, payvand+lovchi, payvand+kash**.

Yoki **payvand+la(moq), payvand qilish** fe’llari ham, **payvandtag, payvandust** qo‘shma otlari ham o‘zbek tilining o‘z qatlam leksikadan allaqachon o‘rin egallagan.

O‘z qatlamga tegishli meva nomlarining ba’zilarida ixtisoslashuv ro‘y berganligini kuzatamiz. Ixtisoslashish tilda dialektik taraqqiyot natijasi sifatida baholanadi, bunda lug‘aviy birliklarning shakl va ma’no munosabati orasidagi “masofa”ning yaqinlashuvi yuz beradi, ya’ni bu jarayonda semantik integratsiya yoki differentsiatsiya kelib chiqadi.

M.Mirtojiyev o‘zining “O‘zbek tili semasiologiyasi” kitobida tilshunos H.Paul fikrlariga tayanib shunday yozadi: “So‘z ma’nosining rivoji to‘rt ko‘rinishda bo‘lishini ta’kidlash zarur:

- ma’no hajmining torayishi va ifodaning boyishi (ma’noning ixtisoslashishi);
- tushuncha mazmunining kengayishi va ifodaning sayozlashuvi;
- makon va zamon bilan bog‘liq sabablar bilan nom ko‘chishi;
- yuqoridagilardan tashqari sabablarga ko‘ra ma’no o‘zgarishi.

<sup>33</sup> Равшанов М. Сўзларнинг денотатив маъно компонентлари //Тил ва адабиёт таълими журнали, 1999.– № 1. – Б. 39-41.

<sup>34</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. P harfi. –200-b. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/102-lug-atlar>

Shveytsariyalik olim S.Ulmann H.Paulga qo‘shilgani holda, so‘z semantik taraqqiyotida tabu, evfemizm, sinesteziya kabi psixik hodisalar ham ahamiyatga ega bo‘lgan deb qo‘shimcha qiladi. K.Baldinger sinesteziyani psixik hodisa emas, fiziologik hodisa deb ma’no taraqqiyotidan biri sifatida qaraydi. Rus tilshunosi V.A.Zveginsev ham so‘z semantik taraqqiyotini mantiqiy-semantik hodisalar nuqtayi nazaridan turib tahlil qilishga qarshi bo‘lmaydi, balki unga qo‘shiladi. Shuningdek, bunga u xalq tarixi va tilning tarkibiy xususiyati bilan bog‘liq holda tahlil etishni ilova qilish kerak deb ko‘rsatadi”<sup>35</sup>.

Demak, so‘zdagi semantik siljishlarni yuzaga keltiruvchi mantiqiy-semantik hodisalarni ikkiga ajratish mumkin:

- 1) ma’no kengayishi va torayishi;
- 2) hosila ma’no yuzaga kelishi.

Ko‘rsatilganlar so‘z semantik strukturasiidagi o‘zgarishlarni hosil qilish usullari bo‘lsa, tilshunoslar bu usullar asosida hosila ma’noning vujudga kelish sabablarini ham izohlaydilar. So‘z semantik taraqqiyotini vujudga keltiruvchi, asos ma’nolardan hosila ma’nolarning paydo bo‘lishi, hosila ma’nolarning ixtisoslashuvini keltirib chiqaruvchi lisoniy va nolisoniy omillar tilshunoslar talqinida turli nisbatlarda o‘z aksini topadi. “B.M.Brealning semantik differentsiatsiya, K.Baldingerning nolisoniy omillar, G.Shperberning ekspansiya va attraksiya sababchiligi qonuniyatlari kabilarni ko‘rsatish mumkin. E.Vellander so‘z semantik taraqqiyotida intralingvistik sababni, S.Eman va qator rus tilshunoslari ham shunga o‘xshash fikrlarni bayon etishgan”<sup>36</sup>ligi ma’lum.

Biz yuqorida nomlari zikr qilingan olimlarning qarashlarini hurmat bilan e’tirof etgan holda ular fikrlarini umumlashtirib, hosila ma’no vujudga kelishi va ixtisoslashuvidagi omillarni ikki guruhga bo‘lish tarafdorimiz:

- a) hosila ma’no vujudga kelishi va uning ixtisoslashuviga sabab bo‘luvchi lisoniy omillar;
- b) hosila ma’no vujudga kelishi va uning ixtisoslashuviga sabab bo‘luvchi nolisoniy omillar.

<sup>35</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –4-5-б.

<sup>36</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –7-8-б.

Leksikada atov ma'noning ixtisoslashuvi asosida ma'no torayishi yotadi. Ma'no torayishi, avvalo, ijtimoiy ehtiyoj natijasi o'laroq, demakki, nolisoniy omillar asosida boshlanadi. "Leksik ma'noning kengayishi va torayishi faqat bir leksik ma'no hajmida ekstralingvistik sababga ko'ra sodir bo'ladi. Shunga qaramay, uning bir leksik ma'nodan boshqa hosila ma'no yuzaga kelishiga o'xshab ketadigan o'rinlari ham bor va ba'zan ular bir-biriga ham qorishtiriladi. Ammo ular alohida semantik hodisalar ekani tilshunoslar tomonidan allaqachon tan olingan"<sup>37</sup>.

Shunda leksemaning birinchi ma'nosi tarkibidagi terminologik ma'no ixtisoslashgan qo'llanish sifatida ajraladi. Leksik ma'noning ixtisoslashuvida ifoda etilayotgan referentning ayrim qismlari muayyanlashuvi va differensiyasi sodir bo'lib, bu holat lug'atlarda tegishli leksikografik pometalar bilan beriladi.

Ma'noning ixtisoslashuvi ifodaning referentlar guruhidan uning ichki guruhlariга intilishidir. Mevachilik nomlarining ichki guruhlariда, masalan, *kelinolma, farangolma, naqsholma, besh yulduz* kabi olma navlarida ana shunday ixtisoslashuvni kuzatamiz. Ya'ni Mahmud Koshg'ariy davrida barcha olma turlari *alma* ifodasi bilan berilganligini ko'ramiz. Keyinchalik olmadan tayyorlanadigan shirinlik *murabbo*, to'liq yanchilgan olmadan tayyorlangan murabbo turi *jem* atov leksemasi bilan ifodalanadigan bo'lgan. *Alma* so'zida ma'no torayishi asosidagi ixtisoslashish yuz bergan, «daraxtdan uziladigan meva turi» biomorfik ma'nosi ajralib chiqqan. Olma navlari va undan tayyorlanadigan shirinliklarni farqlash ehtiyoji ijtimoiy omil bo'lib, u so'z ma'nosini shakllantirishdek lisoniy omilning ishga tushishiga turtki bergan. Izohli lug'atda "olma" terminologik belgisi ushbu ixtisoslashgan mohiyatning reprezentatori vazifasini bajaradi. Demak, ko'rinadiki, ikkinchi hosila ma'no asos ma'noning torayishi evaziga sodir bo'lgan: *qizilolma, qirmizakolma, dumchaolma, olmamurabbo, olmajem* va h.

Ixtisoslashtirish atamasiga aniqroq ta'rif berish mumkin – bu aynan o'sha obyektlar (dastlabki sinf guruhlari)ning o'zi bo'lib, ular alohida xususiyatlarning tashuvchilaridir. Masalan, *olmamurabbo* ma'nosi *olma (daraxtdagi meva)* so'zining ma'nosiga nisbatan torroq bo'lib, olma mevasidan tayyorlangan yegulik

---

<sup>37</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –10 б.

nomigagina tegishlidir. *Olmamurabbo* ma'nosini olmadan tayyorlangan mahsulot bilan bog'liq alohida birlik sifatida baholash mumkin. Ammo *olmamurabbo* ma'nosi dastlabki ma'no (*daraxtdagi meva*)ning «xususiy holati» (aynan torayishi) emas, chunki *olma* va *olmamurabbo* alohida-alohida birliklar bo'lib, bu ikkala ma'no ma'lum bir umumiy g'oyaning – “olma va shu mevadan tayyorlangan” semantik modelining konkretlashuv va reallashuv variantlaridir. Demak, *olmamurabbo* so'zi tarkibining *olma* qismida ixtisoslashuv sodir bo'lgan. (Ya'ni “daraxtdan uzilgan meva” ma'nosidan ko'ra “mevadan tayyorlangan murabbo” ma'nosi kuchaygan.)

Hosila ma'nolarning yangi mohiyat kasb etishi umumiste'mol birliklarining, so'z birikmalarining terminlashuvida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ifoda terminlashar ekan, leksemalarning grammatik shakllangan holati, so'zlarning birikmali ko'rinishlari tarkibi yaxlitlasha boradi. Qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar, bir butun tushunchani ifodalash uchun terminga xos “yaxlit shakllanganlik” xususiyatiga ega bo'ladi.

Terminlar paydo bo'lishining asosiy yo'llaridan biri umumiste'mol so'z ma'nolarining torayishi, ixtisoslashuvidir. Keyingi vaqtlarda tilshunoslar terminologiyani semantik tadqiq qilishda ham, umumiste'mol so'zlari semantik taraqqiyotidagi generalizatsiya va ixtisoslashuv jarayonlarini ilmiy tekshirishda ham bu muammoga yetarlicha e'tibor qaratishmoqda. Bu borada, ayniqsa, tilshunoslar A.Y.Belova, O.I.Blinova, M.N.Volodina, Y.A.Voytseva, S.V.Grinev, V.P.Danilenko, L.A.Kapanadze, T.R.Kiyak, F.P.Sorokoletov, V.A.Tatarinov, D.N.Shmelev, A.N.Shurigin<sup>38</sup> kabilarning e'tiborga molik tadqiqotlarini alohida ta'kidlash zarur.

---

<sup>38</sup> Белова А.Ю. О разграничение терминов и номенов // Актуальные проблемы стилелогии и терминоведения. Тезисы межгосуд. конф. посв. 80-летию проф. Б.Н. Головина. – Нижний Новгородский гос.ун-т, 1996. – С. 15-16.; Блинова О.И. Мотивология и ее аспекты. – Томск: Издательство Томского университета, 2007.– 394 с.; Володина М.Н. Теория терминологической номинации. – Москва, 1997.; Войцева Е.А. Водохозяйственная лексика польского языка: от древности к современности /Е.А.Войцева. – Черновцы: Букрек, 2010. – 427 с.; Гринев С.В. Терминоведение. – Москва: Академия, 2008. – 304 с.; Даниленко В.П. Введение в языкознание // Курс лекций. – Москва: Флинта, 2017.– 74 с.; Кapanадзе Л.А. Голоса и смыслы. Избранные работы по русскому языку. – Москва, 2005 – 334 с.; Кияк Т.Р. Мотивированность лексических единиц. (Количественные и качественные характеристики) / Т.Р.Кияк. – Львов: Вища школа, 1988. – 162 с.; Сороколетов Ф.П. История военной лексики в русском языке (XI-XVII вв.).– Ленинград: Наука, 1970. – 381 с.; Татаринov В.А. Теория терминоведения. Теория термина: история и

Umumiste'mol leksikasining terminlashuv jarayoni til birliklarining funksional-semantik xususiyatlarini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilishni taqozo etadi. Buning uchun yangi metod va usullarni qo'llash, so'z semantikasi qa'riga chuqurroq kirib borish, unda kechadigan jarayonlar tahlilini kuchaytirish, jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligini aniqlash, ayniqsa, lisoniy omillardan bo'lgan derivatsiya yo'nalishlarini oydinlashtirish, paradigmatic va sintagmatic sistemaviy munosabatlarni o'rganish muammo yechimiga olib keladi.

Umumiste'mol so'zining umumiy qo'llanishdagi xususiyatlari va ilmiy xoslangan ma'nolari orasidagi semantik "ip"larni aniqlash, semik "vorisiylik" xususiyatlarini tadqiq qilish, ixtisoslashgan hosila ma'nolarning umumiy mohiyatdan ajralib chiqishi, bu jarayonga hamkorlik qiladigan lisoniy omillarning roli masalasi tadqiqida S.P.Lopushanskaya tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan so'z semantik strukturasi rekonstruksiya qilish metodikasi samarali ekanligini ta'kidlamog lozim.

Olima umumiste'mol leksemalari va ularning terminlashuvini uch ko'rinishda tadqiq qiladi:

- 1) ixtisoslashish (so'z ma'nosining o'zgarishidan, tegishli ilmiy matnga ixtisoslashgan ma'noda voqelanishi);
- 2) modulyatsiya (polisemiya doirasida xos ma'noning asos ma'nodan o'sib chiqqan holda qo'llanilishi);
- 3) derivatsiya (xoslangan hosila ma'noning asos ma'nodan uzilishi natijasida terminologik mohiyat kasb etgan holda qo'llanilishi)<sup>39</sup>.

Olima talqinida ushbu jarayonlar asos ma'nodan uzoqlashish ko'lamiga ko'ra darajalanadi: *spetsializatsiya* → *modulyatsiya* → *derivatsiya*.

---

современное состояние.Т.І. – Москва, Московский лицей, 1996.; Шмелев Д.Н. Современный русский язык/ Лексика.– Москва: Академия, 1977. – 335 с.; Шуригин А.Н. Семосиологический и лексикологический аспекты таксономизации лингвистических терминов и терминопонятий. Автореф. дис. ...док. филол. наук. – Тюмень, 2005.-

<sup>39</sup>Лопушанская С.П. Изменение семантической структуры русских бесприставочных глаголов движения в процессе модуляция // Русский глагол (в сопоставительном освещении). – Волгоград, 1988. – 15 с.

Semantik ixtisoslashuv deganda mavjud ma'noning sifat o'zgarishiga uchramasdan, ayrim xususiyatlarini juz'iyashtirish asosida matnga xoslanishi nazarda tutiladi. Muayyan ilmiy matndagi istalgan til birligi u yoki bu darajada shu soha terminologik tizimiga xoslanadi. Ya'ni ularning muayyan matndagi kontekstual xususiyatlari, sintagmatik munosabatlari, birikuv natijasida egallaydigan semantik unsurlar bunga misol bo'la oladi. Misol: *Ishkomlarda tok barglari sarg'ayib, toifi va behishti uzumlar qahrabo tusga kirdi.* (Oybek. Qutlug' qon)

Ushbu gapdagi umumiste'moldagi atov birligi *behishti* ifodasining semantik xususiyatlariga moslashgan va meva nomlarini ifodalovni birliklarining mohiyatini ochib berishga ixtisoslashganligi bilan xarakterlanadi.

Yoki

*Qandil, simirengo... olmalar serhosilligidan ko'zingiz quvonib, dilingiz ravshan bo'ladi.* (N. Safarov. Olovli izlar) Mazkur gapdagi umumiste'moldagi atov birligi *qandil* ifodasi olma navi nomini ifodalovni birliklarining mohiyatini ochib berishga ixtisoslashgan.

Shu ma'noda A.A.Potebnyaning "har bir qo'llanishda so'z yangi birlikdir" degan aksiomatik fikrini keltirish o'rinli. Leksema va so'z munosabati, ularning lison va nutq dixotomiyasi nuqtayi nazaridan talqini asosida ushbu tezisga munosabat bildirish bayon etilgan fikrning to'g'riligini ko'rsatadi.

Terminlashuv tarkibida ixtisoslashuv modulyatsiya va derivatsiya orasida eng mahsuldor hodisa sanaladi. Har qanday so'z muayyan ilmiy kontekstda ixtisoslashib, terminlashishi mumkin. Umumiste'mol ifodalarning ixtisoslashuvi ko'p hollarda umumfan xarakteriga ega bo'ladi. Masalan, *tasnif, tartib, sistema, tizim, bandlik, barqaror, nazariy, nazariya, natija, namuna* kabi. Shuningdek, alohida fan sohalari uchun daxldor ixtisoslashgan ma'noli leksemalar ham talaygina: *baynalmilal, bakalavr, barkamol, barometr, vatan, vatanparvar, geosiyosat* kabi. *Go'zal, nafis, farangiz, oydin, bolajon, kamola* kabi olma navlari nomlarida ham xuddi shunday xususiy ixtisoslashuvni kuzatamiz.

Quyida o'z qatlamga tegishli meva nomlariga e'tibor qaratamiz.

O‘z qatlam birliklariga *olma, olcha, o‘rik, uzum, ayiqmurut, aymoqi, amiri, jiya, kishmish, ko‘ksulton, ko‘kcha, mayiz, yong‘oq, tog‘olcha, xo‘jag‘at, chetan, chilonjiya, chiya, chumchuqko‘z* kabi leksik birliklar mansub bo‘lib, ularning aksariyati yasamaliligi bilan xarakterlanadi.

**Olma** – turkiy so‘z. Odatda, dumaloq shaklga ega bo‘lgan, rangi qizil, ko‘k, yashil, sariq yoki aralash tUSDagi xushxo‘r meva nomi. Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida **alma** shaklida uchrashini e‘tirof etdik.

(Manbalarda keltirilishicha, dunyoda olmaning yetti mingga yaqin navi mavjud ekan. Bizning yurtimizda esa, mingdan ziyod olma navlari yetishtiriladi.)

*Olma* so‘zi asosida **olmazor** (*Hosilga kirgan olmazor gektariga har uch yilda 20–40 tonna chirigan go‘ng va har yili sof holda 120 kg azot, 60–90 kg fosfor, 30 kg kaliy hisobidan o‘g‘itlanadi.*); **olmaqoqi** (**Olmaqoqini** choynakka qaynoq suv solib damlasangiz, yaxshi olmali choy bo‘ladi. Bunday damlama tinchlantiruvchi xususiyatga ham ega.); **olmachoy** (*Olmaqoqidan qovirib tayyorlangan ichimlik nomi olmachoy deb nomlanadi.*) birliklari yasalgan.

Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kirmagan *olmali* (pirog), *olmasiz* (dasturxon) birliklari ham o‘z qatlamga tegishli.

**Olcha** (olu+cha) – turkiy so‘z. Mayda, danakli, nordon ta‘mli, rangi sariq, qizil tusli meva nomi. Daraxtining bargi uzunchoq va mayda bo‘lib, odatda, olcha daraxti juda katta bo‘lmaydi. Guli oq, mayin, iforli va tez to‘kiluvchan bo‘ladi. *Olcha guli bargiday o‘ynab uchib yog‘ar qor* (Z.Diyor) misralarida qorning yog‘ishi olcha gulining to‘kilishiga o‘xshatilgan.

Vatani Osiyo bo‘lgan olcha daraxtining dunyo bo‘ylab yuzlab turlari mavjud. Olchani sharbat, kompot, murabbo, mors ko‘rinishida maza qilib iste‘mol qilinadi. *Olcha mevasi yallig‘lanishga qarshi, balg‘am ko‘chiruvchi, terini tozalovchi, qonni ko‘paytiruvchi xususiyatga ega. Yurak urishini maromiga keltiruvchi hisoblanadi.*

*Olcha* so‘zi asosida **olchazor** (*Mohidil u yoq-bu yoqqa alanglab olib, qalin olchazor orasidan qo‘shnining tomorqasiga o‘tdi.* (S. Zunnunova, Ko‘k chiroqlar); **olcharang** (*Oyog‘ida uchi bigizdek ingichka, olcharang tufli.* (S.Ahmad. Jimjitlik); **olchamurabbo** (**Olchamurabbo** qishda shamollashning oldini oladi.);



*olchasharbat* (Yozning issig'ida *olchasharbat* sara chanqovbosti ichimlik sanaladi.), shuningdek, *olchali* (pirog), *olchasiz* (kompot) birliklari ham yasalgan.

**O'rik** – turkiy so‘z. O‘zbekistondagi har bir xonadonda yetishtiriladigan, shirin ta‘mli, xushxo‘r, rangi oq, sariq, qizg‘ish tusli, danakli meva nomi. Uni xomligida (dovuchcha) ham, pishganda ham, quritilganida (turshak, g‘ulin) ham sevib iste‘mol qilishadi. O‘zbekistonda o‘rikning ertapishar navlari ham, kechpishar turlari ham yetishtiriladi.

Vatani – O‘rta Osiyo. Osiyoda 10 turi ma‘lum. *Oqpishar, oddiy o‘rik, xashaki o‘rik, manchjuriya o‘rigi, sibir o‘rigi, david o‘rigi* va *qora o‘rik* turlari keng tarqalgan. Shimoliy Hindiston, Eron, Turkiya, Italiya, Ispaniya, Shimoliy va Janubiy Afrika, Shimoliy Amerika mamlakatlari va Avstraliya, O‘rta Osiyo, Zakavkazye hamda Rossiyaning Yevropa qismi janubida yetishtiriladi. O‘rta Osiyoda va Xitoyda 5 ming yil, Janubiy Yevropada 2 ming yil oldin madaniylashtirilgan. 500 dan ortiq navi bor<sup>40</sup>.

O‘rik so‘zi asosida **o‘rikzor** (Bu **o‘rikzorni** bobom obod etganlar); **o‘rikfurush** (O‘tgan yili o‘riklar yaxshi hosil bemadi: bozorda **o‘rikfurushlarning** “ketmoni uchdi”-da), shuningdek, **o‘riksharbat, o‘rikmurabbo, o‘rikkompot, o‘rikli, o‘riksiz, sero‘rik** birliklari ham yasalgan.

**Uzum** – turkiy so‘z. Tokning g‘ujumlardan iborat mevasi.

“Qur’oni Karim”da uzum mevasi tilga olingan oyatlar uchraydi. Jumladan, “Abasa surasi”ning 24-, 32-oyatlarida shunday deyilgan:“Endi inson o‘zining taomiga (ibrat ko‘zi bilan quyidagi ne‘matlarimizga bir) boqsin: Biz (osmondan) suvni mo‘l yog‘dirdik. So‘ngra yerni (giyohlar unsin, deb) yordik. So‘ngra biz unda donlarni undirdik, **uzum** va ko‘katlarni, zaytun va xurmolarni, qalin daraxtzor bog‘larni, meva-yu giyohlarni ham. (Bularni) sizlarning va chorva hayvonlaringizning iste‘moli uchun (yaratdik)”<sup>41</sup>.

Uzum – o‘zbek dasturxonini uchun ham shifobaxsh, ham to‘yimli meva nomi. Erkin Vohidov “So‘z latofati” kitobi(2014)da bu meva nomining kelib chiqishini uzmoq fe‘li bilan bog‘laydi (*Uzum uzib yeyiladi* mazmunida).

<sup>40</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/orik-uz/>

<sup>41</sup> Qur’oni Karim (Aloviddin Mansur tarjimasini). –Toshkent: Sharq, 1990.

Uzum haqida aynan Ibn Sino bitiklarida shunday ta'riflar keltiriladi: “*Uzum mizojlarni mo'tadillashtiradi, qonni haydaydi, ko'krak osti va o'pka a'zolarini yomon xiltlardan tozalaydi. Badanni semirtiradi, agar ichidagi suvini so'rib, po'stini tashlab yuborilsa, buyrakdagi charvini ko'paytiradi, biroq me'dasi ho'l mizoj va yomon hidli kishilarga zarar qiladi, ularda yel paydo qiladi. Shu paytda zira va arpabadiyon iste'mol qilsa, zarari bartaraf bo'ladi. Bordi-yu, jigar va taloqda tiqilma bo'lsa ham ziyon yetadi, buyrakka ham zararli. Yangi uzilgan uzumning hazmi juda og'ir, po'sti biroz yumshab tirishgandan keyin yeyilsa hazmi osonlashadi. Shunda yel hosil qilishi kamayadi. Tanaga quvvat bag'ishlaydi*”<sup>42</sup>.

Uzum so'zi asosida vujudga kelgan **uzumzor**, **uzumxo'r**, **uzumli**, **uzumsiz**, **uzumfurush** kabi yasama leksemalar mavjud.

**Ayiqmurut** – turkiy so'z. Nokning bir turi. (Shevalarda mazkur meva nomini qisqartirib *murut* deb ham atashadi.) *Toshnokdan avval ayiqmurut pishadi. Ayiqmurut – sersuv, mazasi shirin meva.*

**Aymoqi** – turkiy so'z. Uzumning bir turi. *Ishkomlarda faqat aymoqilar qoldi.*

**Amiri** – turkiy so'z. Uzumning bir navi<sup>43</sup>. **Amiri** – uzumning vinobop turlaridan biri.

**Jiyda** – turkiy so'z. Kichik, ichi un shaklida, qizg'ish, danagi uzun va qattiq shirin meva. Yoz, kuz oylarida pishadi.

Janubiy Yevropa, Markaziy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikada o'sadigan qirqqa yaqin turi bor. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonda jiydaning *qarg'ajiyda* (yovvoyi holda o'sadi), *sharq jiydasi*, *tikanakli jiyda*, *kumushsimon jiyda*, *non jiyda* kabi turlari yetishtiriladi. Jiydaning mevasi yangiligida yoki quritib iste'mol etiladi<sup>44</sup>.

Jiyda so'zi asosida **jiydazor**, **jiydaxo'r**, **jiydagul**, **jiydali**, **jiydasiz**, **jiydafurush** kabi yasama leksemalar vujudga kelgan.

**Kishmish** – turkiy so'z. Mevasi maydaroq bo'ladigan urug'siz uzum navi. *Qishda kishmish pishasmish, Pishsa kishmish, qishmismish* (Tez aytish) **Kishmish** so'zi asosida **kishmishzor**, **kishmishxo'r**, **kishmishli**, **kishmishsiz**,

<sup>42</sup> <https://manzur.uz/?p=2886>

<sup>43</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. A harfi [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

<sup>44</sup> <http://www.ekogazeta.uz/xabarlar/5570>

**kishmishfurosh** kabi yasama birliklar vujudga kelgan.

**Ko'ksulton** – turkiy soʻz. Ertapishar jaydari olxoʻri navi boʻlib, mevasi oʻrtacha yiriklikda, dumaloq, mazasi nordon. Xomligida koʻk rangda, gʻarq pishgandagina sariq tusga kiradi. Xomligicha ham, pishgan holatida ham isʼtemol qilinadi. **Ko'ksulton** mevasini qishga saqlash qiyin.

**Ko'kcha** – turkiy soʻz. Olxoʻrining bir turi. Hoʻl meva.

**Mayiz** – turkiy soʻz. Quritilgan uzum. Quruq meva turi. *Bolalarning qoʻllarida turshak, mayiz solingan xaltalar.* (H.Nazir. Soʻnmas chaqmoqlar) Tut mevasining quritilgani *tutmayiz* boʻladi.

**Yongʻoq** – turkiy soʻz. Magʻzi qattiq poʻchoqqa oʻralgan quruq meva turi. Kech kuzda pishadi. Dunyo aholisi har yili oʻrtacha 2 million tonnadan ziyod yongʻoq yetishtiradi va shuncha yongʻoq isteʼmol qiladi. *Asosan, AQSH, Chili, Ukraina, Xitoy va Moldova mamlakatlari eng koʻp yongʻoq eksport qiluvchi mamlakatlar sirasiga kiradi.*

**Yongʻoq** soʻzi asosida **yongʻoqzor, yongʻoqxoʻr, yongʻoqli, yongʻoqsiz, yongʻoqfurosh** kabi yasama leksemalar vujudga kelganligi maʼlum.

**Togʻolcha** – turkiy soʻz. Olchanning togʻda yovvoyi holatda oʻsadigan bir turi.

**Xoʻjagʻat** – turkiy soʻz. Mayda, toʻq qizil rangli, sersuv meva turi. (Uni koʻpchilik yevropacha nomi bilan malina deb atashadi.) *Xoʻjagʻatning hoʻl mevalari shirin, xushboʻy va shirador boʻlib, chanqoqni bosadi, kishiga quvvat beradi, xususan, hazm organlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.* (<https://www.facebook.com>)

**Chetan** – turkiy soʻz. Qzil yoki sargʻish shoda-shoda koʻrinishli, shirin taʼmli mayda meva turi.

**Chilonjiyda** – turkiy soʻz. Jiydaning shakli noksimon, tuxumsimon, qizgʻish jigarrang, yaltiroq, poʻsti qattiq, eti och yashil yoki oq, shirin turi. **Chilonjiyda** – *inson salomatligi uchun koni foyda.* (Shevalarda mazkur mevani qisqartirib *chilon, jilon, unobi* deb ham atashadi.) Chilonjiyda pishganda yeyiladi, uni qurutib qoʻyib ham isteʼmol qilish mumkin. Shifobaxshligi bilan ajralib turadi. (Tuzilishiga koʻra qoʻshma soʻz: *chilon+jiyda*)

**Chiya** – turkiy soʻz. Togʻli hududlarda oʻsadigan olcha turi. *Gʻir-gʻir shamol*

*esadi, qoraqand, chiyalarning xushbo'y isi anqiydi.* (S.Murodbekov. Yovshan isi)

Meva nomlari ichida yana *qaraqand, chumchuqko'z* kabi o'z qatlamga mansub turlarni ham kuzatish mumkin.

#### 1.4. O'zlashgan qatlamga tegishli meva nomlari haqida

O'zbek tilida *meva* giperonimi ostida jamlanib, faol paradigmatic qatorlardan birini tashkil qiladigan *olma, o'rik, nok, shaftoli, behi, anor, olcha, gilos, tut, jiyda, xo'jag'at, qaroli, olboli* kabi giponimlarning xususiyatlarini yoritib berishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida mevali daraxtlarning grammatik, tarixiy-etimologik, leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan<sup>45</sup>.

*Meva* so'zi fors tilida qadimdan iste'moldagi so'z hisoblanadi. Eski va hozirgi tojik tilida *meva* (Ibn Sino asarlarida bu so'z qayd qilingan), fors tilida "*mive*" ko'pligi "*mivedjat*" (plod frukt); afg'on tilida "*meva*", qirg'iz tilida "*momo*", turkman tilida "*mive*", uyg'ur tilida "*mive*", qoraqalpoq tilida "*miyg'e*", ozarbayjon tilida "*meyvo*", lug'atlarda "*miyve*", o'zbek tilida "*meva*" tarzida qo'llaniladi. Bundan tashqari uyg'ur dialektlarida "*mogo*" varianti ham uchraydi. Eroniy tillardagi *meva-mive*, turkiy tillardagi *mive-momo-miyyo's-meyva-mive-moga* variantlari o'zaro qiyoslaganda, ushbu so'zning yasamaligi seziladi. So'zda ikki komponent bo'lib, ular o'zaro kirishib ketgan va o'zaklar orasida morfologik qayta bo'linish hodisasi yuz bergan. Ikki mustaqil so'z bir so'z holiga kelib qolgan:

1. *Meva* –“me (h)+va <me (h) +ba: <meh+ba(r)<beh +bar <bor bo'lishi kerak.

2. *Meh* – *beh* so'zi forscha bo'lib, *yaxshi, yoqimli, mazali, bar-bar* so'zi

---

<sup>45</sup> Саҳобиддинов С.С. Ўрта Осиёдаги фойдали ва зарarli ўсимликларнинг маҳаллий номлари луғати. – Т. 1953. – 452 б.; Мухаммадхонов С., Жонгузаров Ф. Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. – Т.: Меҳнат, 1989. – 320 б.; Жамолхонов Х. Ўзбек ботаника терминологиясининг шаклланиш ва ривожланиш тарихидан: Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати. – Т., 1969. – 25 б.; Эшонкулов Ю. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.; Мусаев К.М. Лексика тюркских языков. М.: Наука, 1984. – 230 с.; Исмоилов И., Мелиев К., Сапаев М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот (мевали дарахт, полиз экинлари номлари ва уй-рўзгор буюмлари лексикаси материаллари асосида). – Т.: Фан, 1990. – 256 б.; Нигматова Г.Х. Система и художественное функционирование лексем-названий растений в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 21 с. ва б.

ham meva, hosil ma'nosida kelgan. *Meva* so'zi *shirin, mazali, yoqimli, samar, hosil* demak<sup>46</sup>.

Meva so'zi O'rxun-Enasoy yozma manbalari, Mahmud Koshg'ariy lug'ati, "Tafsir"da, Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi. Zero, meva so'zining o'zi tilimizga fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, asl ma'nosiga ko'ra *mazali* (yoqimli, lazziyatli, xushxo'r) *hosil* (samar) demakdir.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da meva so'zi polisemantik xarakterli birlik sifatida quyidagicha izohlangan:

*Meva*– (fors.– *hosil, ho'l va quruq meva*)

**1** Ba'zi daraxt va butalarning hosili. Yeyishli meva. Yeb bo'lmaydigan meva. Ho'l meva. Meva sharbati. – *Marjon kabi qizargan mevalarini ko'tara olmay, turli tomonga bosh eggan jiyda daraxtlari uzoqdan kumush kabi oqarib ko'rinardilar.* (A.Qodiriy. Obid ketmon)

*O'lkamizda kuz, mevalar g'arq pishgan palla.* (Gazetadan)

**2** Mevali daraxt. *Said, Mirzaqullar yosh meva ko'chatlarini qo'porar, Haydar ularni to'plab, bog'-bog' qilardi.* ("O'zbekiston qo'riqchilari")

*Uncha katta bo'lmagan, chog'roq hovlining o'zida o'n xilcha meva navlari bor.* (J.Abdullaxonov, Oriyat)

*Kechaning qorong'iligi ustiga mevalarning quyug yaproqlari qo'shib, bu maydon, ayniqsa, Otabekning hozirgi ko'ngliga yaqinlashib kelar edi.* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar)

**3** ko'chma Samara, natija, mahsul. *Ilohi bo'lgaysan, bolam barkamol. Umrimning mevasi – bir toza nihol.* ("Ravshan" dostonidan)

*El taomilida: keksalar hamisha maslahat berishar, yoshlar esa o'sha maslahat mevalarini terishar edi.* (M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha)

**4** Shakarpazlik mahsulotlari, shirinlik. (*Hakimboyvachcha*)*Rang-barang qimmatbaho mevalar, qaymoqqa qorilgan nonlar bilan to'la dasturxon yozib, achchiq choyni quya boshladi.* (Oybek. Tanlangan asarlar)<sup>47</sup>.

<sup>46</sup> Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. –Тошкент: Фан, 1991. –161 б.

<sup>47</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. –Тошкент: ЎЭМЭ, 2006.

Demak, meva soʻzining oʻziyoq oʻzlashma birlik ekan. Meva soʻzini, koʻpincha, sabzavot birligi bilan juft holatda (meva-sabzavot) qoʻllanilishini kuzatamiz. Shu oʻrinda meva soʻzini sabzavot birligidan farqlab oʻtamiz.

Biologlar oʻsimlikning guldin rivojlanadigan va urugʻli, etli qismini meva deb hisoblashadiki, bu xalqning turmush tarzidan olinganligi maʼlum. Sabzavotlar esa oʻt oʻsimliklar hisoblanadi. Oʻt oʻsimlikning yumshoq poyasi, mayda yoki yogʻochga xos boʻlmagan hujayrasi boʻladi.

Botanikada mevalar urugʻiga qarab uch sinfga boʻlinadi:

- 1) urugʻi bor etli mevalar: *olma, behi, nok, apelsin* va boshqa reza mevalar;
- 2) danakli mevalar: *olcha, olxoʻri, oluboli, shaftoli, qaroli* va b.;
- 3) quruq mevalar: *yongʻoq, bodom, pista, kungaboqar, yeryongʻoq* va h.

Qiziq tomoni shundaki, botanikada loviya, noʻxat, mosh kabi dukkakli oʻsimlik mahsulotlari ham, bodring, qovoqchalar ham mevalar qatoriga qoʻshilgan<sup>48</sup>.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da sabzavot soʻziga berilgan taʼrif oʻzbekona tafakkurga ancha mos keladi:

“Sabzavot (forscha sabza soʻzining koʻplik shaklidir). Rezavor va poliz ekinlari hamda ularning ovqatga ishlatiladigan mahsuli (bodiring, karam, sabzi, piyoz, pomidor va shu kabilar). *Sabzavot ekinlari. Sabzavot doʻkoni...*”<sup>49</sup>

Odatda, meva va sabzavotlar inson tanasini darmondori va minerallar bilan taʼmin etishi hamda salomatligini mustahkamlashi bilan bir-biriga oʻxshaydi. Shu bois, ular juft holatda ham ishlatiladi.

Taʼkidlash joizki, *meva* soʻzi garchi oʻzlashgan birlik boʻlsa-da, u asosda yasalgan *mevazor, mevachilik, mevali, mevasiz, mevaxoʻr, mevafurush* shakllari; *meva-cheva* takroriy birligi, shuningdek, *meva-sabzavot* juft shakllari oʻz qatlamga tegishlidir.

Oʻzlashma qatlam birliklari oʻz oʻrnida quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

- a) arabcha: *zaytun, tut, poʻrtaxol, salib, sovundaraxt, zaqqum* va b.;

<sup>48</sup> <https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/mojiza-kitob/meva-va-sabzavotlar-ortasida-qanday-farq-bor/>

<sup>49</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati. S harfi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi –409-b.

b) forscha: *anjir, anor, bedona, behi, bodom, bodrezak, zardoli, gilos, olxo'ri, olboli, nok, tok, xurmo, xurma, shaftoli, na'matak, g'o'ra* ;

d) ruscha-baynalmilal: *banan, kivi, ananas, apelsin, bandar, smorodina, mango, malina, limon, rezavor, sakura, shpanka, qulupnay (klubnika), kokos* va b.

Ko'rinadiki, o'zlashma atov birliklarining forsiy qatlami arabiy qatlamga nisbatan boyroq ekan.

Quyida nomlari o'zlashgan qatlamga mansub ba'zi meva nomlari xususida to'xtalamiz. Jumladan,

**Anor** (forscha so'z) – kichikroq daraxt yoki buta shaklida o'sadigan ko'p yillik subtropik o'simlikning dumaloq shakldagi mevasi nomi.

“Qur'oni Karim”ning “An'om surasi” 141-oyatida shunday deyiladi: “*U (so'ritoklarga) ko'tariluvchi va ko'tarilmaydigan bog'larni, xurmozorlar va mevalarni, xilma-xil bo'lgan ekinlarni, (barglarni) bir-biriga o'xshagan va (mevalarni esa) o'xshamagan zaytun va anorlarni yaratgan zotdir. Mevalaganda mevasidan yenglar, o'rim-terim kunida (bechora-miskinlarga) haqqini beringlar va isrof qilmanglar ! U isrof qiluvchilarni sevmas*”<sup>50</sup>.

Yaxshi yetilib pishgan anor mevalari (og'irligi 250–1000 gramm) sadafdek tizilgan va shishadek tiniq ko'rinishda bo'ladi. Anor mevasi avgust oyi oxirlaridan boshlab sentabr oyi so'nggiga qadar pishadi. Ba'zan g'arq pishgan anorlar o'z vaqtida daraxtidan uzib olinmasa, ularning po'stloq qismi yorilib ichidagi meva donachalari ko'rinib qolishi ham mumkin.

Boburning “Boburnoma”sida qayd etilgan *anor, o'rik, bodom, olma, qovun, uzum, qaroli, noshvoti*, don, binafsha, lola, chechak, tobulg'u, yabruh ussanam, ayiqo'ti singari meva va gul nomlari orqali Boburning tabobat-u nabobat olamiga tabiatga, ham jamiyat a'zolariga cheksiz e'tibor va ehtiromini bilib olamiz. Bobur hazratlari shunday yozadilar: “*Yana bir Marg'ilondur, Andijonning g'arbidadur, Andijondin yeti yig'och yo'ldur. Yaxshi qasaba voqe bo'lubtur, pur ne'mat; anori va o'rugi asr-u ko'p – xo'p bo'lur. Bir jins anor bo'lur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig'idin andak*

---

<sup>50</sup> Qur'oni Karim (Aloviddin Mansur tarjimai). –Toshkent: Sharq, 1990.

*choshni bor. Samnon anorlarig'a tajreh qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichig'a mag'z solib quruturlar, "subhoniyy" derlar, bisyor lazizdur*"<sup>51</sup>.

Demak, anor mevasining nomi qadimgi manbalarda ham tilga olingan. Shuningdek, klassik adabiyotda hazrat mir Alisher Navoiyda hamda ulug' momolarimizdan Uvaysiy ijodida anorga bag'ishlangan lug'z va chiston mavjudligini ham shu o'rinda eslab o'tish kifoya.

Ba'zi manbalarda **anor** lotincha "granatum", "granatus" so'zidan olinib donli, meva ichidagi ko'plab urug'larga ko'ra, suvli qopqoq bilan o'ralgan degan ma'noni berishi qayd etiladi. O'rta asrlarda **anor** "Pomum granatum" – "urug'li olma" nomi bilan mashhur bo'lgan, keyinchalik uning o'rnini C.Linnaeus zamonaviy ilmiy botanik nomi "Punica granatum" bilan almashtirgan<sup>52</sup>.

Qadimgi Rimda uning yana bir nomi bor edi – "malum granatum", ya'ni "donador olma". Uni boshqa tillarda hali ham olma deyishadi: nemis tilida shunday. "Granatapfel", italiyalik "melograno" (apfeldan, meva – olma). Italiyaliklar, Momo Havo vasvasaga solingan eng taqiqlangan meva anor edi, deb hisoblashadi. Chunonchi, ko'hna Rim va Yunon tabobatida nordon anor bezgak xurujiga taskin beruvchi, me'da yallig'lanishida naf keltiruvchi omil sifatida qo'llanilgan va h.

Teofrastus miloddan avvalgi 350-yillarda umri davomida yozgan "O'simliklar tarixi"da anorning batafsil tavsifini bergan. Unda keltirilgan afsonaga ko'ra, uzoq vaqt davomida sahroda yurib, chanqovdan azob chekayotgan isroilliklar avval Misrda anor va uning mevalarini uchratishgan. Sulaymon podshoh davrida anor bog'lari juda mashhur bo'lib, maxsus qo'shiqlarda kuylangan. Rim mualliflari tomonidan anorga ko'plab havolalar qilingan<sup>53</sup>.

Anor issiqsevar meva bo'lganligi uchun ham, asosan, O'zbekistonda mahalliy aholi tomonidan yetishtiriladi. Qishloq yerlarida anori bo'lmagan xonadonni topish

<sup>51</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma.– Toshkent : Yangi asr avlodi. –2018 –698 b. –10 b.

<sup>52</sup> Punica Granatum // Ботанический словарь / сост. Н. И. Анненков. - СПб.: Тип. Имп. АН, 1878.

<sup>53</sup> <https://www.google.com> Teofrastus - Vikipediya



qiyin. Mahalliy aholi anor donalari yoki anorning **hajmiga** (*tuyatishi, maydamarjon, qayum anor, tuyabosh, qazoqi anor*); **rangiga** (*oqdona, qoradona, qizildona, naboti anor*); **ma'za-ta'miga** (*shirin anor, nordon anor, taxir anor, xo'raki, achchiqdona*); **yetishtirilgan o'rniga** (*Qo'rg'on anori, Romitan anori, Qiziltepa anori, Denov anori*), **ishlatilish holatiga** (*xo'raki, sharbati, ulfi*) qarab turlicha nomlaydilar.

Anorning eng sara navlari O'rta Osiyoda, O'zbekiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Kavkaz, Qirm, Dog'iston, Janubiy Qozog'istonda yetishtiriladi.

Anor seleksionerlari hamda turli adabiyotlarda uning asosiy navlarini quyidagicha ajratadilar: *toifiy, baladiy, shomiy, mallisiy, sukkariy, manfalutiy, sulaymiy, musobiq, oq dona, qozoqi anor, achchiq dona, shahri tuz, qizil anor, qayin anor, ulfi*.

“Irshod uz-ziroa”<sup>54</sup> da anorning quyidagi navlari tilga olingan: *mayxush (nordon-chuchuk) anor, tursh (achchiq) anor, shirin anor, siyopo'st (qorapo'st) anor, bedona (urug'siz) anor, qandiy (qandak) anor, zabistoniy anori, rummonu amlasiy, shirshakar*.

Ko'rinadiki, mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari o'zbek milliy madaniyati, ma'naviyati, tili, tarixiy taraqqiyotining ilg'or tendensiyalari bilan bog'liq.

**Anjir** (forscha so'z) – daraxt yoki buta shaklida o'sadigan, tanasi sutli, shirador, shapaloq bargli ko'p yillik o'simlikning pachaqroq shakldagi to'q binafsharang yoki sariq rangli mevasi nomi.

“Qur'oni Karim”ning “Tin surasi” 1-4-oyatlarida: “*Qasamyod eturman anjir va zaytun bilan, Turi Sinin (tog'i) bilan, mana shu tinch-osoyishta shahar (Makka) bilanki, haqiqatan, Biz insonni xushbichim va xushsurat (shaklda) yaratdik*”<sup>55</sup> deyiladiki, bu din olamida anjir jannatliy mevalardan biri ekanligiga ishora qiladi.

<sup>54</sup> “Irshod az-ziro'a fi ilm alhirosa” (“Dehqonchilik ilmi haqida qo'llanma”) – 1515-yilda hirotlik olim Niyoziy Hiraviy tomonidan yozilib, temuriylardan Sulton Mahmudga taqdim etilgan asar. 8 bob (Ravza-gulshan)dan iborat. O'rta Osiyo dehqonchilik agrotexnikasini o'rganishda qimmatli manba bo'lgan bu asarning qo'lyozma nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv. N565).

<sup>55</sup> Qur'oni Karim (Aloviddin Mansur tarjimasini). –Toshkent: Sharq, 1990.

Rabgʻuziy qissalarida anjir haqida qiziqarli maʼlumot mavjud: “...anjir daraxti Odam va Havvoga besh yaproq berdi, ular andomlarini yopib chiqdilar. Tong otgandan keyin oʻsha besh yaproqning birini kiyik yedi, ifor (mushk) boʻldi. Birini sigir yedi, anbar boʻldi. Birini ari yedi, asal boʻldi. Birini qurt yedi, ipak boʻldi. Birini Odam yerga ekdi, yung boʻldi. Qiyomatga qadar farzandlariga kafan boʻldi.

Olloh taolo Odamga yaproq berganligi uchun anjir daraxtini jazoladi. Maʼlumki, barcha yeguliklar uch turligina boʻladi: birining tashi yeyilur – olma, nok kabi, birining ichi yeyilur – yongʻoq, bodom singari, birining tashi yeyilmas ichi yeyilur – qovun, tarvuz kabi. Ammo anjirning tashi ham yeyilur, ichi ham yeyilur”<sup>56</sup>.

Anjir sarxil va shifobash meva sifatida maʼlum va mashhur. Uning Samarqand anjiri, Urgut anjiri, Gʻurbun anjiri, anjiri Romitaniy; sariq anjir, qora anjir kabi turlari mavjud.

**Xurmo** (forscha soʻz) – issiqsevar subtropik daraxt mevasining nomi. Manbalarda, Zamaxshariy lugʻatida *xuvma*, “Tafsir”da *xurma*, Alisher Navoiy asarlarida *xurmo* shakli uchrashi qayd etilgan.

Hozirda tojik tilida *xurmo*, fors tilida *xorma* (*xorma-xarak*), afgʻon tilida (*xurma*), kurd tilida *xiute*, qirgʻiz tilida *kurma*, turkman tilida *xurma*, qaraqalpoq tilida *hurma*, ozarbayjon tilida *xurma*, tatar tilida *xorme*, oʻzbek tilida *xurmo* tarzida qoʻllaniladi. Arablarda *xurmo* eng muhim ozuqalardan biri hisoblanadi. (K.Mahmudov. Qiziqarli pazandalik)

**Shaftoli** (forscha soʻz) – issiqsevar, uzunchoq bargli, pushti gulli koʻp yillik daraxt mevasining nomi. Oʻzbekistonda shaftolizor bogʻlar koʻp. Bu mevaning nomi qadimgi turkiy manbalarda (masalan, Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻati turk”ida) deyarli uchramaydi. Biroq shaftoli soʻzining *shaftolu* shakli Alisher Navoiy asarlarida qoʻllanilgan:

Ochilur olu guli, oʻrtada **shaftolu** guli,

Vahki, **shaftolu** gulidur yo erur olu guli.

<sup>56</sup> <https://www.google.com> Qissasi\_Rabgʻuziy

Mazkur soʻz fors tilida *holu-shaftalu*, tojik tilida *shaftalu*, afgʻon tilida *shaftalu*, rus tilida *непчук*, ingliz tilida *peach*, noʻgʻay tilida *shandal*, ozarbayjon tilida *shaftalu-halu*, hinchu *aru*, uygʻur tilida *shaptula*, qirgʻiz tilida *shadali-shaptali*, qozoq tilida *shandali*, qoʻmiq tilida *shaptal*, arab tilida *havh*, turkman tilida *shendali*, urdu tilida *aru-shaftalu* shakllarida uchraydi<sup>57</sup>.

*Olmurut* – forsiy soʻz. Nokning maydaroq turi. Rangi yashil, pishganda ozgina sariq tusga kiradi.

Mevachilik leksikasi doirasidagi nomlarning katta qismi uzoq tarixga ega. Ularning paydo boʻlishi, muhimi, umumisteʼmolda qoʻllana boshlanishi, shaftolining turlari va u bilan aloqador soʻzlar quyidagi yozma manbalarda turlicha talqin qilingan:

”Nisob us-siyobon” (“Bolalar nasibasi”) nomli falsafiy asar 671/1220-yili Abu Nasr Sad ibn Abu Bakr ibn Husayn ibn Jafar Farohiy tomonidan yozilgan<sup>58</sup>. Unda arabcha, forsha va turkiy soʻzlar sheʼrga solingan. Asarga hammasi boʻlib 350 ta bayt kiritilgan va asarning 6-bobi meva va mevali daraxtlarning arabcha, forsha va turkiycha atalishiga bagʻishlangan<sup>59</sup>. Masalan,

...*Inab* – *angur* – *uzum*, *rummo* – *anor ul*,

*Dahi barququ xavx* – *shaftolu bor ul*.

...*Asl* – *behu*, *far* – *shohu*, *bizr* – *tuxm*, *qatf* – *bar*.

Demak, *barquq* va *xavx shaftolining* arabcha nomlari, forshasi shatolu, turkiychasi esa shaftolidir. Yoki asl behining arabcha nomi, *behu* esa forsha atalishi hisoblanadi.

Ushbu asarga ergashib keyinchalik lugʻatlar tuzilganligi ham maʼlum.

Farohiyning asari taʼsirida Sayyid Salohiddinxoʻja ibn Bozorxoʻja Eshon

---

<sup>57</sup> “Muqaddimat al adab“ (XII asr) lugʻatida **shoftolu** (Borovkov,1971), qipchoq lugʻatida **shaftolu** (Mutallibov,1968),”Boburnomada”**shaftolu** (Bobur), ”Turkiy tillar lugʻat”ida **shiftalu** (Budagov, 1869), **shaptul** (Radlov, 1911) formalari ham keladi.

<sup>58</sup> Фарохӣ А. Нисоб-ус-сибён / Тасхеҳи Ҳасан Анварӣ. – Техрон: Маркази нашри донишгоҳӣ (toshbosma), 1876. – 85 с.

<sup>59</sup> Sheʼriy yoʻlda yozilgan bu arabcha-tojikcha lugʻat eng soʻnggi davrgacha Hindiston va Eron maktablarida oʻquv qoʻllanma sifatida xizmat qilgan va undan Oʻrta Osiyoda ham keng foydalanilgan. Mazkur lugʻat Toshkentda 5 marta (1893, 1906, 1912, 1913, 1914-y.); Margʻilon (1886-y.); Kogon (1889-y.); Xiva (1876-y.); Bombayda 3 marta (1865, 1875, 1886-y.); Konpur (1895-y.); Eronda 3 marta (1851, 1879, 1884-y.) nashr qilingan. Mazkur nashrlar hamda qoʻlyozma nusxalarining koʻpligi bu lugʻatning naqadar mashhur va kerakli ekanligini koʻrsatib turibdi. Oʻrta Osiyo madrasalarida mazkur sheʼriy lugʻat talabalarga majburiy tarzda yodlatilganki, ular orasida meva nomlari izohlari ham bor.

“Nisob us-siyoboni turkiy“ lug‘atini tuzadi. Lug‘atning 6-bobidagi birinchi faslini meva va mevali daraxtlarning arabcha, forscha hamda turkiycha atalishiga bag‘ishlaydi. Har bir nom ustiga, agar u arabcha bo‘lsa, “ayn”, forscha bo‘lsa, “f”, turkiycha bo‘lsa, “t” harflari bilan ko‘rsatib boradi. Masalan,

a f t a f-t

*Inab – angur – uzum, rummon – anor ul...*

a a f-t

*Dahi barququ havh – shaftolu bor ul.*

Demak, lug‘atda *inab* arabcha, *angur* forscha, *uzum* turkiycha, *rummon* arabcha, *anor* forscha va turkcha, *barquq* va *havh* shaftolining arabcha nomi, forschasi shaftolu ekanligi ko‘rsatilgan.

A.Mirzayevning “Abu Isloh” nomli kitobida ko‘rsatilishicha, **tolona** shaftolining bir turi bo‘lib, uni **shaftoluyi shaliliy** ham deb atashadi.

Muhammad Husayn Tabriziy “Burxoni qoti”<sup>60</sup> asarida **javzog‘and** ichiga yong‘oq mag‘zi solingan shaftoli turshagini aytadilar. Lug‘aviy ma‘nosi: **javz** – yong‘oq va **og‘and** qo‘shilgan. Forscha **javzog‘andning** arabchallashtirilganidir. Hozirgi zamon Eron lug‘atlarida bu *javzqand* shaklida uchraydi. Masalan, Miller lug‘atida “qand va tuyilgan yong‘oq qo‘shilgan shaftoli qoqisi” deyilgan.

A.Mirzoyevning kitobida javzog‘andning boshqa nomlari *javzqand* yoki *sarmishdir*. Shaftoli yoki o‘rik mevasi orasiga yong‘oq mag‘zi solib quritiladi. Uning yozishicha, *javzqand* Samarqand va Shahrisabzda mashhur.

Sadriddin Ayniyning “Lug‘ati nimtafsilii tojiky baroyi zaboni adabi tojik” asari<sup>61</sup> da **luchchak** leksemasi keltirilgan. Ayniyning yozishicha, **luch** – so‘zi yalang‘och ma‘nosini bildiradi. Luchchak deyilganda esa yuzasida tuki yo‘q, ya‘ni silliq shaftolini tushunish mumkin. Bu tukli shaftolini ajratish uchun qo‘llangan nom bo‘lib, tuk uning “kiyimi” hisoblanadi. Tuksiz shaftoli esa yalang‘ochdir. Forscha-ruscha lug‘atlarda (Gaffarov, Yagello) **lucha** so‘zi labni bildiradi. Luchchak deyilganda esa labga o‘xshagan qizil shaftoli nazarda tutilgan bo‘lishi

<sup>60</sup> Муҳаммад Хусайн Бурхон. Бурхони қотеъ. Луғат. II жилдли. – Душанбе: Адаб, 1993.– 492 с.

<sup>61</sup> Айний, С. Луғати нимтафсилии тоҷикӣ барои забони адабии тоҷик. – Душанбе, 1976.– 564 с.

mumkin, degan ma'lumotga ham duch kelamiz. (Biz ikki tilli Buxoro sharoitida ko'proq S.Ayniy fikrlarini quvvatlaymiz.) Vodiya uni **olyor shaftoli**, bog'bonlar nutqida esa **ola shaftoli**<sup>62</sup> deb ham atashadi.

Mamud Hasaniyning "Qadimgi bog'dorchilik izohli lug'ati"da shaftolining bir turi **ollohdodiy** deb nomlanishi keltirilgan. Manbalarga ko'ra, shaftolining **ollohdodiy** navi XVII asrda Balx atrofidagi qishloqlarda yetishtirilgan. Balx hokimi Nadr Muhammadxonning buyrug'i bilan Balx shahriga (saroy bog'lariga) olib kelib ko'paytirilgan. Oллоhdod (Xudoyberdi) kishi ismi bo'lib, bu esa shaftoli navlarini yaxshilashga ham o'tmishda alohida e'tibor berilganligini ko'rsatadi<sup>63</sup>.

Hofiz Ubayhiy "Tuhfat ul-ahbob" ("Suhbatdoshlar tarjimayi holidan do'stlarga tuhfa") asari<sup>64</sup>da shaftolining bir turi **shalir** deb nomlanishi haqida ma'lumot beriladi. Shalirning ba'zisi to'liq qizil, ba'zisi oq, ba'zisi sariq tusda bo'ladigan xushxo'r navlaridan biridir.

Beruniy "Kitob as-saydana fi-t-tib" asarida **shaftrang** – oq-qizil, sariqqa moyil meva, shaftoliga o'xshaydi. Aytishlaricha, shaftoli o'rikka payvand qilinsa, shu meva hosil bo'ladi. Uni **hinduhulv** deb atashadi va bu chatishma meva o'rik kattaligida bo'ladigan qizil shaftoli, Xurosonda shaftrang deyishadi. Shaftolining o'rik kattaligida bo'lishi O'zbekistonda uchramaydi<sup>65</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, so'z tarixan turli til, dialektlarning orfoepik normalariga moslashgan holda nominativ funksiya bajargan. Barcha tillar va manbalardagi *shaftolu – shaftali – shaftalu – shaftoli – shapdal – shoftali – shaptula – shaptul – shaptal – shaptol – sheptol – shabdali – shaptali – shabdali – shaptalshepdali – shapol – shoptol – shiftalu – shaptul* kabi fonetik variantlarini qiyoslaganda, mazkur so'zning ikki komponentdan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi.

Birinchi komponent *shaft- shapd – shapt –shept- shabd- shepd- shopt- shift* bo'lib, ikkinchisi *olu- alu- oli- al- ali- ula- -ol- ali: - ol:lar* kompozitsion usulda

<sup>62</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/osveschenie-v-turkestanskom-sbornike-protsessa-razvitiya-selskogo-hozyaystva-andizhanskogo-uezda>

<sup>63</sup> Mahmud Hasaniy. Qadimgi bog'dorchilik izohli lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. –144 b.

<sup>64</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Vozeh>

<sup>65</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniyning-saydana-asari-dorivor-o-simliklar-xazinasi>

yasalgan bo‘lib, aniqlovchi – aniqlanmish (sifat +ot) tipidadir. So‘zning birinchi komponenti *shaft* bo‘lib, u oq rangni bildiruvchi sifat, ikkinchi komponent **olu-oli** esa fors-tojik tillarda mevalarni atovchi umumnomdir. *Shaft* so‘zi ham tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turlicha tovush o‘zgarishlariga uchrab, hozirgi fors, tojik tillarida *safed*, *safid* formalarida qo‘llanadi. So‘zning birinchi komponenti *shaft*ning qo‘llanish formalari: qadimgi eron tilida *spita-*, *spaita-oq*, *oqlik*, *oq rang* “Avesto” tilida ham shu ma’noni bildirib, qo‘shma so‘zlar sostavida *spita*, *spiti* formalarida, mustaqil qo‘llanishda esa *spaeta*, *saped*, fors tilida *safed* ko‘rinishlarida keladi <sup>66</sup>. Ko‘rinadiki, birinchi komponent *safed* dastlab eramizgacha *spaita* bo‘lib davrlar o‘tishi bilan yuqorida qayd etilgan fonetik variantlar asosida o‘zgarishlarga uchragan. Ikkinchi komponent **olu-oli** qo‘shma so‘z sostavida kelganda ko‘pgina tillarda turlicha formalarda keladi. Meva turi orqali meva nomini atovchi, bu so‘z dastlab, ikki mustaqil so‘zdan iborat bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan komponentlar, orasidagi grammatik munosabat kuchsizlana borib, natijada so‘z-asoslar birlashib boradi. So‘zdagi morfologik qayta bo‘linish ikki so‘zni bir so‘z holiga keltirgan. Hatto qiyosiy tahlil qilmasdan, hozirgi shaklida komponentlarning chegaralarini belgilab ham bo‘lmaydi. Lekin bu ikki so‘z-asosning bir tushunchani ifodalay boshlagan paytdagi shaklini ko‘rsatuvchi yozma manbalarni uchratmadik.

Bu so‘z *spaita + olu yoki safid = safed + olu* shaklida yasalganmi, buni tasdiqlovchi materiallarga ega emasmiz. Ammo biz *spaita* sifatida *safed=safid* formasida qo‘llana boshlaganidan so‘ng **olu** so‘zi bilan qo‘shilib, shu turkumdagi mevalardan birini ajratib atashda foydalanilgan degan fikrdamiz: *shaftoli – shaftolu shaptolu –septolu –sep: dolu –sef:dolu –sefidolu –sefedoli*.

Qo‘shma so‘zning komponentlari dastlab mustaqil ikki urg‘uli bo‘lib, ular o‘zaro qo‘shilib bir bosh urg‘u olganida, qo‘shma so‘z tarkibidagi tovushlar turli o‘zgarishlarga uchragan. Birinchi komponentning ikkinchi bo‘g‘inidagi *e* unlisi qisqa oldingi qator **ɛ** ga aylanadi. Og‘zaki nutqda *f* undoshi ko‘p o‘rinda jarangsiz

<sup>66</sup> Абаев В. И. Несколько замечаний к славянским этимологиям // Проблемы истории и диалектологии славянских языков. –М.: Наука, 1971.– 274 с.

undosh *p* ga o'tadi. To'liqsiz regressiv assimilyatsiya natijasida jarangli *d* undoshi jaransizlanadi.

*Shaftoli* so'zi fors-tojik tili vositasida eski o'zbek tiliga o'tib o'zlashgan. Bir tildan ikkinchi qardosh bo'lmagan tilga o'tib o'zlashgan so'z, qo'shimcha, shu o'zlashgan tilning ichki fonetik qonuniyatlariga moslashadi. O'rdi, hind tillarida ham bu so'z *shaft+olu* kabi ko'rinishga ega.

Yuqorida qayd qilganimizdek, *shaftolu* so'zi XV asrlargacha yaratilgan turkiy badiiy, ilmiy asarlarda uchramay, uning o'rniga umumnom *o'rik bilan nomlangan Er oruk sadi – Odam shaftoli istadi*<sup>67</sup>.

*Ol eruk chap-chap jegi – U shaftolini shap-shap qilib yedi*<sup>68</sup>. Ammo ba'zi tadqiqotchilar shaftoli so'zining birinchi komponentida rang bildiruvchi so'zni emas, holat (ya'ni *sheft- shift - qattiq*) ma'nosi bor deb taxmin qiladilar.

Demak, *shaftolu* dastlab aniqlovchili so'z birikmasi bo'lib, vazifasi kommunikatsiya anglatishdan iborat bo'lgan. Tilning taraqqiyoti natijasida (ijtimoiy taraqqiyot, til tashuvchisining turmushi talabi asosida, albatta) so'z birikmasi o'zining grammatik funksiyasi va ma'nosini o'zgartirib, nominativ vazifada qo'llana boshlagan. Mevaning rang, tusini bildirishdan, shu oila turkumdagilardan mazkur mevani ajratib ataydi. Belgi ko'rsatishdan atamalik funksiyasi ustun keladi.

*Xurmo* – bu so'z eski o'zbek tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan. O'rxun-Enasoy yozma manbalarida, Mahbud Koshg'ariy lug'atida uchramaydi. Zamaxshariy lug'atida *xuvma* "Tafsir"da *xurma* Alisher Navoiy asarlarida **xurmo:**

*Yuzi rangi masalliq kasif,*

*Mahosin namudori xurmog'a lif.*

Hozirgi eroniy tillarda: tojik tilida **xurmo**, fors tilida (**xorma**), (**yana (xorma-xarak) va xurma-xarak**)

1) xurmoning turi;

<sup>67</sup> Кошғарий Махмуд. Девони луғотит-турк. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 1960. –500 б. – 296-б.

<sup>68</sup> Кошғарий Махмуд. Девони луғотит-турк. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 1960. –500 б. – 308-б.

2) xurmoning quritilgani (**xormalu**), afg'on tilida (**xurma**), kurd tilida **xiute**, hozirgi turkiy tillarda: qirg'iz tilida (**kurma**), turkman tilida **xurma**, qaraqalpoq tilida **hurma**, ozarbayjon tilida **xurma**, tatar tilida **xorme**, o'zbek tilida **xurmo**, turkiy lug'atlarda<sup>69</sup> **xurmo/xurma** tarzida qo'llanadi. So'zning etimoni ilmiy manbalarda ko'rsatilmagan. Bu so'z manba til fors-tojik tilida yasama bo'lib, u ikki komponentdan tashkil topgan. Turkiy tillardagi bu so'zning variantlari so'z etimonini aniqlashga manba bo'la olmaydi. Chunki bu so'z fors-tojik tilida yasalib, qat'iy shaklga kirib qolgandan keyin boshqa tillarga o'tib o'zlashgan. **Xurmo** so'zining etimoni ham fors-tojik tilida mevalarning umum nomi vazifasida qo'llanuvchi so'z – oluga borib taqaladi. Bu taxminni tasdiqlovchi material hozirgi fors tilidagi shakli va variantlariga bog'liq.

1) **xurmalu** >**xur** +**m(a)**+**alu** > **xar**+ **lol (u)**+ **olu** kabi bosqichlarda bo'lgan. Hozirgi fors tilidagi yana bir xurmo navi uchun qo'llanuvchi so'z tarkibidagi morfemalarning ikkala (**xar**, **xur**) shakli ham bir asosdan, ya'ni **xar - katta, ulkan** ma'nosidagi so'z bo'lib, ularda tovush o'zgarishlari yuz bergan. Bu nav mevaning turlari ko'p bo'lib, *misr xurmo, kavkaz xurmo, sharq xurmosi, yaxsh, xiakume, zendjimar, tojikiston, sangishkan, sangshikan* va boshqa navlari mavjud.

**Rutab** – bu so'z arab tili leksikasi bo'lib, eski o'zbek tiliga fors-tojik tili vositasida o'zlashgan. Rutab xurmo mevasining arabcha nomlanishi sanaladi, qadimgi turkiy yozma manbalarda uchramaydi. Rutab so'zi fors-tojik tilida ham, eski o'zbek tilida ham, kitobiy so'z bo'lganligi uchun kam ishlatilgan. A.Navoiy asarida:

*Ey Navoiy, chun rutabdek otashin la'li aro*

*Xasta ko'nglum tushdi, tong yo'q, gar bo'lub xok o'rtanur* (NSH. 199)

tarzida qo'llanilgan.

Arab tilida bu so'zning *yangi xurmo, toza pishgan xurmo, eski xurmo* ko'rinishidagi ma'nolari mavjud.

---

<sup>69</sup> Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. II-2. Спб. 1893.–1734. <http://scientists.uz/uploads/202204/B-101.pdf>



Shu bilan bir qatorda qadimda xurmo danaklarini **asta** (“Burxoni qoti” lug‘atida) yoki **xasta**, boshog‘ini **og‘ushi** (“Farangi Jahongiriy” lug‘atida) deb atashganiga guvohi bo‘ldik.

Hakim Nosir Hisrav aytadi:

*Kasi ku barkashid in didan sar,*

*Basoni xastau shaftoluyi tar.*

*Du chashmi mo chu bu **unnob** xasta,*

*Hamisha **xastavu** bar kun nishasta.*

Ya’ni

*(Kim u o‘z ko‘zini yumolgan,*

*Go‘yo yangi shaftoli ichidagi danak kabi.*

*Ikki ko‘zimiz go‘yo ikki **chilonjiyda** danagi kabi,*

***Xasta** bo‘lib qon ichida o‘tiribdi. )*

Xurmo mag‘zi haqida qadimgi shoirlardan biri aytadi.

*Shirin koxist hujra raxta bar o‘,*

*Yakdona mustatili nosufta bar o‘.*

*Yoki dahlizist anbar o‘ karda safid.*

*Yoki misli siynachok xasta xufta bar o’<sup>70</sup>.*

Ya’ni

*(Bir chiroyli saroyki, ichida hujrasi bor,*

*Hujrada teshilmagan bir cho‘zinchoq dona bor.*

*Yoki bir dahlizdirki, ichini oq qilganlar,*

*Yoki bir chok siynaki bemor unda uxlab yotibdi.)*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xurmoga berilgan ta’rif quyidagicha:

**Xurmo** – (fors. Xurmo) Tropik va subtropik mamlakatlarda o‘sadigan, xurmodoshlarga mansub daraxt va uning mevasi. *Uning (Nil daryosining) ikki tomonida falakka bo‘y cho‘zgan minoralar, ko‘p qavatli binolar, xurmolar.*

<sup>70</sup> <https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14789>

(Mirmuhsin. Al Mahdiy) *Arablarda xurmo eng muhim ozuqalardan biri hisoblanadi.* (K.Mahmudov. Qiziqarli pazandalik)<sup>71</sup>

Yuqorida biz *xurmo* so‘zining kelib chiqish tarixi, turlari hamda izohli lug‘atdagi ta’riflarini keltirar ekanmiz, eslatib o‘tishimiz zaruri, barcha meva nomlari singari *xurmo* va uning shifobaxsh xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobida keltirib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mevachilik leksikasi doirasidagi nomlarning katta qismi uzoq tarixga ega. Ularning paydo bo‘lishi, muhimi, umumiste’olda qo‘llanishi, yuqoridagi yozma manbalarning guvohlik berishicha, qadimgi davrlardagi manbalarga borib tarqaladi. Bu lug‘atlar uchta xalq, ya’ni arab, fors va turkiy xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishdan tashqari, ularning adabiy aloqalarini yaxshilashga ham xizmat qilgan.

Bugun o‘zbek nutqida faol bo‘lgan *behi, zardoli, oluboli, olxo‘ri, qaroli, gilos, banan, limon, apelsin, mandarin, kivi* kabilar ham o‘zlashma qatlamga xos meva nomlaridir.

Demak, meva so‘zi O‘rxun-Enasoy yozma manbalari, Mahmud Koshg‘ariy lug‘ati, “Tafsir”da, Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi. Xullas, “meva” so‘zi fors tilidan o‘zbek tiliga V-VI asrlardan boshlab o‘zlashgan. Bugungi kunga qadar meva leksemasi ancha faol qo‘llanishda.

### **Birinchi bob bo‘yicha xulosalar**

1. Mevachilik leksikasi jahon lug‘atchiligida ham, jahon lug‘atchiligining bir qismi bo‘lgan o‘zbek lug‘atlarida ham leksik birliklar sifatida o‘z ifodasini topgan.

2. O‘zbek tilining maxsus lug‘atlari(jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”)da meva nomlari deyarli izohlanmagan. Odatda, lug‘atda muayyan mevali daraxtning biologik xususiyati ifodalangan va uning mevasi tavsifida esa “Shu daraxtning mevasi” izohidan nariga o‘tilmagan. (Biz buni olma mevasi nomi misolida yoritishga harakat qildik.)

---

<sup>71</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. X harfi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

3. Mevachilik leksikasining vujudga kelishi insoniyat o'tmishi bilan, insonning mehnat jarayonini o'zlashtirish tarixi bilan uzviy aloqador. Zero, meva nomlari o'zbek tili lug'at boyligining (katta va keng tarqalgan) ajralmas bo'lagi bo'lib, ularni *lison – nutq – matn trixotomiyasi* nuqtayi nazaridan alohida tadqiq etish ahamiyatlidir.

4. Tilning lug'at tarkibini o'xshashlik jihatlariga ko'ra muayyan paradigmatic qatorlarga birlashtirish tilning o'zi kabi murakkab, xilma-xil va, ayni paytda, o'ta qiziqarlidir. O'zbek tilidagi mevachilikka oid so'zlarni yig'ish va muayyan mavzuviy guruhlarga birlashtirish ham xuddi shunday murakkab masala bo'lsa-da, sohaning so'z va atamalarini yig'ish, o'xshashlik belgisi ostida paradigmatic qatorlarini tuzish, lug'atlarda nafaqat meva daraxtlarining nomini, balki meva va unga tegishli atamalarni ham (faqat biologik xususiyati nuqtayi nazaridan emas) til egalari ongida qanday o'rinlashganligiga qarab izohlash zarur.

5. Mevachilik leksikasini til nuqtayi nazaridan yig'ish, o'rganish, ular bilan bog'liq izohli lug'atlar tuzish, meva nomlariga berilgan ta'riflarni til imkoniyatlaridan foydalanib (xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashgan holda) soddalashtirish hamda mukammallashtirish, bir tomondan, til o'rganuvchilarga qulaylik tug'dirsa, ikkinchi tomondan, biologiya va tilshunoslik integratsiyasini ta'minlaydi.

## **II BOB. O'ZBEK TILIDA MEVACHILIK NOMLARINI IFODALOVCHI ATOV BIRLIKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **2.1. Mevachilik nomlariga xos umumlisoniy xususiyatlar**

So'z va uning paydo bo'lishi borasidagi bahs-munozaralar antik davrdan buyon to'xtamaydi. Qadimgi yunon olimlarining bu masalada ikki qarama-qarshi guruhga bo'linganliklari, biri nom bilan u ifodalagan narsa o'rtasida bog'liqlik mavjudligi g'oyasini ilgari sursa, ikkinchi guruh, aksincha, nominativlik hamda voqelik o'rtasida hech qanday semantik aloqa yo'qligini, shuning uchun bir narsa turlicha nomlanishi mumkinligini bayon qilishadi.

Aflotun har ikki guruhning fikri biryoqlama ekanligini qayd etib nominativlik bilan u ifodaviylik o'rtasida tabiiy munosabat ham, shartli munosabat ham bo'lishi mumkinligiga urg'u beradi. Til murakkab birlik ekanligidan kelib chiqsak, uning nutqiy voqeligi bo'lgan so'z ham shu qadar serqirra tabiatlidir. Shunday ekan, so'zni o'rganishda turli-tuman qarashlar, fikrlar, xulosalar kelib chiqadi va, demakki, turli xil prizmalarda tekshirishni taqozo etadi. Mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklar nominativligida ham nom va ifoda orasida ba'zan bog'lanish bo'lishi, ba'zan esa aloqadorlik bo'lmasligi mumkinligi kuzatiladiki, bu ularning tuzilishi, etimologiyasi bilan bog'liq ma'lumotlardan xabardorlikni taqozo etadi.

Meva inson uchun, ba'zi hayvonlar uchun ham darmondorili ozuqa sanaladi. Shu boisdan ham, meva nomlariga, ularning xususiyatlariga qiziqish qadimdan boshlangan.

Alisher Navoiyning "G'aroyib us sig'ar" kulliyotining 341-g'azalida shunday misralar uchraydi:

*Ey chuchuk jonim sening shirin labing,*

*Mevayi jonim turunji g'abg'abing.*

Ya'ni (*Mening*) *jonimning shirinligi sening labing shirinligidandir, Baqbaqang jonimning darmon mevasidir.*

Baytda meva hamda mevaning turi turunj<sup>72</sup> (limon) so'zlari qo'llanilgan va garchi limon o'ta nordon meva bo'lsa-da, uning darmondori ekanligiga ishora qilingan. (Fikrimizcha, mashuqaning baqbaqa, ya'ni iyak aylanasi limon shakliga ham mengzalgan.)

Ta'kidlash joizki, mevachilik tarixiga oid manbalar sharhida o'zbek tili mevachilik leksikasining o'rganilish tarixi bevosita mazkur sohaning tarixi: paydo bo'lishi, shakllanishi, taraqqiyoti va bugungi holati bilan chambarchas bog'liq holda tadqiq etilgan. Chunki gulchilik sohasi tarixini o'rganmasdan turib, bu sohaga oid leksikani o'rganilish tarixini yoritib bo'lmaydi. "Xalq o'zini aniq va ravshan

---

<sup>72</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-том. –Тошкент: Фан, 1984. – 624 б. –259 б.

hamda to‘lalgicha tilida namoyon etadi. Xalq va til bir-birisiz mavjud bo‘lmaydi”<sup>73</sup>. “Xalq tarixining til tarixi va, aksincha, til tarixining xalq tarixi ekanligi allaqachon o‘z isbotini topgan”<sup>74</sup>.

Ishimizning oldingi bobida leksema va so‘z munosabati haqida va ularning ixtisoslashuvi xususida mulohaza yuritgan edik. Leksema lisoniy birlik bo‘lsa, so‘z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik ekanligi ma’lum. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo‘lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so‘z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega. Meva nomlari ham turli millat vakillari va til egalari lisonida ular garchi turlicha (masalan, o‘zbek tilida – *olma*; boshqird, qozoq, qorachoy-bolqor, qo‘miq, no‘g‘ay, tatar tillarida – *alma*; ozarbayjon tilida – *alma* (آلما); usmonli turk tilida – *elma* (الما); gagauz, qrim-tatar, qoraqalpoq tillarida – *alma*; uyg‘ur tilida – *elma* (ئالما); chuvash tilida – *ulma*; rus tilida – *яблоко*, ingliz tilida – *apple*, arab tilida – *tafaha* (تفاحة), nemis tilida – *apfel*, fransuz tilida – *pomme*, ispan tilida – *manzana*, shotland tilida – *ubhal*, latish tilida – *abols*) shaklda nomlansa-da, bir xil yoki bir turdagi predmetning nomini atash uchun xizmat qiladi. Demak, dunyo xalqlarining barchasi lisoni uchun mevachilik va mevaning nomlari leksema sifatida mavjud.

Vaqt o‘tishi bilan meva nomlari, muayyan mevaning yangidan yangi turlari, sortlari, mevachilikka oid so‘zlar soha terminlariga aylanib boraveradi. Shu o‘rinda so‘z va termini farqlash ehtiyoji ham paydo bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, so‘z – leksemaning nutqiy voqeligi, leksik sath birligi.

Termin (lat.), ya’ni atama fan-texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasidir”<sup>75</sup>. Yoki atama – maxsus ilmiy tushuncha ma’nosini ifodalovchi so‘z yoki so‘zlar birikmasidir.

<sup>73</sup> Срезневский И.И. Мысли об истории русского языка. – М.: Наука, 1959. – С. 16-17.

<sup>74</sup> Кодухов В.И. Общее языкознание. – М.: Наука, 1977. – С.7-8.

<sup>75</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. I жилд.–Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – 165 б.

O.S.Axmanova lugʻatida atama (termin) leksemasiga shunday taʼrif beriladi: “Atama maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va xos narsalarni toʻgʻri talqin etish maqsadida vujudga keltirilgan (qabul qilingan, oʻzlashtirilgan) tildagi (ilmiy, texnikaviy va b.) maxsus soʻz yoki soʻzlar birikmasidir<sup>76</sup>.”

Hozirgi zamon mantiqshunoslari “atama”, “termin” soʻzi bilan birgalikda “term” soʻzini ham qoʻllashadi. Rus tilida “termin” va “term” tushunchalari mavjud boʻlsa, ingliz tilida ikkala maʼnoni oʻzida mujassam etgan “term” soʻzi qoʻllaniladi va bu soʻzdan, oʻz navbatida, yana bir necha boshqa maʼnolar ham kelib chiqadi. “Term” (ing. term, fr.terme, lot. terminus –“chegara”; keyinroq – “ifoda”, “izoh”) bizni qiziqtirayotgan maʼnoda inglizlar tomonidan “technical term” degan soʻz birikmasi bilan ifodalanadi va mazkur soʻz birikmasi, koʻp hollarda, “texnik atama” degan holda tarjima qilinadi. Aslida bu texnika atamasi emas, balki umumiy maʼnodagi atamani bildiradi. “Tekhnikal” sifat soʻzi bu yerda grekcha “sanʼat, mohirlik, kasb-hunar” semalarini yuzaga chiqaradi. Demak, inglizcha “technical term” atamasi mazkur birlikning mahoratli va nisbiy yoʻnaltirilganligini koʻrsatish uchun qoʻllanilgan<sup>77</sup>.

*Terminus* soʻzining kelib chiqishi grekcha maʼnosi bilan bogʻliq:

- 1) *terminus* – poyga maydonidagi oxirgi ustun;
- 2) *terminus* – chegara, kun.

Lekin oʻzining terminologik maʼnosiga bu soʻz faqatgina lotin tilida ega boʻladi:

1) *terminus* – mantiqiy (definision, nominativ) jihat: “Maʼlum bir tushunchalar sistemasida oʻzining definisiyasini talab qiluvchi soʻz yoki soʻz birikmasi atama sifatida qabul qilinadi” (D.S.Lotte, V.P.Danilenko, T.L.Kandelaki<sup>78</sup>).

---

<sup>76</sup> Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов <https://www.proquest.com/>

<sup>77</sup> Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. –13 с.

<sup>78</sup> Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов.– М.: Наука, 1982.– 165 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов.– М.: Наука, 1977.– 167 с.

2) *terminus* –funktional (kontekstual) jihat: “Atamaning to‘la ma‘nosi faqatgina uning haqqoniy vazifasi, metasintaksisim orqali ochiladi” ( G.O.Vinokur, O.S.Axmanova, B.N.Golovin va b.<sup>79</sup>).

Yuqoridagi ikki qarash ham ahamiyatga ega. Til murakkab, ko‘p qamrovli hodisa bo‘lganligi uni o‘rganishda turli xil qarashlar, fikrlar, xulosalar kelib chiqishini taqozo etadi va buni tabiiy hol sifatida qabul qilish zarur.

“So‘z va atama bir tushunchani anglatuvchilarmi?” degan savolga A.A.Reformatskiy shunday fikr bildiradi: “Albatta, har bir atama, avvalo, so‘z. Biroq har bir so‘z atama emas. Agar so‘z faqatgina atama sifatida qo‘llanilayotgan bo‘lsa, u holda uning “oddiy so‘z”dan farqini qidirish befoyda. Biroq, ko‘pincha, ma‘lum bir “so‘z” goh atama sifatida ishlatiladi, goh atama bo‘lmaydi. Atama ko‘rinishiga ushbu so‘zlar tuzilishi bilan moslashib oladi. So‘z atamaga aylangach o‘zining sinonimlik va antonimlik xususiyatlarini yo‘qotadi. Shu jihati bilan so‘z va atamani farqlash lozim bo‘ladi”<sup>80</sup>.

Demak, *atama* so‘z bo‘la oladi, biroq har qanday *so‘z* atama bo‘la olmaydi. Chunki, eng avvalo, so‘z o‘zi izohlayotgan tushunchaning talabini, ehtiyojini to‘la qondirib, u haqidagi ma‘lumotni o‘zida imkon qadar mujassam qilgan bo‘lishi zarur. Aks holda u so‘z so‘zligicha qolaveradi. So‘z atamaga aylangach atamaga xos bo‘lgan xususiyatlarning vujudga kelishi tabiiydir. Zotan, atama – so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, u imkon qadar birma‘nolilikka intiladi. Tilshunos fikricha, atama, odatda, sinonimlik va antonimlik xususiyatlarga ega emas. Biroq ma‘lum bir tushuncha ayrim vaqtda bir nechta atama bilan berilishini ham unutmaslik muhim.

Oddiy so‘z uchun tashqi shakl muhim bo‘lsa, atama uchun birinchi o‘rinda uning mazmuni turadi. Shakl esa atama yaratilishining boshlang‘ich paytida u qadar aniq bo‘lmasligi mumkin. Bu atamaning umumiy leksikadan farqini belgilab beradi. So‘z uchun uning jaranglashi, ya‘ni tovushlar bilan ifodalanishi, mazmuni va nomlanilayotgan narsa-buyum o‘rtasidagi bog‘liqlik

---

<sup>79</sup> Головин Б.Н. Термины в языке и речи.– Горький: ГГУ, 1984.– 145 с.

<sup>80</sup> Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. – М., 1959.– 453 с.

bir butunlik sifatida gavdalansa, atamada bunday butunlik kuzatilmaydi. Masalan, agar gap atamaning leksik yoki sintaktik bog‘lanishlari haqida ketsa, atama bu o‘rinda so‘z sifatida qabul qilinadi, lekin atamaning tushuncha bilan bog‘liqligi haqida gap ketsa, bu o‘rinda, atama so‘zga qarama-qarshi qo‘yilib, uning tushunchasi maxsus tushuncha sifatida umumiy tushunchaga zid bo‘lgan tarzda qabul qilinadi. Bu esa o‘z o‘rinda “atama-tushuncha” va “atama so‘zlar”ni farqlashni taqozo etadi. Atama-so‘z va atama-tushuncha bir narsa emasligi har xil tillardagi bir fanning atama sistemalarini taqqoslashda namoyon bo‘ladi, chunki bu tillarda bir tushuncha turli so‘zlar bilan ifodalanadi.

Biz shu o‘rinda mevalilik nomlariga oid atamalar borasida to‘liq va to‘liqsiz atamalar birliklarining qo‘llanilishi tarafdorimiz. Fikrimizcha, umumiste’olda bo‘lgan *anor, anjir, apelsin, ananas; behi, banan, bodom; do‘lana, dovuchcha; fundyuk; gilos, jiyda, kokos, limon, malina, maymunjon, olma, olcha, olxo‘ri, oluboli, qaroli, shaftoli* kabi meva nomlarini sohaning sof atamalari sirasiga kiritish qiyin.

To‘g‘ri, tilning lug‘at tarkibida terminologiya qismi katta bir o‘rinni egallaydi. Termin – ilm-fan va boshqa muayyan sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasidir. Uning qo‘llanilish doirasi shu soha bilan chegaralangan, lekin umumiste’oldagi so‘zlar ma’lum bir sohaga oid tushunchani ifodalovchi so‘z sifatida ishlatilishi, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u so‘z dastlabki ma’nosi bilan umumiste’oldagi leksikaga, maxsus (terminologik) ma’nosi bilan esa terminologik (chegaralangan) leksikaga oid bo‘ladi<sup>81</sup>.

Ammo terminlar birma’noli, tizimga solingan bo‘lishi va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan umumiste’oldagi so‘zlardan farq qilishi zarur. Biz yuqorida sanab o‘tgan meva nomlari xalq o‘g‘zaki ijodida, badiiy adabiyotda muayyan emotsionallikni ifodalovchi ramzlar sifatida qo‘llanilishi ularni sof terminlardan farqlab turadi.

---

<sup>81</sup> Хожиев А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тoshkent, 1980. –129 б.



O.Frolova ta'kidlaganidek, terminlarining uchta o'ziga xos xarakteri mavjud: a) semantik (birma'nolilik, aniqlilik, termin sifatida bir xil tushunish, terminning stilistik betarafligi); b) sintaktik (tizimga solinganlik) va d) pragmatik (terminning qo'llanilishga qulayligi, darajasi, qisqa va lo'ndaligi)<sup>82</sup>.

Har bir sohadagi yutuqlar uzviy ravishda shu soha terminologiyasiga katta ta'sir o'tkazishini bilamiz. Bu, albatta, mevachilik nomlari terminologiyasiga ham tegishli. Keyingi yillarda mevachilik nomlari terminologiyasi qator birliklar bilan boyiganligini kuzatamiz. Masalan,

**olma mevasining** sovuqqa chidamli navlari: *pepin shafran, qandil sinap, renet Simirenko, golden delishes, boyken, renet kichunova, sari sinap, oq rozmarin, man-tuaner, olmaota, aport, Toshkent borovinkasi, Toshkent reneti, mehmoni* kabi;

**olma mevasining** issiqqa chidamli navlari: *mart, cuvorovets, aprel, jonatan, starking, antonovka, renet shampant, oddiy antonovka* kabi.

Ularning ba'zilar bilan tanishamiz.

**Jonatan** Ukrainada va Moldaviyada keng tarqalgan. O'zbekistonda ham yetishtiriladi. Mevasi o'rtacha kattalikda, biroz yumaloq va qovurg'ali. Meva po'sti yaltiroq, silliq, yashil-tilla rang, saqlanganda tilla rang sariq tusga kiradi. Eti qumoq-qumoq, sersuv, nordon-shirin, xushbo'y. Mevasi mart oyigacha saqlanadi.

**Oq Rozmarin** mevasi qishki nav bo'lib, mevasi cho'zinchoq, ovalsimon, vazni 80-100 g keladi, po'sti yashil-sariq, ustida oq nuqtalari bor. Eti oq, saqlanganda bir oz sarg'ayadi, sersuv, mazasi nordon-shirin, hidi xushbo'y. Bu olma navi O'zbekistonning deyarli barcha tumanlarida yetishtiriladi.

**Jonred** mevasi Jonatan navining kloni hisoblanadi. Mevasi rangining to'q qizilligi bilan undan farqlanadi. Tez hosilga kiradigan, har yili hosil qiladigan, serhosil kuzgi nav. Mevasi o'rtacha yirik (100–110 g), yumaloq konussimon shaklda, qirmizi, to'q qizil rangda. Eti sarg'ish, sersuv, nordon-shirin, ta'mi juda mazali, hushbo'y. Mevasini oddiy usulda dekabr-yanvargacha saqlash mumkin.

---

<sup>82</sup> Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка.— Новосибирск: Наука, 1981.— 130 с.

Olmaning har bir navi xususida shunday ma'lumot keltirish mumkin.

**O'rik** mevasining navlari: *qandak, subhoni, isfarak, ko'rsodiq, ruhi juvanon, xurmoyi, shalax, yubileyniy, navoiy, iskandariy, mohtobiy, bodomi, gulongi bodomi, xashaki (xasaki), ahroriy, gulungi luchchak, mirsanjali, javpazak, oq o'rik, qizil o'rik, sariq o'rik* kabi.

O'rikning 500dan ortiq navi bor.

**Olxo'ri** mevasining navlari: *berton, ispolin, samarqand qora olxo'risi, ispolinskaya, izobilnaya, vengerka, oq olu, sariq olu, qora olu, vashington* kabi.

Olxo'rining 30dan ortiq navi bor.

O'zbek tili meva nomlari terminlarini, asosan, so'z qo'shish va affiksatsiya usuli orqali yasalgan so'zlar va chet tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Meva nomlari terminlari ichida sodda, shuningdek, murakkab tuzilishli birliklar ham uchraydi. Murakkab tuzilishli meva nomlari ikki guruh, ya'ni asosiy komponentlarning atributiv munosabatda yoki kopulyativ munosabatdaligiga qarab ajraladi. Ushbu ikki tipning yana bir farqi shundaki, kopulyativ munosabatda bir kategoriyaga kiruvchi komponentlarga ega bo'lishi mumkin, atributiv munosabatda esa qat'iy qoida bo'lmasa ham, komponentlar turli kategoriyaga mansub bo'ladi.

Bilamizki, otlar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab turlarga bo'linadi. Sodda ot bir o'zakli bo'ladi: *meva, bog', bodom, pista*. Murakkab ot o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) qo'shma ot; b) juft ot; d) takroriy ot. Bu tasnif ot turkumiga kiruvchi ma'noviy guruhlarning barchasiga tegishli. Biroq o'zbek tilida meva nomlari ifodalovchi atov birliklari o'z shakliy strukturasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Til birliklarini shakliy strukturasi ko'ra tasniflashda ularni tashkil etuvchi o'zaklar soni, miqdori inobatga olinadi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, meva nomlari ifodalovchi atov birliklari tuzilishiga ko'ra so'z va birikma holda uchraydi. Jumladan,

**So'z shaklidagi meva nomlari:**

a) sodda so'z: *olma, olcha, nok, shaftoli*;

b) murakkab soʻz: *ayiqmurut, olmamurut, koʻksulton, togʻolcha, chilonjiyda, chumchuqkoʻz, qoraqat, anjirshaftoli.*

**Birikma shaklidagi meva nomlari:**

a) sodda birikmali: *qattiq meva, mevali daraxt, mevali buta, quruq meva, hoʻl meva, xom meva, achchiq meva, shirin meva;*

b) murakkab birikmali: *achchiq danakli oʻrik, qogʻoz poʻchoqli bodom, yupqa poʻst yongʻoq.*

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan har bir guruh oʻz oʻrnida ichki guruhlariga boʻlinib ketadi. Masalan, “sodda soʻz” guruhi sodda tub va sodda yasama guruhlariga ajraladi:

a) sodda tub: *olma, anor, tut, shaftoli, nafis, golden, qandil, kamola;*

b) sodda yasama: *olcha (olu+cha), afrosiyobi (afrosiyob+i), behishti (behisht+i), qirmizak (qirmiz+ak), mehmoniy (mehmon+iy)...*

“Murakkab soʻz guruhi”, oʻz oʻrnida, qoʻshma va juft ichki guruhlariga ajraladi:

a) qoʻshma: *ayiqmurut, koʻksulton, togʻolcha, chilonjiyda, chumchuqkoʻz, qoraqat;*

b) juft: *gʻoʻr-shoʻr, meva-murut, xom-xatala, olma-anor, olma-oʻrik.*

Meva nomlarini ifodalovchi atov birliklari orasida erkin birikma holatidagi atamalar talaygina. Ular ushbu tizimga kiruvchi tushunchalarni ifodalashga ixtisoslashib borayotganligi tufayli soʻz birikmasidan qoʻshma soʻzlarga aylanayotgan hodisalar sifatida baholanishi mumkinligi yuqorida taʼkidlandi.

Qoʻshma va murakkab soʻzli terminlar birgina soʻz qoʻshish usuli bilan yasalganda bir-biriga aynan oʻxshash boʻlib, bir butun yaxlit semantik xarakterga ega boʻladi. Har qanday termin tuzulishidan qatʼi nazar, yaxlitlikka ega. Terminlarning katta qismini soʻz birikmasidan iborat terminlar tashkil etgani bois, ular nafaqat maʼlum bir strukturaga ega katta guruhni tashkil qiladi, balki terminologik qatorlarni tizimlash va tuzilishiga koʻra guruhlariga ajratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu terminlar o‘zbek tili grammatikasiga xos bo‘lgan qoidaga, ya’ni termin tarkibidagi komponentlar ketma-ketlikka rioya qiladi: aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Masalan, *qizil olma, sariq olma, ko‘k olma, oq rozmarin, oddiy antonovka; oq o‘rik, qizil o‘rik, sariq o‘rik; oq olu, sariq olu, qora olu, samarqand qora olxo‘risi* va h. Kam bo‘lsa-da, aniqlovchi aniqlanmish inversiyaga uchragan yoki izofa shaklidagi mevachilik terminlari ham uchrab turadi, masalan, *sohibi nav* (uzum turi), *dili kabutar* (uzum turi), *sarvi surxoni* (gilos navi).

Meva nomlari terminologiyasi tuzulishi jihatdan yana quyidagi tiplarga ham bo‘linadi:

1. Aniqlash orqali bog‘langan terminlar tipi;
2. Natija orqali bog‘langan terminlar tipi;
3. Vaqt+predikativ bog‘langan terminlar tipi.

*Aniqlash orqali bog‘langan terminlar tipi*, odatda, quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

#### “2.1.- jadval.” Aniqlash orqali bog‘langan terminlar tipi

	ot+ot	sifat+ot	ism + ism	son+ot
	<i>kelin barmoq, ketmon sopi, sug‘diyona kishmishi, Toshkent barovkasi, naqsh olma, Jizzax golden, Namangan naqshi, Quva anori, Rishton kishmishi...</i>	<i>qora kishmish, oq husayni, qora janjal, oq olu, sariq olu, qora olu, samarqand qora olxo‘risi, pusti gilos, qora gilos, sariq gilos...</i>	<i>bakterial kuyish, sovuq urish, rang o‘zgarishi</i>	<i>besh yulduz (olma navi), qo‘sh danak (o‘rik navi) uch qora (uzum navi)</i>

Mazkur terminlarda komponent sifatida asos morfemalarga e'tibor qaratsak, ular predmetni, harakatni yoki uning sifatini belgilab kelishi mumkinligini kuzatamiz.

*Natija orqali bog'langan terminlar tipida* komponentlari orasida natijaviy munosabat mavjud bo'lib, bunda birinchi komponent fe'l, ikkinchi komponent esa sifat yoki fe'l bo'lishi mumkin. Bunday so'zlar, odatda, fe'llar bo'lib, ular biron bir harakat natijasini bildiradi. Ko'p hollarda bunday umumiste'moldagi so'zlar terminologiya leksikasida keng foydalaniladi.

### “2.2.- jadval.” Natija orqali bog'langan terminlar tipi

	<b>termin</b>	<b>natija</b>		<b>termin</b>	<b>natija</b>
1	<i>oftobda kuyish, bakterial kuyish, sovuq urishi</i>	kasallanish	11	<i>butash, kesish, shakl berish</i>	parvarishlash
2	<i>dorilash</i>	sepish	12	<i>payvand qilish, payvandtag</i>	ko'paytirish
3	<i>dori purkagich</i>	sepish	13	<i>meva tugish</i>	hosil bermoq
4	<i>changlatish</i>	changlash	14	<i>fungusid, kaltsiy, tiofanat metil</i>	dorilash
5	<i>sug'orish, o'g'itlash</i>	parvarishlash	15	<i>chatishtirish</i>	yangi nav yaratish
6	<i>traktor, yuk mashinasi</i>	tashish	16	<i>simbag'az, shpalera, narvon, tirkak</i>	sinishdan saqlash
7	<i>qurt urishi, chirish</i>	zararlanish	17	<i>gerbitsit</i>	dorilash
8	<i>olma soki, olma sirkasi, olma murabbos, olma jemi, olma pyurisi va vino</i>	iste'mol	18	<i>terish, saqlash</i>	iste'mol
9	<i>olma qo'ng'izi, olma kuyasi, olma biti</i>	zararlanish	19	<i>gul, gulkosa, pindiq, kurtak</i>	rivojlanish
10	<i>suvlanish, muzlash, un shudring,</i>	zararlanish	20	<i>farangiz, go'zal, feruza, kamola, cho'lpon</i>	yangi navlar yaratish

	<i>qo'tir</i>			
--	---------------	--	--	--

*Vaqt+predikativ bog'langan terminlar tipi* kam bo'lsa-da, uchraydi. Bunda terminning birinchi qismi uning zamoni, ikkinchi qismi esa uning harakatini bildiradi. Masalan, *ertapishar, tezpishar, kechpishar, o'rtapishar*.

Mevachilik sohasida shunday umumiy terminlar ham mavjudki, ularni faqat shu sohadagina ishlatiladi deb bo'lmaydi. Jumladan, *gul, gulkosa, pindi, kurtak, terish, saqlash, sug'orish, o'g'itlash, meva tugish, ammiakli suv, vegetativ ko'payish, vegetativ organlar, organik o'g'itlar, mavsumiy sug'orish normasi, navlararo chatishtirish, ob-havo sharoiti, kontinental iqlim sharoiti, ildiz sistemasi, shifobaxsh xususiyati* va b. Bular paxtachilik, g'allachilik, dehqonchilik sohasida ham bemalol qo'llanishiga guvoh bo'lamiz. Ularning funksiyasi hamda tuzilishi ham farq qilmaydi.

*Olma qurti, behi prashasi, rezavor meva, sitrus meva, qulupnay zararkunandasi, mevaning chirishi, qulupnayzorni chopiq qilish, chorbog'ni sug'orish* kabi terminlari haqida bunday deb bo'lmaydi. Bu terminlar orqali ifodalangan predmetlar boshqa sohalarda deyarli ishlatilmaydi.

Demak, terminlarning biror sohaga nisbatan xususiy bo'lishi ulardan anglashilgan tushunchalarning shu sohadagina xosligi, boshqa sohalardagi o'ziga o'xshagan tushunchalardan biror xususiyatga ko'ra farq qilishi bilan belgilanadi<sup>83</sup>.

Terminning ma'lum bir sohaga xosligi uning tashqi tuzilishidan ko'rinib turmasligi ham mumkin. Masalan, *agro qo'llanma, termostat, o'g'itlar, dori purkagich, nav, tur, mevapoya, changlatgich, changlanish, kukunlash* va h.

Fikrimizcha, mevachilik leksikasining strukturasi, semantikasi, tasnifi, so'z yasashdagi o'rni kabilar tarixiy-qiyosiy aspektda o'rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim mavzu hisoblanadi.

## **2.2. Mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining gipogeperonimik munosabati**

<sup>83</sup> Маматов Н. Ўзбек мевачилик терминологияси. –Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси, 1955.–107 б.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida kasb-hunar, sug'orish, dehqonchilik, o'simlikshunoslikka oid terminologik tadqiqotlar M. B. Abdiyev, A.Qurbonov, T.Nu'monov, X.Jamolxonov, Y.Eshonqulov, G.X.Negmatova, X.Jabborov, Z.A.Djuraboyeva, G.Muqimova, N.Pazlitdinova, M.Usmonova, M.Hoshimxo'jayeva, Z.B.Allayorova<sup>84</sup> kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida G.X.Negmatova, G. Muqimova, N.Pazlitdinova, M.Hoshimxo'jayeva, M. Usmonovalar bevosita fitonim (o'simliklarning atoqli otlari) larni, fitonimik leksika (turdosh otlar)ni va badiiy asarlarda fitomorf metaforalarni apellyativ va onomasiologik yo'nalishda leksik-semantik, stilistik, lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

Shuningdek, daraxt, jumladan, meva nomlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari A.K.Borovkov, Y.Ishonqulov, B.Bafoyevlarning tadqiqotlarida ayrim daraxt, meva nomlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari tadqiq etilgan<sup>85</sup>. S.Sahobiddinov, Q.Zokirov, H.Jamolxonovlar daraxt nomlarini botanik va leksikografik aspektda o'rganishgan<sup>86</sup>.

---

<sup>84</sup> Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. фан. доктори дисс. ....автореф. –Т., 2005. –56 б.; Қурбонов А. Термины зерновых культур и зерного хозяйства узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 24 с.; Нугмонов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 22 с.; Жамолхонов Х. Ўзбек ботаника терминологиясининг шаклланиш ва ривожланиш тарихидан: Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати. – Т., 1969. – 25 с.; Эшонкулов Ю. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.; Негматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши. Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати – Т., 1998. – 21 б.; Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси. – Қарши: Насаф, 2004. – 159 б.; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: – Тошкент: Фан, 2011. – 149 б.; Джурабоева З. А. Ўзбек тилида экологик терминлар. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2018. – 26 б.; Пазлиддинова Н. Ўзбек тилида фитонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона., 2018. – 52 б.; Усмонова М. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Жиззах., 2022 – 55 б.; Муқимова Г. Фитоморф метфораларнинг лингвопоэтик, лингвокультурологик хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро., 2023. – 50 б.; Хошимхўжаева М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалсафа док. дисс. автореф. –Т., 2018.; Аллаёрова З.Б. Ўзбек ва инглиз тилларида аграр соҳа терминларининг типологик хусусиятлари. ): Филол. фан. б. фалсафа док. дис. автореф. –Т., 2022.–62 б.

<sup>85</sup> Боровков А.К. Названия растений по Бухарском списке «Мукаддимат-ал-адаб» // Тюркская лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1971. – С. 96 - 111.; Ишонкулов Ю. Опыт историко-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1977.; Ишонкулов Ю. Ўзбек тилида мева номларининг тарихи ҳақида. – Тошкент, 1985.– 21 б.; Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 9-90.

<sup>86</sup> Саҳобиддинов С., Зокиров Қ., Жамолхонов Х. Ўзбек ботаника терминологияси масалалари. – Тошкент, 1966.; Саҳобиддинов С., Зокиров Қ., Жамолхонов Х. Ботаникадан русча-ўзбекча энциклопедик терминологиясининг таркиб топиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент, 1967.

Yuqoridagi bayon etilgan fikrlardan anglashiladiki, bu tadqiqotlarda o‘simlikshunoslik leksikasi va terminologiyasining ayrim xususiyatlari, ya’ni fitonim va fitonimik leksika mavzulari doirasida tadqiq etilgan. Ammo o‘zbek tilshunosligida o‘zbek tilining mevachilik leksikasi maxsus, yaxlit tizim sifatida maxsus o‘rganilmagan. Bu soha leksikasining o‘rganilish tarixi, tasnifi, leksik-semantik, struktur-grammatik, badiiy matndagi lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlari, taraqqiyot manbalari, ularning lisoniy va nutqiy xususiyatlari hozirgi kunga qadar maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmaganligi bu sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar talaygina ekanligini ko‘rsatadi.

Quyida meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarining gipo-geperonimik munosabatiga e’tibor qaratamiz.

Ma’lumki, leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog‘i, gipo-giperonimiya), ya’ni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda *giperonim* (tur) va *giponim* (jins) farqlanadi.

Giperonim – jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma’noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrosistemaning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlik. Giponim esa ma’lum jins turining nomini hamda o‘zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma’nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog‘liq. Masalan, *daraxt* giperonimi tur ma’nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan *daraxt* leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, *daraxt – qayin*, *daraxt – terak*, *daraxt – dub*, *daraxt – archa*.

Giponimlar teng huquqli bo‘lib, giperonimga munosabati bir xil. O‘z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bog‘lanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *daraxt* nomi dastlab ikki guruhga bo‘linadi:



*mevali daraxt* va *mevasiz daraxt*. Mevali daraxt o'z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema ko'pma'noli bo'lganligi bois bir tomondan *meva*, ikkinchi tomondan *daraxt* giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

*meva: olma – o'rik – shaftoli – behi – olxo'ri.*

*daraxt: olma – o'rik – shaftoli – behi – olxo'ri.*

*Daraxt* giperonimi tur tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu turning jinsini bildiruvchi so'z bilan bog'lanadi. *Daraxt* leksemasi uning jinsi nomi o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim o'rnida qo'llanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan o'z oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: *o'rik daraxti, shaftoli daraxti, behi daraxti, olxo'ri daraxti* kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo'lib xizmat qiladi. Masalan, *daraxt* giperonim leksemasining sememasi "tanasidan shoxlanuvchi o'simlik" bo'lib, "qizil, yashil yoki sariq rangli yong'oqdan piyolagacha bo'lgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt" sememasiga ega *olma* leksemasining "daraxt" semasi – *daraxt* giperonim leksemasi semasining sememalashgan ko'rinishi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va "xiraroq" (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va "yorqinroq". Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Aytilganidek, *daraxt* mevali va mevasiz daraxtga bo'linadi. Demak, borliqdagi bu bo'linish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema o'zbek tilida yo'q. Demak, giponimning o'rni bo'sh bo'lib, ular leksik lakuna (bo'shliq) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik to'ldiraverishi mumkin (Masalan: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* so'z birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug'aviy lakunaga ega bo'ladi. Bu bo'shliq ayni bir turning turli belgisi bilan cheklanmagan

miqdorda to‘lib borish imkoniyatiga ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun o‘zbek tilidagi 500 ta uzum navi nomining 490 tasi lug‘aviy lakuna hisoblanadi.

Giponimlar teng huquqli bo‘lib, ularning giperonimga munosabati bir xildir. Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug‘aviy lakunalarga ega bo‘ladi. Bu bo‘sh xonalar ayni bir jinsning turli belgilari bilan chegaralanmagan miqdorda to‘lib borish imkoniyatiga ega. Masalan, o‘nta o‘rik nomini biluvchi odam uchun o‘zbek tilidagi 200 ta o‘rik nomining 190 tasi lug‘aviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham (“mevali daraxt” va “mevasiz daraxt” tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemalarni ma’lum bir kishining bilmasligi) bo‘lishi mumkin.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ayrim so‘zlar tavsifida ba‘zan terminologik semalarga asoslanilsa, ba‘zan bunday yo‘l tutilmaydi. Masalan, *o‘rik* so‘zi tavsifida terminologik semalarga asoslanish mavjud. Qiyoslaymiz:

***o‘zbek tilida:***

**O‘RIK I** Guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg‘ish, qizg‘ish ranglarda bo‘ladigan yirik daraxt<sup>87</sup> (II tom, 511-bet)

**O‘RIK II** Shu daraxtning danakli mevasi<sup>88</sup>

***rus tilida:***

**Абрикос** Южное фруктовое дерево с жельто-красными плодами с крупной костечкой, а также самый плод этого дерева<sup>89</sup>.

Ruslarning keyingi lug‘atlarida bu tasniflar kengaytirilgan. **Абрикос** daraxt sifatida, **абрикос** meva sifatida batafsil izohlangan o‘rinlar mavjud. Ammo o‘zbek lug‘atlarida bu holat o‘zgarishsiz qolmoqda.

So‘zlarning semantik mohiyati ularning o‘z semantik tizimida ochiladi, shu boisdan so‘zlararo semantik munosabatlarning leksikografik metatilga muvofiq ravishda lug‘atlarda aks etishi va ichki ma’nolarni farqlovchi muhim yechimlarning leksikografik talqinga «yedirib» yuborilishi muayyan ma’no bilan

<sup>87</sup> www.ziyouz.com kutubxonasi “Ў” harfi 163-b.

<sup>88</sup> www.ziyouz.com kutubxonasi “Ў” harfi 163-b.

<sup>89</sup> <https://wordparts.ru/crossword/120904/>

soʻzning semantik tizimdagi oʻrnini aks ettirgan lugʻatlarning amaliy qiymatini yanada oshiradi. Chunki semantik munosabatlarni ochish asosidagina tilning asosiy vazifalaridan biri boʻlgan farqlash, differentsiatsiya amalga oshiriladi. Masalan, sinonimik munosabatlarda soʻzlarning ifoda boʻyoqlari orasidagi farqlar ochilsa, tur-jins munosabatlarida maʼnoviy noaniqlik muayyanlik tomon intiladi. Partonimik munosabatlarda esa butunlikning boʻlinishi asosida butunda qismni, qismda butunni koʻrish, ravshan ilgʻash imkoni vujudga keladi.

Quyida *olma* leksemasini semantik-sintagmatik munosabatlari asosida tavsiflashga harakat qilamiz.

**OLMA 1** dumaloq, baʼzan choʻzinchoq shakldagi yongʻoqdan tortib piyola kattaligicha boʻlgan oqish yoki sargʻimtir yashil, koʻk yoki qizil rangli danaksiz, urugʻli, meva beruvchi atirgullilar oilasiga mansub koʻp yillik daraxt. Olma koʻchati. *Olma ekildi. Olma payvand qilinadi.*

**turlari:** *qirmizak, semirenko, besh yulduz, nafis, golden, gala, kiku, gibson, pinova, sariq olma, chempion, gloster, piros, kelinolma, farangolma, naqsholma, nokpayvand, Toshkent borovinkasi, Samarqand aʼlosi, Jizzax golden, Namangan naqshi...*

**jinsdoshlari:** *oʻrik, nok, anjir, behi, olxoʻri, olcha, gilos, shaftoli, qaroli, limon, apelsin, banan...*

**birikuvchilari:** *ekmoq, qirqmoq, sugʻormoq, payvand qilmoq; shoxi, tanasi, bargi, ildizi, payvandi, payvandtagi...*

**OLMA 2** olma daraxtining hosili; dumaloq, baʼzan choʻzinchoq shakldagi yongʻoqdan tortib piyola kattaligicha boʻlgan oqish yoki sargʻimtir yashil, koʻk yoki qizil rangli danaksiz, urugʻli, shirin, nordon taʼmli meva. *Olma pishdi. Olmani yedik.*

**turlari:** *qirmizak, semirenko, besh yulduz, nafis, golden, gala, kiku, gibson, pinova, sariq olma, chempion, gloster, piros, kelinolma, farangolma, naqsholma, nokpayvand, Toshkent borovinkasi, Samarqand aʼlosi, Jizzax golden, Namangan naqshi...*

**jinsdoshlari:** o'rik, nok, anjir, behi, olxo'ri, olcha, gilos, shaftoli, qaroli, limon, apelsin, banan...

**birikuvchilari:** pishmoq, yemoq, artmoq, archmoq, chirimoq, kesmoq, bo'lmoq, murabbo qilmoq, jem qilmoq; soki, suvi, kompoti, qoqisi, quritilgani, murabbosi, jemi, navi, sorti, turi...

Bizningcha, lug'atlarimizda meva nomlari hech bo'lmaganda mana shu tartibda izohlanishi zarur. Bu esa leksikografik talqinlarda semantik-sintagmatik munosabatlarning ham qanchalik zarur ekanligini yaqqolroq namoyon etadi.

Yana bir mevachilik leksikasiga murojaat etamiz.

Quyida *gilos* leksemasini semantik-sintagmatik munosabatlari asosida tavsiflashga harakat qilamiz.

**GILOS 1 (forsiy so'z)** mayda, dumaloq shakldagi yarim bo'g'in kattaligicha bo'lgan sariq, pushti, qizil yoki to'q qizil rangli, danakli ho'l meva beruvchi atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik daraxt. Gilos ko'chati. *Gilos ekildi. Gilos gulladi. Nurining hovlisidagi gilolar gulladi.* (Oybek. Tanlangan asarlar)

**turlari:** sariq gilos, qora gilos, fransis, bahor, Roman Oliva, sariq drogona, qora Napoleon, ushti Napoleon, revershon, Toshkent gilos, Samarqand gilos, shiponka, samba, kordia, ziroat, germsdorfskiy, maglevka, kolt, royal teoga, nimba, belliz, earli lori, earli izi, regina, nordvander, Valeriy Chkalov, vosxod, revna, jaydari gilos, payvandi gilos...

**jinsdoshlari:** o'rik, nok, anjir, behi, olxo'ri, olcha, olma, shaftoli, qaroli, limon, apelsin, banan, kivi, mandarin, oluboli...

**birikuvchilari:** ekmoq, qirqmoq, sug'ormoq, payvand qilmoq, chopmoq, butamoq, ozuqa bermoq, dorilamoq; ildizi, shoxi, tanasi, bargi, guli...

**GILOS 2 (forsiy so'z)** mayda, dumaloq shakldagi yarim bo'g'in kattaligicha bo'lgan sariq, pushti, qizil yoki to'q qizil rangli, danakli, nordon ta'mli ho'l meva. *Gilos pishdi. Gilosni yedik. Gilos terildi.*

**turlari:** sariq gilos, qora gilos, fransis, bahor, Roman Oliva, sariq drogona, qora Napoleon, ushti Napoleon, revershon, Toshkent gilos, Samarqand gilos,

*shiponka, samba, kordia, ziroat, germsdorfskiy, maglevka, kolt, royal teoga, nimba, belliz, earli lori, earli izi, regina, nordvander, Valeriy Chkalov, vosxod, revna, jaydari gilos, payvandi gilos...*

**jinsdoshlari:** *o'rik, nok, anjir, behi, olxo'ri, olcha, olma, shaftoli, qaroli, oluboli, limon, apelsin, banan...*

**birikuvchilari:** *pishmoq, yemoq, chirimoq, termoq, danagidan ajratmoq, murabbo qilmoq, kompot qilmoq; soki, suvi, kompoti, murabbosi, navi, sorti, turi, foydasi...*

Agar gilos turlariga e'tibor qaratsak, sodda yoki murakkab tuzilishli nomlarning tarkibi o'zlashma qatlamga mansubligi ko'rinadi. Ammo, unutmaslik kerakki, *bahor, ziroat, shiponka*, shuningdek, *sariq gilos, qora gilos, sariq drogona, Toshkent gilos, Samarqand gilos, jaydari gilos, payvandi gilos* kabi birliklar yangi ma'no kasb etganligi uchun o'z qatlam tarkibiga o'tadi. *Roman Oliva, fransis, revershon, samba, kordia, germsdorfskiy, maglevka, kolt, royal teoga, nimba, belliz, earli lori, earli izi, regina, nordvander, Valeriy Chkalov, vosxod, revna* singari gilos navlari esa o'zlashmalar sifatida; *qora Napoleon, ushti Napoleon* kabilar yarim kalka hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tilimizdagi har bir meva nomi bilan bog'liq alohida yoki seriyali lug'atlar tuzish imkoniyati mavjud. Biz buni uzum navlari (uzumchilik emas) misolida ko'rsatishga harakat qilamiz.

### “2.3.- jadval.” “Uzum” mevasi misolida seriyali lug'atga namuna

Uzum navlari A (10ta)	Uzum navlari B-K (16ta)	Uzum navlari M-O (11ta)	Uzum navlari P-S (18ta)	Uzum navlari T-Ch (20ta)
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aleatiko</li> <li>• Aleksandriya muskati</li> <li>• Aligote</li> <li>• Andijon qora uzumi</li> <li>• Andre</li> <li>• Anzob (uzum navi)</li> <li>• Arevshat</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bastardo</li> <li>• Baxtiyoriy</li> <li>• Bayan shirey</li> <li>• Bihishti</li> <li>• Budeshuri tetri</li> <li>• Buvaki</li> <li>• Daroyi</li> <li>• Dili</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Magarach</li> <li>• Marmar kishmish</li> <li>• Morastel</li> <li>• Murvedr</li> <li>• Muskat uzumi</li> <li>• Narekatsi</li> <li>• Nimrang</li> <li>• Obaki</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Parkent (uzum)</li> <li>• Parvana</li> <li>• Pushti kishmish</li> <li>• Qora kishmish</li> <li>• Qora korinka</li> <li>• Qorajanjal</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tagobi</li> <li>• Tagui</li> <li>• Tanako'zi</li> <li>• Tarnov</li> <li>• Taroni</li> <li>• Tatevi</li> <li>• Tavkveri</li> <li>• Tog'uzum</li> <li>• Toifi</li> <li>• Tuyatish</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Askariy</li> <li>• Asl qora</li> <li>• Asma</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kabutar</li> <li>• Echkiemar</li> <li>• Go‘zal qora</li> <li>• Hasayni</li> <li>• Husayni</li> <li>• Jo‘rauzum</li> <li>• Kattaqo‘r-g‘on (uzum)</li> <li>• Kishmish</li> <li>• Kitob surxagi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Oq kishmish</li> <li>• O‘zbekiston (uzum)</li> <li>• O‘zbekiston muskati</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Rasmi</li> <li>• Risling</li> <li>• Rizamat</li> <li>• Rkatsiteli</li> <li>• Saperavi</li> <li>• Shreder ertagisi</li> <li>• Shuturangur</li> <li>• Siranush</li> <li>• Sohibi</li> <li>• Soyaki</li> <li>• Sug‘diyona kishmishi</li> <li>• Sultoni</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Vassarg‘a</li> <li>• Venger muskati</li> <li>• Vir</li> <li>• Vir kishmishi</li> <li>• Xaliliy</li> <li>• Xishrov kishmishi</li> <li>• Xoja ahroriy</li> <li>• Xurmoy</li> <li>• Charos</li> <li>• Chillaki</li> </ul>
---	--	--	---	---

Agar mazkur jadvalni uzumchilik sohasiga tegishli leksik birliklar bilan davom ettirsak, ko‘rinadiki, tilimizda qanchadan qancha mevacilik bilan bog‘liq so‘zlar mavjud. Umuman olganda, mevacilik terminosferasi nihoyatda boy va rang-barang.

Aytish joizki, o‘zbek tilining mevacilikka oid terminologiyasi alohida mikrotizim sifatida til sistemasida o‘z o‘rniga ega.

### **2.3. Mevacilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining semantik paradigmalari**

Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalarni hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabatlar ana shunday lisoniy munosabatlardir. Quyida mevacilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining semantik paradigmalari xususida so‘z yuritimiz.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semalari aynan bir xil bo‘lib, ifoda semalari farqlanadi. Masalan, *meva* so‘zi ko‘chma ma’noda *samara*, *natija*, *mahsul* kabi atov birliklari bilan sinonimik qatorini tashkil etadi.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir.

Ulardan ayrimlari quyidagilar:


- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud neytral munosabat semalari;
- 2) leksemaning qo'llanish vaqtga munosabatini ko'rsatuvchi semalar: eskirgan, yangi, o'ta yangi, arxaik, tarixiy;
- 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi semalar: shevaga xos, so'zlashuvga xos, kitobiy, ko'tarinkilik va hokazo<sup>90</sup>.

Yuqorida keltirgan ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema hisoblanadi.


O'zbek tilshunosligida olimlar semema va tushuncha munosabatini turlicha talqin qiladilar. Masalan, ayrimlar semema, ko'pincha, ongimizdagi ma'lum bir tushuncha va tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. Tushuncha ong, mantiq birligi, semema esa, tilga, leksemaga xos birlikdir. Juda ko'p hollarda bir semema bir necha tushunchani o'z ichiga oladi. Jumladan, *o'rik* leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi:

- a) yangi, ho'l mevaning bir turi (zardoli);
- b) shu mevaning quritilgani (turshak, g'o'lin);
- d) shu mevani beradigan daraxt (o'rik daraxti).

Har qanday lisoniy birlik serqirra mohiyatli bo'lib, bu uning kamida ikki paradigmaga kirishini ta'minlaydi. Leksema birdan ortiq tushunchani qamrab olgan ekan, bunda uning serqirraligi yanada "kuchayadi". Jumladan, *o'rik* leksemasi o'zida bir necha tushunchani saqlaydi, bu bilan u kamida ikki lug'aviy paradigmaga kiradi:



<sup>90</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Germaniya: Globe Edit international Publishing Group. – 2020.–555 b.



## “2.1.-rasm.” “O`rik ” mevasi misolida lug`aviy paradigma

Birinchi paradigmada *o`rik* leksemasi bir denotati asosida meva va boshqa bir denotati asosida esa daraxt nomlarini ifodalovchi ot-leksemalar bilan uyadoshlik qatori hosil qilsa, ikkinchi paradigmada bir ma`nosi bilan *zardoli*, ikkinchi ma`nosi asosida *turshak, g`o`lin* leksemasi bilan ma`nodoshlik munosabatida bo`ladi.

Aslida, har bir leksema til egasining tafakkurida muayyan qurshovlar asosida joylashadi va shu asosda assotsiativlik hosil qiladi.

Leksema tarkibida birdan ortiq tushuncha mujassamlashganda leksema turli sintagmatik qurshovlarga kiradi. Masalan, yuqorida tilga olingan *o`rik* leksemasida ikkita (“meva”, “daraxt”) tushunchalari mavjud bo`lib, u har bir ifodalangan tushunchasi asosida ham boshqa-boshqa, ham umumiy qurshovlarga ega bo`lishi mumkin. Mevachilik leksikasini mevalarning tuzilishi, rangi, ayrim narsalarga o`xshashi va hayotiy shakllariga ko`ra bir necha turlarga bo`linishi (tur, nav, xil, sort) va ularni diagrammada yadro hamda periferiya ko`rinishlarini kuzatish mumkin.

*O`rik* leksemasi semantik maydon yadrosini tashkil etganda unga yaqin birinchi va ikkinchi guruhga ularning ko`proq qo`llanish xususiyatini inobatga olib “*ho`l meva*” amda “*daraxt*” ma`nolarini kiritish o`rinli. Va shu guruh “kuchli guruh” deb, uchinchi guruhga kiruvchi leksemalarni semantik maydon periferiyasini tashkil qilib, ularning kamroq kelishiga qarab “kuchsiz guruh” deb olib, alohida o`rganish maqsadga muvofiq .





**“2.2-rasm.” O‘rik leksemasining umumiy qurshovi**

Fikrimizcha, meva va mevachilik leksemalarini tahlil qilish uch fan – tilshunoslik, falsafa va botanika doirasida bo‘lishi lozim. Falsafiy nuqtayi nazardan, meva deganda uning tabiiy turlar, ya’ni odamlar tomonidan biror bir vazifani bajarish uchun emas, balki tabiiy ravishda guruhlangan birliklar majmuyi tushuniladi. Shuning uchun mevalar – tabiiy turlarni bildiruvchi atamalar tabiatda haqiqatda mavjud bo‘lgan xususiyatlarni aks ettiradi. Bu jihatdan meva nomlari antroponim va toponimlarga yaqin bo‘lib, ular real odamlar va real obyektlarni ham ifodalaydi. Ammo bu leksik guruhlaridan farqli o‘laroq, meva nomlari ma’lum odamlar va alohida joylarni emas, balki ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan daraxt, buta va o‘simlik hosillarining butun olamini bildiradi.

Meva nomlarini, umuman, mevachilik leksekasini, omma tilidagi nomlarini xalq milliy madaniyati, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rgangan ma’qul. Zero, meva nomlarini “tasniflash usuli ayni bir madaniyat belgilari haqida deyarli mukammal tasavvur bera oladi”<sup>91</sup>.

Insonning tabiatni o‘rganishi, ozuqabop mevalarning shifobaxshlik xususiyatlarini kashf qilishi va natijani fanga tatbiqi fitonimiya sohasining rivojlantirishiga sabab bo‘ldi. Bu fanning yaralishida farmakofitonimiya

<sup>91</sup> Vilayleck E. Ethnobotanique et médecine traditionnelle créoles. Paris, 2002.

sohasining o‘rni muhim hisoblanadi. Muhimi, meva nomlari va mevachilik leksikasiga leksikografik nuqtayi nazardan yondashish ham o‘zbek tilining so‘z xazinasiga qo‘shilgan hissa bo‘ladi.

Mevachilik nomlarini ifodalovchi atov birliklarining semantik paradigmalari tahlilini davom ettiramiz. Shu o‘rinda anor leksemasiga murojaat etaylik.

**“2.4.- jadval.” “Anor” lekmasida atov birliklarining semantik paradigmalari**

<b>ANOR leksemasi</b>				
<i>daraxt semasi</i>	<i>meva semasi</i>	<i>anor mevasi mahsulotlari</i>	<i>anorning turlari</i>	<i>anorning xususiyatlari</i>
<i>olma</i>	<i>olma</i>	<i>sharbat</i>	<i>tuya tishi</i>	<i>shirin</i>
<i>nok</i>	<i>nok</i>	<i>kompot</i>	<i>oq dona</i>	<i>nordon</i>
<i>shaftoli</i>	<i>shaftoli</i>	<i>murabbo</i>	<i>qora dona</i>	<i>achchiq</i>
<i>olcha</i>	<i>olcha</i>	<i>mors</i>	<i>novoti</i>	<i>taxir</i>
<i>olxo‘ri</i>	<i>olxo‘ri</i>	<i>kvas</i>	<i>Quva anori</i>	<i>burushtiruvchi</i>
<i>anjir</i>	<i>anjir</i>		<i>O‘urbin anori</i>	<i>davolavchi</i>
<i>olmurut</i>	<i>olmurut</i>		<i>Romitan anori</i>	<i>nordon-chuchuk</i>
<i>limon</i>	<i>limon</i>		<i>maydamarjon</i>	<i>qorapo‘st</i>
<i>uzum</i>	<i>uzum</i>		<i>qayum anor</i>	
–	<i>maymunjon</i>		<i>tuyabosh</i>	
–	<i>qulupnay</i>		<i>qazoqi anor</i>	

*Anorni kesdik* sintaktik qurshovida *anor* qaysi tushuncha, denotatni anglatayotganligi muayyanlashmaydi. Ammo *anorni ekdik*, *anorni yedik* sintagmatik qurshovlarida atalayotgan denotat farqlanayotganligi sezilib turadi (birinchi qurshovda “daraxt”, ikkinchisida “ho‘l meva”). Ko‘rinadiki, leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda har bir tushunchaga mos sintagmatik qurshov mavjudligi ham anglashiladi.

E’tibor bersak, birgina anor leksemasi qurshovida yuzdan ortiq so‘z tafakkurimizda jonlanadi.

Mevachilik nomlarini tizim sifatida tadqiq etishning turli xil yondashishlari mavjud bo‘lib, mazkur bobda ularni quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratib tahlil qilishni ham lozim deb topdik:

**“2.4.- jadval.”Meva nomlarining leksik- semantik xususiyatlari**

	<b>Leksik-semantik guruhlar</b>	<b>Meva nomlari</b>
1	<i>daraxt hosili bo'lgan meva nomlari</i>	<i>olma, anjir, behi, bodom, yong'oz, jiyda, limon, olcha, oqtut, shotut, tok, do'lana, chilonjiyda, nok, ko'ksulton, olxo'ri...</i>
2	<i>buta hosili bo'lgan meva nomlari</i>	<i>anor, pista...</i>
3	<i>yarim buta hosili bo'lgan meva nomlari</i>	<i>xo'jag'at (malina), chernika, maymunjon, na'matak, qora smorodina...</i>
4	<i>o'simlik hosili bo'lgan meva nomlari</i>	<i>yeryong'oz, ituzum, kungaboqar, qulupnay (yertut)...</i>

Meva nomlarining leksik xususiyatlarini o'rganish muhim sanaladiki, bu lingvomadaniyatning ajralmas bo'lagidir. Ma'lumki, lingvomadaniyat – xalq madaniyatining tilda o'rnashib, unda aks etadigan ko'rinishlarini tadqiq etadi, tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi, olamni milliy til orqali ko'rish, til o'ziga xos milliy mentalitetning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat til madaniyatning ahamiyatli bir bo'lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Zero, lingvomadaniyat tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishgan qismini o'rganadigan sohadir.

Lingvomadaniyat o'z o'rnida etnobotanika bilan bog'lanadi. Etnobotanika – odamlarning yashil olam bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan bo'lib, etnobiologiyaning bir tarmog'i sifatida uning asosiy vazifasi – o't-o'lanlar, butalar, daraxtlar va ularning hosili(mevasi)ni insoniyat jamiyatida qanday ishlatilishini va qanday qabul qilinishini, shu jumladan, oziq-ovqat, dori-darmon, bashorat qilish, kosmetika, to'qimalarni bo'yash, qurilish, asbob-uskunalar, kiyim-kechak, marosimlar va boshqa sohalar uchun qay darajada muhimligini o'rganadi. (Etnobotanika atamasi 1895-yilda amerikalik botanik J.Xarsberger tomonidan

fanga kiritilgan. Dunyo olimlari orasida zamonaviy etnobotanikaning asoschisi sifatida Richard Evans Shul's tilga olinadi<sup>92</sup>.)

Meva nomlarini **hajmiga** (*tuyatishi, maydamarjon, qayum anor, tuyabosh, qazoqi anor*); **rangiga** (*oqdona, qoradona, qizildona, naboti anor*); **ma'za-ta'miga** (*shirin anor, nordon anor, taxir anor, xo'raki, achchiqdona*); **yetishtirilgan o'rniga** (*Qo'rg'on anori, Romitan anori, Qiziltepa anori, Denov anori*), **ishlatilish holatiga** (*xo'raki, sharbati, ulfi*) qarab ham tasniflash mumkin.

#### “2.5.- jadval.”Meva nomlarining leksik- semantik guruhlari

MEVA NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARI				
<b>shakl-hajmiga ko'ra</b> <i>tuyatishi, maydamarjon, qayum anor, tuyabosh, qazoqi anor, olmacha, tuya gilos, oval nok</i>	<b>rang-tusiga ko'ra</b> <i>oqdona, qoradona, qizildona, naboti anor, sariq olma, ko'k olma, sariq nok</i>	<b>ma'za-ta'miga ko'ra</b> <i>shirin anor, nordon anor, taxir anor, achchiqdona, shirin-nordon (olma)</i>	<b>yetishtirish o'rniga ko'ra</b> <i>Qo'rg'on anori, Quva anori, Denov anori, Toshkent barodivkasi</i>	<b>iste'mol holatiga ko'ra</b> <i>xo'raki, sharbati, ulfi, sirkabop (anor), vinobop (uzum)</i>

Shuningdek, mazkur siralarni birgina anor mevasi bilan bog'liq *mayxush (nordon-chuchuk) anor, tursh (achchiq) anor, shirin anor, siyopo'st (qorapo'st) anor, bedona (urug'siz) anor, qandiy (qandak) anor, zabistoniy anori, rummonu amlasiy, shirshakar* kabi misollar bilan ham to'ldirish mumkin.

Murakkab tuzilishli meva nomlarini tarkiban quyidagi jadvalga joylashtirish ham mumkin.

#### “2.6.-jadval.”Murakkab tuzilishli meva nomlarining morfo-semantik guruhlari

<sup>92</sup> Горбовская С.Г. Флорообраз во французской литературе XIX века. – Санкт-Петербург: Издательство 3, 2017.– 276 с.

## Murakkab tuzilishli meva nomlarining morfo-semantik guruhlari

1	ot+ot	<p>nok+payvand (olma), kelin+barmoq (uzum), ketmon+sopi (uzum), zambil+bosh (uzum), marmar+kishmish (uzum), O‘zbekiston+muskati (uzum), quyosh+tuxumi (mango), Rim+rubini (uzum), turkman+uzum, oltin+tavallud (shaftoli)...</p>	<p><i><b>Nokpayvand</b> olma juda mazali bo‘ladi, ammo uning sokini uzoq saqlash qiyin.;</i> <i>Shohimardon daryosining hayot-baxsh irmoqlaridan to‘yinib suv ichgan <b>kelinbarmoq</b>-larning shirinligi tilni yoradi.;</i> <i>Uzumning <b>zambilbosh</b> navi Oltiariqda yetishtiriladi.;</i> <i>Elimizning rizqini yaratuvchi mirishkorlarda uzumning «Husayni», «Rizamat ota», «Kelin barmoq», «<b>Marmar-kishmish</b>», singari navlarini parvarishlash bo‘yicha katta hayotiy tajriba bor...</i></p>
2	sifat+ot	<p>achchiq+danak (bodom), oq+husayni (uzum), qora+kishmish (uzum), oq+kishmish (uzum), qora+janjal (uzum), pushti+Parkent (uzum), yovvoyi+nok, yovvoyi+olma, xo‘raki+uzum, vinobop+uzum, mayizbop+uzum, qizil+nashvati, turkmani+uzum, super+lola (shaftoli), qora+po‘st (anor)...</p>	<p><i>Qadimda bodomning <b>achchiqdanak</b> turidan bosh og‘rig‘ini davolashda foydalanishgan.;</i> <i><b>Oqhusayni, qora-kishmish, oqkishmish, qorajanjal</b> –yoz dasturxonining ko‘rki.;</i> <i>Uzumning “<b>Pushti Parkent</b>” navi ertapishar nav sanaladi.;</i> <i><b>Yovvoyinok</b>ning ta‘mida ozgina taxirlik bor...</i> <i>Bizda <b>vinobop uzum</b> navlari alohida yetishtiriladi.;</i> <i>Yurtimizda “<b>Superlola</b>” shaftoli mevasi juda keng tarqalgan.;</i></p>

3	ot+sifat	Andijon+qora (uzum), kishmish+botir (uzum), o'rmon+go'zali (nok), Rishton+luchchagi (shaftoli)...	<i>“Andijonqora” dan yemabsiz – bu dunyoga kelmabsiz.;</i> <i>Uzumning <b>kishmishbotir</b> navini rishtonlik bog'bonlar yetishtirishadi.</i>
4	sifat+sifat	qora+go'zal (uzum), qirmizi+go'zal (uzum), oq+luchchak (shaftoli), qora+luchchak (shaftoli),	<i>Quyosh nurida so'rilarda “Qorago'zal”, “Qirmizigo'zal”- lar tovlanib ko'rinadi.;</i> <i>Tuksiz navlar ichida eng yuqori hosildorlikni “Qoraluchchak” tashkil etadi.</i>
5	son+ot	ming+dona (anor), qo'sh+danak (o'rik), birinchi+Elbert (shaftoli), ikkinchi+Elbert (shaftoli).	<i>O'rik olsangiz, <b>qo'shdanak</b> ham bor.</i>

Murakkab tuzilishli meva nomlarining morfo-semantik guruhlarida ot+ot tuzilishli birliklar ko'p uchraydi. ot+ot tuzilishli meva nomlarining o'zini ham har ikkala qismi turdosh ot bo'lgan (masalan, *kelin+barmoq*, *zamil+bosh*, *nok+payvand* kabi) hamda birinchi qismi atoqli ot, ikkinchi qismi esa turdosh ot bo'lgan (masalan, *O'zbekiston+muskati*, *Quva+anori*, *Toshkent+olmasi..*) meva nomlariga ajratish mumkin.

Shuningdek, murakkab tuzilishli meva nomlarining aksariyati sintaktik jihatdan moslasuvli yoki bitishuvli so'z birikmalaridan o'sib chiqqanligi ma'lum bo'ladi. Masalan,

moslashuvli birikma asosida yuzaga kelgan meva nomlari: *Quva+anori*, *Toshkent+olmasi*, *O'zbekiston+muskati*, *Andijon+qora* (uzum), *kishmish+botir* (uzum), *o'rmon+go'zali* (nok), *Rishton+luchchagi* (shaftoli), *ketmon+sopi* (uzum), *o'rmon smorodinas...*

bitishuvli birikma asosida yuzaga kelgan meva nomlari: *ming+dona* (anor), *qo'sh+danak* (o'rik), *birinchi+Elbert* (shaftoli), *ikkinchi+Elbert* (shaftoli),

*qora+go'zal* (uzum), *qirmizi+go'zal* (uzum), *oq+luchchak* (shaftoli), *qora+luchchak* (shaftoli), *achchiq+danak* (bodom), *oq+husayni* (uzum), *qora+kishmish* (uzum), *oq+kishmish* (uzum), *qora+janjal* (uzum), *pushti+Parkent* (uzum), *yovvoyi+nok* (nok), *xo'raki+uzum*, *vinobop+uzum*, *mayizbop+uzum*, *qizil+nashvati*, *turkmani+uzum*, *qora smorodina*, *kuzgi qulupnay...*

Mevachilik leksikasida esa boshqaruvli birliklar ham keng tarqalgan. Masalan, *olmani dorilash*, *gilosni changlantirish*, *mevali daraxtga ishlov berish*, *shaftolini butash*, *tokni butash*, *iqlimga mos nav yaratish*, *olma va nokni chatishtirish*, *payvandtag tayyorlash*, *mevani zararkunandalardan himoya qilish*, *meva pashshasiga qarshi kurashmoq* va h.

Aytish joizki, mevachilik leksikasida soʻz yasalishi ancha mahsuldor. Oʻzbek tilshunosligining mevachilik leksikasida soʻz yasalishi masalalari (affiksatsiya usuli bilan soʻz yasalishi, kompozitsiya usuli bilan soʻz yasalishi va leksik-semantik usulda soʻz yasalishi) alohida tadqiq manbai boʻlishi zarur. (Zero, oʻzbek tili mevachilik leksikasining shakllanishi va taraqqiyotida affiksatsiya usuli bilan soʻz yasalishining oʻrni beqiyos. Tahlillarimiz shuni koʻrsatdiki, bu usul bilan soʻz yasalishi mevachilik leksikasida eng faol va mahsuldor hisoblanadi. Bu soha leksikasidagi soʻzlarga turli soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida ot, sifat, feʼl turkumiga doir soʻzlar yasalishi kuzatildi. Chunonchi, **-chilik**, **-bon**, **-chi**, **-don**, **-lik**, **-zor**, **-vchi**, **-uvchi**, **-shunos** (mevachilik, *bogʻbon*, *changchi*, *changdon*, *oʻgʻitlik*, *hosildorlik*, *mevazor*, *olmazor*, *bodomzor*, *olchazor*, *navchi*, *parvarishlovchi*, *mevashunos*, *navshunos...*) kabi qoʻshimchalar bilan ot; **-li**, **-siz**, **ser-**, **-dor**, **-dosh**, **-xoʻr** kabilar bilan sifatlar (*mevali*, *olmali*, *gilosli*, *mevasiz*, *banansiz*, *serhosil*, *sersuv* (*olma*), *shirador*, *urugʻdosh*, *mevaxoʻr*, *nokxoʻr*, *olmaxoʻr...*); **-la**, **-lan**, **-lat** (*oʻgʻitlamoq*, *changlanmoq*, *changlatmoq...*) va shu kabi qoʻshimchalarning qoʻshilishidan feʼllar yasalgan.

Mevachilik leksikasida kompozitsiya usuli bilan soʻz yasalgan qoʻshma va murakkab soʻzlarni aniqlash, uning oʻziga xos yasalish xususiyatlarini belgilash bu soha lugʻaviy fondining boyish manbalarini bilish uchun muhim.)

Shuningdek, ijtimoiy hayotda prototipi bor shaxs nomlariga qo'yilgan meva nomlari yoki ijtimoiy hayotda prototipi bo'lmagan shaxs nomlariga qo'yilgan meva nomlari, joy nomlari bilan ataluvchi meva nomlarini ham alohida guruh sifatida ajratish mumkin. Odatda,

a) ijtimoiy hayotda prototipi bor shaxs nomlariga qo'yilgan meva nomlarining o'zi ham yo o'sha navni yaratgan seliksioner nomiga qo'yiladi yoki mashhur shaxslar nomi bilan ataladi. Masalan,

1) muayyan navni yaratgan seliksioner nomiga qo'yilgan meva nomlari: *Roman Oliva* (gilos), *Earli Lori* (gilos), *Earli Izi* (gilos), *Korjinskiy noki* (olmurut), *Oleve de Serr noki*, *Vilyame* (nok), *Starkrimson* (nok), *Renet Simerenko* (olma), *Bayan Shirey* (uzum)...

2) mashhur shaxslar nomi bilan atalgan meva nomlari: *Xoja Ahroriy* (uzum), *Valeriy Chkalov* (gilos), *qora Napoleon* (gilos), *ushti Napoleon* (gilos), *Jonatan* (olma), *Mantuaner* (olma), *Starkrimson* (olma), *Skarlet* (olma), *Parmen* (olma), *Vaynsep* (olma) va h.

b) joy nomlari bilan ataluvchi meva nomlari: *Andijon qora uzumi*, *Kattaqo'rg'on* (uzum), *Kitob surxagi* (uzum), *O'zbekiston* (uzum), *O'zbekiston muskati* (uzum), *Parkent* (uzum), *Sug'diyona kishmishi* (uzum), *Qo'rg'on anori*, *Romitan anori*, *Qiziltepa anori*, *Denov anori*, *Toshkent boravinkasi* (olma), *Toshkent gilos*, *Samarqand gilos*, *Xazorasp olma* va h.

Muayyan navni yaratgan seliksioner nomiga qo'yilgan meva nomlari ichida yevropalik sileksionerlarning nomlari ko'proq uchraydi. Joy nomlari bilan ataluvchi meva nomlari ichida esa o'zbekcha nomlarga ko'proq duch keldik.

Meva nomlarini yana quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratish mumkin:

**“2.6.-jadval.”Danakli va urug'li meva nomlari**

Danakli va urug'li meva nomlari	
Danakli meva nomlari	Urug'li meva nomlari
<i>Olcha, tog'olcha, olxo'ri, qaroli, o'rik, gilos, shaftoli,</i>	<i>Olma, behi, nok, anjir, qulupnay, qora smorodina,</i>



<i>xurmo, xurma, jiya, chilonjiya...</i>	<i>xo'jag'at (malina), limon, apelsin, mandarin...</i>
--	--

Shuningdek,

### “2.7.-jadval.” Mahalliy va sitrus mevalar

Mahalliy va sitrus mevalar		
Ho'l meva nomlari	Quruq meva nomlari	Sitrus meva nomlari
<i>olma, tog'olcha, olcha, uzum, olxo'ri, qaroli, o'rik, gilos, shaftoli, xurmo, xurma, behi, nok, anjir, qulupnay, qora smorodina, xo'jag'at (malina)...</i>	<i>yong'oq, bodom, pista, findyuk, jiya, chilonjiya...</i>	<i>limon, apelsin, mandarin, banan, ananas, kivi, avakado, mango...</i>

Bundan 15-20 yillar ilgari sitrus mevalar, asosan, chetdan eksport mahsuloti sifatida keltirilgan bo'lsa, hozirda ularning aksariyati, masalan, *limon, apelsin, mandarin, banan* kabilar O'zbekistonda ham yetishtirilmoqda va tilimizda ular bilan bog'liq *limonchi, limonfurush; apelsinfurush, mandarinfurush, bananfurush* kabi shaxs otlari; *limonzor, apelsinzor, mandarinzor, bananzor* kabi limonli (choy), *limonsiz* (salat); *apelsinli* (tort), *apelsinsiz* (biskvet), *mandarinli* (murabbo), *mandarinsiz* (dasturxon), *bananli* (dala), *banansiz* (dissert) kabi sifatlar; *limondaraxt, apelsinsavdo, mandarinnarx, bananrang* kabi qo'shma so'zlar ham ishlatilmoqda.

Ba'zi meva nomlari kishi ismlariga aylangan holatlarni ham kuzatamiz. Masalan,

**Anor(a)** – bu ism o'zbeklarda qiz bolalarga ham, o'g'il farzandlarga ham (odatda, “o'zidan ko'payib serfarzand bo'lsin” degan ma'noda yoki tug'ilganda

yonoqchalari qip-qizil bo‘lib tug‘ilgan chaqaloqlarga yoki badanida qizil dog‘i bo‘lgan bolalarga) *Anora, Anorgul, Anorbibi, Anorbek, Anorboy, Anorqul* tarzida qo‘yiladi. Masalan, *Sunnatilla Anorboyev asarlarini sevib o‘qiyman.*;

*...Tur Savra! Havlig‘a olov yoqib childirmani qizit! Anorgul, sen dutoringni ol! Kumushbibi, siz uncha xayol surmang, kulib o‘turing.* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. 55-b.)

*Falakmi kajraftor, turmishmi bemaza, har holda Anvarlarning tole‘i yana pastlik qildi. Bir kun Anorbibi biravnikida yumish qila turib to‘sindan og‘rib goldi, bir soatning ichida tilidan ham ayrildi.* (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. 23-b.)

**Bodom** – bu ism o‘zbeklarda qiz bolalarga *Bodomgul, Bodomoy, Bodomjon* shakllarida qo‘yiladi. Masalan, *Tili chuchuk Bodom bikach beka bo‘ldi, Beka qo‘lin kim o‘psa, shu erka bo‘ldi. Nima zulm bo‘lsa, sho‘rlik elga bo‘ldi.* “Alpomish” dostonidan).

Ba‘zan xotin-qizlarga qo‘yilgan *Olma, Olmajon, Olmabibi* ismlariga ham duch kelamiz.

O‘zbek qizlariga qo‘yiladigan *Charos, Farangiz, Nargiz, Bahor, Nafis, Ziroat*; yigitlarda qo‘yiladigan *Botir, Qayum, Sulton, Xalil* kabi turdosh ot hamda sifatlardan o‘sib chiqqan ismlar meva turlarining nomlarida uchrashini kuzatdik.

Mevachilik leksikasida yasalgan *mevazor, olmazor, olchazor, bodomzor* so‘zlari allaqachon joy nomlariga aylanib bo‘lgan. (Internet tizimidan birgina mevazor so‘zini izlasangiz, 0,34 sekundda shu so‘z bilan bog‘liq 94 mingta ma‘lumot topib beradi. Ma‘lumotlar ichida Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi “Mevazor” mahallasi, shuningdek, “Mevazor” jome masjidi, “Mevazor” savdo majmuasi, “Mevazor” kafesi, “Mevazor” bekati, “Mevazor” dam olish maskani kabi qator-qator mikrotoponimlarga duch kelamiz va h.)

Umuman olganda, jahon tilshunosligida ham mevashunoslik leksikasi va terminologiyasi, ya‘ni fitonimik leksika, fitonimlar, xususan, meva va mevachilikka aloqador turdosh va atoqli otlar majmuyi, ularning til va nutqda yashash omili sifatida muhim leksik-semantik, so‘z yasalishi, struktur-grammatik,

badiiy matndagi lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlarining ilmiy tadqiqi hamisha tadqiqotchilarning e'tiborida bo'lib kelgan. Shu bois tilshunoslikning leksikologiya hamda terminologiya sohasi rivojlangan va yuksak takomilga erishgan. Bugungi kunda jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, munosabati masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Atrof-muhitni yashil makonga aylantirish va insonning asosiy ozuqasi bo'lgan meva navlarini yetishtirish, mevazorlar barpo etish, el dasturxoniga sarxil mevalar yetishtirib berish bilan shug'ullanadigan bog'bonlarning so'zlashuv nutqida qo'llanadigan, yozma manbalarda saqlanib qolgan qadimiy va zamonaviy leksik birliklarni o'rganish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida bugungi globallashuv davri va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-axloqiy o'zgarishlar, ilm-fan taraqqiyoti, fanlar integratsiyasi, qishloq xo'jaligi, xususan, nabotot olamining mevachilik sohasidagi islohotlar bu soha lisoniy tizimini antroposentrik tamoyillar asosida, xalqlarning o'zaro til va madaniyatlararo aloqalar hamkorligida o'rganish, o'simlikshunoslikning, xususan, meva va mevachilikka aloqador leksik birliklarni ham zamonaviy, ya'ni pragmatik, sotsiolingvistik, kommunikativ, leksik-semantik, lingvomadaniy, lingvopoetik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

“Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>93</sup>. Shunga ko'ra, o'zbek tilining mevachilik leksikasini yaxlit tizim sifatida o'rganish, bu soha leksikasining o'rganilish tarixi, tasnifi, leksik-semantik, lug'aviy-ma'naviy guruhleri, struktur-grammatik, leksik-semantik jihatdan lisoniy xususiyatlarini tadqiq etishga harakat qildik.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

1. Mevachilik nomlari ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari o'zbek milliy madaniyati, ma'naviyati, tili tarixiy taraqqiyotining

---

<sup>93</sup> Она тилимиз ривожини таъминлаш – асосий мақсадимиз // Янги Ўзбекистон. 2020, 12 сентябрь.– 175-сон.

ilg'or tendensiyalari bilan bog'liq ravishda tarkib topgan. Shu boisdan bu tizimga kiruvchi leksemalar o'z va o'zlashma qatlamga oid mikrosistemalardan iborat.

2. Mevachilik nomlari ifodalovchi atov birliklari murakkab shakliy tuzilishga ega. Boshqa ma'noviy tizimlarda so'zlar shunchaki sodda va murakkab birliklarga ajratilsa, bu terminologik tizimda atov birliklari so'z va so'z birikmasi, murakkab birikmali birliklarga bo'linadi.

3. Meva nomlarini ifodalovchi atov birliklari sirasida shakliy va ma'noviy derivatsiyaga uchragan lisoniy va nutqiy birliklar juda ko'p bo'lib, bu ma'noviy o'zgarishlar orasida yangi ma'no qabul qilish, ma'no ixtisoslashuvi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, leksemalashuv, leksikalizatsiya hodisalari ko'plab uchraydi.

### III BOB. MEVACHILIK LEKSIKASIGA OID AYRIM BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

#### 3.1. O‘zbek tilida mevachilik leksikasi bilan bog‘liq frazeologik birliklar hamda maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari

Milliy qadriyat va tarixni ko‘rsatuvchi frazeologik birliklar har doim hamma xalqlar tomonidan qadrlangan. Bunday frazeologik birliklarda xalqning mehnat faoliyati, yashash sharoiti va xalq madaniyati o‘z aksini topgan.

Frazeologizmlar “ikki yoki undan ko‘p tarkibiy qismlardan tashkil topgan, ularning qiymatlari yig‘indisi teng bo‘lmagan barqaror lisoniy birliklar”dir. Masalan, rus tilidagi “спустя рукава” iborasini so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi, balki “sifatsiz bajarilgan ish” ma’nosida qo‘llanishini anglash lozim. Xususan, ingliz tilida “to look forward” frazeologik birligi “kutish” ma’nosida qo‘llanadi. Demak, dunyo tillarida mavjud iboralar makon va zamon nuqtayi nazaridan muayyan o‘xshashlik va farqlarga egadir. Frazeologiya – bu “hozirgi holati va tarixiy rivojlanishida umumlashgan yaxlit ma’noga ega barqaror obrazli so‘z birikmalarini o‘rganadigan tilshunoslik sohasidir. Frazeologiyaning predmeti frazeologizmlar, frazeologik oborotlar va frazeologik birliklardir”<sup>94</sup>.

Jahon tilshunosligida N.M.Shanskiy, V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, V.L.Arhangelskiy, Y.A.Gvozdarev, S.Royzenzon, Y.Avaliani, A.Bushuy kabi tilshunoslar frazeologizmlarning semantik hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Ayrim tilshunoslar Z.G.Uraksin, G.A.Bayramov, F.A.G‘aniyev, G.X.Axunzyanov, L.K.Bayramova, M.F.Chernov frazeologik birlik sifatida qaraydi.

XX asrning 60-80-yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan ingliz adabiyotida ham frazeologiya sohasiga bo‘lgan qiziqish tez sur‘atlar bilan o‘sdi. G‘arb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar frazeologiyaga bag‘ishlangan alohida asar yo‘q edi. Umuman “frazeologiya” termini ilk marotaba Charl Balli tomonidan “Precis de stylistique” asarida qo‘llanilganligini bilamiz. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi

<sup>94</sup> Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фраzeология и паремология. – М.: Наука, 2013. –32 с.

Sharl Balli hisoblanadi. U o'zining "Стилистика очерки" (1905) va "Fransuz stilistikasi"(1909) nomli asarlarida so'z birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan<sup>95</sup>.

Frazeologiya tilning umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistemadir. Frazeologiyaning lingvistik vosita sifatidagi vazifalari muayyan tilning frazeologik fondini har tomonlama o'rganishni o'z ichiga oladi. Uni o'rganishning muhim jihatlari: frazeologik birliklarning barqarorligi, frazeologiyaning izchilligi va frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, ularning kelib chiqishi va asosiy vazifalaridir.

Tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, jahon tilshunosligida ham mazkur lisoniy birlik turli aspektlarda batafsil tadqiq etilgan. Frazeologiya nazariyasi rivojiga E.Polivanov, L.Bulaxovskiy, Sh.Balli, V.Vinogradov katta hissa qo'shgan<sup>96</sup>. Sh.Balli frazeologik semantikani ularning mutlaq belgisi, deb ta'kidlab, birikmalarning leksik-grammatik, semantik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ta'kidlagan. V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, O.S.Axmanova, V.L.Arhangelskiy, Y.A.Gvozdarev, A.G.Nazaryan, S.Royzenzon, Y.Avaliani kabi rus tilshunoslari frazeologizmlarni semantik hodisa ekanligini e'tirof etadi.

Xullas, jahon tilshunosligida uzoq yillar davomida frazeologik birliklar maqollar, idiomatik birliklar bilan aralash tarzda o'rganildi.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni ilmiy-amaliy tadqiq etish bo'yicha qator doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, qator ilmiy maqolalar e'lon qilindi, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar nashr etildi, frazeologik lug'atlar yaratildi.

Sh. Rahmatullayevning «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari», B.Yo'ldoshevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari", A.Mamatovning "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari", M.Ro'ziqulovning "O'zbek tilida

---

<sup>95</sup> Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.-320 p.

<sup>96</sup> Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.

idiomalar”, A.Isayevning “Соматические фразеологизмы узбекского языка”, Q.Hakimovning “O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi”, Sh. Usmonovning «O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar», Sh.Iskandarovning «O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni)», K.Bozorboyevning «O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari», Sh.H.Abdullayevning «Tarjima asarlarida frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o‘zbekcha tarjimasi asosida)», Sh.Almamatovning «O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili», M.Vafoyevaning «O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural semantik tahlili», U.Rashidovning «O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida)» kabi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir.

A.Hojiyev o‘zining “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da frazeologik birliklarga “tuzilishi jihatdan so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq prosessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik, turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi” degan ta’rifni beradi<sup>97</sup>.

Olim Sh.Rahmatullayev – ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no anglatadigan lug‘aviy birliklarni frazeologik obyekt deb e’tirof etadi<sup>98</sup>. A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev kabi tilshunoslar frazeologizmlarni keng tushunib, birikmali, turg‘un, obrazli ifodalarni frazeologizmlar sifatida tadqiq qiladilar<sup>99</sup>.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi xususiyatini o‘rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdoshligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo‘llanuvchi so‘zlar va

<sup>97</sup> Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985.

<sup>98</sup> Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент, 1970. – 56 б.

<sup>99</sup> Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанл. докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.

ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va b. Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Unda ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilma-xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur semantik, grammatik, vazifaviy uslubiy asoslarga ko'ra tasnif etiladi. Struktur semantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi<sup>100</sup>.

R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek tili" kitobida frazeologiya masalasiga o'zga xos tarzda yondashilgan. Ya'ni frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir, degan fikrga kelinadi. Shuningdek, frazeologizmning semantik strukturasi haqida so'z yuritilib, frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo'lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iboratligi, frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qilishi, ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'no ekanligi, frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm (*burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq; tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha*) denotativ ma'noga ega bo'lsa, *turgan gap, shunga qaramay* kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi<sup>101</sup>.

Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Bu holatni

<sup>100</sup> Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 344 с.

<sup>101</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durдона, 2021.–555 b.



*yoqasini ushlamoq* frazeologizmi bilan *hayron bo'lmoq* leksemasining ma'nolarini qiyoslash orqali ham anglash mumkin.

Frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak bo'ladi. Chunki aynan u xalqning tarixini, madaniyati va o'ziga xosligini ko'rsata oladi. Frazeologizmlar asosan millat an'analari-yu, urf-odatlarini, o'zida mujassamlashtiradi. Ammo ingliz tili frazeologiyasida milliy an'analarni ifodalab keluvchi frazeologik birliklar bilan bir qatorda internatsional frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Ba'zi frazeologik birliklarda arxaik elementlar ham saqlanib qolgan.

Frazeologizmlarni nutqni bezovchi vosita sifatida qarash mohiyatga biryoqlama yonashuv bo'lib, ular ham boshqa til birliklari kabi yuqori informativ xususiyatga ega, tilda nominativ va kommunikativ funksiya bajaruvchi birliklardir. Frazeologizmlar universal til vositalari bo'lib, ularsiz til mavjud emas.

Inson tashqi ko'rinishi va xususiyatini ko'rsatish maqsadida yoki biror voqelik ifodasi sifatida har xil mevalarning nomlari xalq tomonidan qo'llanilib kelinadi. Masalan, o'zbek tilida "ikki yuzi misli qip-qizil olma" va b.

Quyida o'zbek tilida meva nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. Jumladan,

***Anjir qilib tashlamoq*** (ibora) – *ezg'ilamoq, toptamoq* ma'nolarida qo'llaniladi. – *Kesakpolvon uchun bu ishlar cho't emas, birpasda hammasini anjir qilib tashlaydi. Jamshid indamadi.* (T.Malik. Shaytanat. III kitob)

Variantlari: abjag'ini chiqarmoq/ abjag'ini tortmoq, dabdala qilmoq.

***Bir kesak bilan ikki olmani qoqmoq*** (ibora) – ayni bir paytda ikki ishni ko'zlab ish tutmoq ma'nosida ishlatiladi. *Xotini allaqachon bir kesak bilan ikki olmani qoqib qo'yganini tushundi. Ammo o'zini tushunmaganga solib taysalladi.*

Variantlari: bir kesak bilan ikki behini qoqmoq; bir o'q bilan ikki quyonni otmoq, bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq.

***Bir shingil*** (ibora) – ozgina, biroz, parcha ma'nolarini beradi. *Shunaqa bemaza hazildan bir shingil ashula yaxshi.* (R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi)<sup>102</sup>

---

<sup>102</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б. – 44-б.

Variantlari: bir shingil-yarim shingil, ikki shingil, bir qatra, bir og'iz.

***Bir shingil-yarim shingil*** – ozgina, biroz, parcha ma'nolarini beradi. *Payti kelganda doktorlardan, professorlardan ham bir shingil-yarim shingil maslahat oldim.* (Oybek. Oltin vodiyan shabadalar)

Variantlari: bir shingil, ikki shingil, bir qatra, bir og'iz.

***Boshida yong'oq chaqmoq*** (ibora) – ortiq darajada azoblamoq, qiynamoq ma'nolarida foydalaniladi. *Axir u har kuni bir yangi dardisar ishni o'ylab chiqaradi. Yana har kimning boshida yong'oq chaqmoqchi bo'ladi.* (Oybek. Oltin vodiyan shabadalar)

Variantlari: boshida danak chaqmoq, boshida tosh chaqmoq.

***Bog'dan kelsa, tog'dan kelmoq*** (ibora) – suhbatdoshining gapiga hech aloqasi yo'q gap-so'z aytmoq ma'nosini beradi. *O'qituvchi bog'dan kelsa, u tog'dan keladi: Sparta davlatini so'rasa, Spartak yurishlariga o'tib ketyapti* (H.Nazir. O'jar qizlar)

Varianti: tog'dan kelsa, bog'dan kelmoq.

***Jiydasi gullamoq*** (ibora) – sevib qolmoq ma'nosini beradi. *Bas, pichoq suyakka yetdi. Jiydasi gullabdi, deb boshimni egib yurganim yetar.* (Sh.Rashidov. Bo'rondan kuchli)

Variantlari: ko'ngil qo'ymoq, dil bog'lamoq.

***Ikki shingil*** (ibora) – ozgina, biroz, parcha ma'nolarini beradi. ***Ikki shingil shirin*** so'z ayting, *Shirin so'zning gadosimiz – biz.* (She'rdan)

Variantlari: bir shingil, ikki qatra.

***Ichi pishgan*** (ibora) – ruhan bezovta bo'lmoq, dilgir bo'lmoq ma'nolarini beradi. *Ko'chadan o'tayotgan Abdurasulni ko'rib yana ichi pishadi.* (P.Tursun. O'qituvchi)<sup>103</sup>

***Ishongan bog'i*** (ibora) – suyangani ma'nolarini beradi. *O'sha qishda o'gay onam otamdan – ishongan bog'idan ayrilib qoldi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar)

<sup>103</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б. – 117-б.

Varianti: ishongan tog‘i.

***Olma otmoq*** (ibora) – *tinchini buzmoq* ma’nosini beradi. ***Olma otdim otganga, Sim karavotda yotganga...*** (Xalq qo‘shig‘idan)

Variantlari: kesak otmoq, tosh otmoq.

***Uzumning suviday*** (ibora) – Insonga nisbatan ishlatiladi. Ayniqsa, yosh xotin-qizlarning yuzi tiniq, suluv bo‘lsa, ***uzumning suviday*** iborasi qo‘llanilgan. Masalan,

*Buvi deganda ko‘z oldimga mehribon, shirinso‘z, egnidan doim yalpiz hidi anqib turadigan inson keladi. Rahmatli buvim qachon borsak, nevaralarimga deb sut, qaymoq, qatiq tayyorlab qo‘yardilar. Issiq, durdali non pishirsalar, qaymoqqa bulab berardilar, shundanmi u kishini «Momoq bibi» deb atardik. Ko‘p yillar mahallamiz kayvonisi bo‘lgan buvimni odamlar haligacha eslab, «Kichkina kayvonining oshini yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz», deyishadi.*

*Qishloqda ikkita kayvoni bo‘lganidan, yoshiga qarab ularni katta kichikka ajratishardi. Buvim biror to‘yga borib kelsalar, onamlar kelinmi, kuyovning ko‘rinishidan, savlatidan so‘rar, buvim bo‘lsa, oydekkina, yuzidan nur yog‘iladi, **uzumning suviday**, deb tariflar, uning o‘zini ko‘rganlar esa maqtaganingiz shumi derdi. Buvim bo‘lsa «Odamning xunugi bo‘ladimi, hammasi ham Ollohimning bir farrzandi-da» derdilar. (<https://ok.ru/group/>)*

Varianti: bir qultum suv bilan yutgudek.

***Shap-shap emas – shaftoli*** (ibora) – *Mayda-chuydalarga o‘ralashmay aniq ishga yoki gapga o‘t*, degan mazmunda qo‘llaniladi.

***Gap “shap-shap”dami, “shaftoli”da*** (ibora) – Ba‘zan aniq javobni talab qilib qolamiz. Ammo *mayda detallarga e‘tibor berilmasa, aniqlik aytilgan darajada samara bermaydi*, degan ma’noda qo‘llaniladi, odatda, bu ibora.

– *Ularning nazarida “shap-shap” deguncha “shaftoli” deyish kerakday. Aslida gap “shaftoli”da emas, o‘sha “shap-shap”da emasmi?* (<https://saviya.uz>)

***Puch yong‘oq bilan qo‘ynini to‘ldirmoq*** (ibora) – *amalga oshmaydigan, quruq va‘dalar bilan aldamoq* ma’nosini beradi. *Bechora qizning puch yong‘oq bilan qo‘ynini to‘ldirmang*, yigitcha. (Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli)

*Har odamga sunma aslo bo‘yningni, Puch yong‘oqqa to‘ldiradi qo‘yningni.*

(Maqol)

Varianti: puch yong‘oqqa qo‘ynini to‘ldirmoq.

**Shox-navdasini butamoq** (ibora) – *haqoratlamok* ma’nosini beradi. *Do‘stlarimning shox-navdasini butasa, qarab turolmayman.* (Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli)

**Dovuchchaligidan g‘o‘lin bo‘lmoq** (ibora) – vaqti voyasiga yetmay, muddatidan ilgari kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. *Azizim, dovuchchaligidan g‘o‘lin bo‘lganlar qancha?!* (Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli)

**Olma ekib olxo‘ri kutmoq** (ibora) – *vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaslik* ma’nosini beradi. *Olmaning tagiga olma tushadi, behi emas. Inson olma ekib olxo‘ri kutsa, albatta, yengiladi.*

Varianti: bodom ekib pista kutmoq.

**Olma-o‘rik bo‘lmaslik** (ibora) – odatda, keksalar nutqida *endi yosh bo‘lmaymiz* ma’nosida qo‘llaniladi. *Ha, endi olma-o‘rik bo‘larmidik, bolam.*

**Qo‘ltig‘iga suv purkamoq** (ibora) – *gijgijlamok* ma’nosini beradi. *Ha, uning qo‘ltig‘iga suv purkayotgan ham shu – Bek.* (S.Ahmad. Qadrdon dalalar)

O‘zbek nutqida *anjir qilib qo‘ymoq; ikki yuzi olmaday; yuzlari chilonjiydaday; oqi oqqa, qizili qizilga ajralgan naqsh olmadek; behiga tiqilgan baqqoldek; limondek siqib suvini ichmoq; o‘rikdek duv to‘kilmoq; mehnatimiz mevalari; mevasidan bahramand bo‘lmoq hosil bermoq* kabi frazeologik birliklar ham ishlatiladi.

Maqollar – grammatik jihatdan nisbiy tugallangan fikr-mulohaza yoki muayyan faoliyat, voqelik natijasini ifodalovchi, hajman qisqa, ixcham va lo‘nda, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir.

Maqollarda fikrni lo‘nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda juda qo‘l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta’minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi.

Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi<sup>104</sup>.

O‘zbek xalq maqollari sirasidan meva nomlari bilan bog‘liq quyidagi maqollar mavjudligini kuzatdik:

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida *olma* so‘zi qo‘llanilgan 15ta maqol uchraydi.

**1.Olmaning tagiga olma tushadi.** (Maqol)

Odam yoshlikda nimaga o‘rgansa, qariganida ham o‘shani qiladi, degan gap bor. Shu gap nimani anglatadi?

Tarbiyaning nozik jihatiga naqadar teran tashbeh ishlata olgan-a, xalqimiz. Bu Abuyazid Bastomiy va uning o‘g‘li o‘rtasidagi suhbatda ta’sirchan va go‘zal ifodalagan.

*Bir kecha Abuyazid Bastomiy tahajjudga turdi. Qarasa, yonida kichkintoy o‘g‘ilchasi ham turibdi. Uning hali murg‘akligi, sovuqning qattiqligi va bedorlik mashaqqatini e’tiborga olib, unga rahmi keldi-da, shunday dedi:*

– *Bolajonim, sen uxlay qol, hali tun uzun.*

*Farzandlari deydi:*

–*Halollik yo‘lida sizga hamroh bo‘lishimdan meni mahrum etmang!*

– *Bolajonim, sen hali go‘daksan, balog‘atga yetganing yo‘q.*

–*Otajon, oyijonim o‘t yoqayotganlarida o‘tni oldin mayda o‘tinlarga tutashtirib, keyin ularning ustiga katta o‘tinlarni tashlaydilar. Biz toatga beparvo bo‘lsak, Alloh taolo ham Qiyomat kunida o‘tga tashlashni kattalardan oldin biz-kichkinalardan boshlashidan qo‘rqaman.*

*Otaning ko‘zi jiqqa yoshga to‘ldi va dedi:*

–*Tur, bolajonim, Allohga yaqin bo‘lishga otangdan ko‘ra sen loyiqroqsan.*

(<https://azon.uz/> )

Bu maqolning variant – “Qush inida ko‘rganini qiladi”. Zero buyuklarimiz baytlarida aytilganidek:

*Har doim haq bilur otasin go‘dak,*

<sup>104</sup> Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.– Тошкент: Фан, 2006.– 162 б.

*Demakki, har ishda otadur o‘rnak.*

Oilada o‘g‘il otasiga, qiz onasiga o‘xshashga harakat qiladi. Zero, kattalarning o‘zi kichiklarga namuna bo‘la olsagina yuqorida keltirilgan ma‘no ijobiylik kasb etishi mumkin.

## **2. Oq olma, qizil olma, baribir, olma!** (Maqol)

Bu o‘rinda sara narsani yana saralama, hadeb tanlayverma degan ma‘nolar ham mujassamlanadi.

*–Nozima yo‘q desa, Sanamga uylanaman. Oq olma, qizil olma, baribir, olma,– dedi Shuhrat o‘rtog‘iga beparvo boqib... (<https://bekajon.uz> )*

## **3. Olma olmaga qarab rang oladi.** (Maqol)

Kishilar hamisha bir-birlaridan o‘rganadilar, degan ma‘noda ishlatiladi.

*Xalqimizda o‘ng qo‘ling berganni chap qo‘ling bilmasin degan gap bor. Lekin yurtdoshlarimizning ko‘ngliga mehr-shafqat urug‘larini qadash, ularni ham saxovat qilishga undash uchun ham targ‘ibot vositalaridan unumli foydalanilyapti. “Olma olmaga qarab rang oladi”. (<https://adolat.uz/>)*

## **4. Olmadan bodom bo‘lmas,**

**Tagi past odam bo‘lmas.** (Maqol)<sup>105</sup>

Odatda, “Odamlarning xarakter-xususiyatini o‘zgartirish qiyin, ba‘zi yomon odatlari bor, xulqi past odamlarni tarbiyalab bo‘lmaydi” degan ma‘noni beradi.

## **5. Sabrlining boshiga olma bitar,**

**Sabrsizning boshiga g‘avg‘o.** (Maqol)

Maqolda shoshqaloqlik qoralangan.

## **6. Otasi achchiq olma yesa,**

**O‘g‘lining tishi qamashar.** (Maqol)

Maqolda qavm-qarindoshlik orasidagi ahillik haqida aytilgan. Maqolni boshqacharoq tushunilishini ham kuzatamiz. Ya‘ni “Otasi achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar. Maqolda otasi qilgan jinoyat, otasi o‘tgach, bolasiga ham isnod tegizadi ma‘nosida qo‘llanilgan”<sup>106</sup>.

<sup>105</sup> O‘zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b.–Toshkent: Sharq, 2005. – B.257 – 33.

<sup>106</sup> <http://www.hozir.org/ii-kurs-magistranti-libos-dizayn-kafedراس.html>

**7. Olma og‘ochidan olis tushmas/Oлма tagidan yiroqqa tushmas.** (Maqol)

Inson har yerda oilada olgan tarbiyasini ko‘rsatadi, degan ma’nodan ishlatiladi. Ammo qanchalik g‘alati tuyulmasin, *olma tagidan yiroqqa tushmas ekan, dedi oqsaqol ensamni qotirib.* (Ch.Aytmatov. Sarvqomat dilbarim)

**8. Olmaning tagida olma yotar.** (Maqol)

Mazkur maqol ham kishida baribir ota-onasidan olgan tarbiyasi ustunlik qiladi, degan ma’nodan ishlatiladi.

**9. Olmadan – olma, dovchadan – dovcha.** (Maqol)

Bu maqol semantikasi ham “*Olma tagidan yiroqqa tushmas*”, “*Olmaning tagida olma yotar*” kabi maqollarga mos bo‘lib, shu maqollarning variant sifatida qo‘llaniladi.

**10. Olma sabog‘idan ortiq bo‘lmas.** (Maqol)

Bu maqol semantikasi ham “*Olma tagidan yiroqqa tushmas*”, “*Olmaning tagida olma yotar*”, “*Olmadan – olma, dovchadan – dovcha*” kabi maqollarga hamohanglik bor.

**11. Qovunning sarasini it yer,**

***Olmaning sarasini – qurt.*** (Maqol)

Yer yuzida inson zoti borki, hamma narsaning yaxshisini, a’losini qo‘lga kiritishga harakat qiladi. Ko‘pincha, yaxshilar yomon xulqli (ochko‘z, g‘alamis, xasis va h.) kishilar qo‘liga tushib qoladi. Olma qurti ham hech qachon sho‘r yoki taxir olmani yemaydi. U ham, albatta, o‘ziga ozuqa uchun eng shirin (sara), mazali olmani tanlaydi.

Xalq nutqida mazkur maqolning “*Qovunning yaxshisini eshak yer, Olmaning yaxshisini – qurt*” varianti ham ishlatiladi.

**12. O‘rik yeb og‘rigandan, olma yeb o‘lgan yaxshi.** (Maqol)

Manbalarda mazkur maqol “Foyda va zarar haqidagi maqollar” sirasiga kiritiladi <sup>107</sup>. O‘rik inson tanasi uchun darmondori bo‘lgan serhira meva hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, kishi bir kunda 20 grammdan ortiq o‘rik

---

<sup>107</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/foйда-va-zarar-haqida-maqollar>

iste'mol qilsa, endi u lazzatlanish manbayi emas, balki tarkibidagi glikozid amigdalin hisobiga ichakda to'qimalar uchun o'ta kuchli zahar hisoblangan kislota hosil qiladi va bu olma mevasidan zaharlanishga qaraganda bir necha barobar yuqori turadi. Fikrimizcha, mazkur maqol me'yor haqida.

### **13. Olmaning qiziliga ishonma,**

***Dushmanning – do'stligiga.*** (Maqol)

Tashqi ko'rinishga yoki yuzaki muomalalarga ishonmang, ma'nosida qo'llaniladi.

### **14. Olma yeb og'rigandan, o'rik yeb o'lgan yaxshi.** (Maqol)

Ushbu maqol yuqoridagi "***O'rik yeb og'rigandan, olma yeb o'lgan yaxshi***" maqolining variant bo'lib, "olmadan zaharlanish ham o'rikdan zaharlanish holatidan kam emas" degan ma'noni ifodalagan.

### **15. Sog' olma shoxidan tushmas.** (Maqol)

Maqol salomatlik haqida.

"O'zbek xalq maqollari" kitobida keltirilgan *olma* so'zi bilan bog'liq maqollarda mazkur mevaning rangi, maza-ta'mi, pishib yetilishi, qurtlashi, to'kilishi, kishi tanasida hazm bo'lishi kabi holatlar bilan aloqador jihatlari maqol semantikasini belgilagan va, tabiiyki, insonlarning turmush tarzi bilan bog'liq holatlarni jamiyat me'yorlariga moslashtirilishiga undaydi.

"O'zbek xalq maqollari" kitobida *shaftoli* so'zi qo'llanilgan 5 ta maqol uchraydi<sup>108</sup>.

#### **1. O'n marta shap-shap deguncha bir marta shaftoli degan yaxshi.** (Maqol)

***O'n marta shap-shap deguncha bir marta shaftoli degan yaxshi. Shuning uchun gapni cho'zib o'tirmay, birdan maqsadga ko'cha qolamiz. Bedarak ketgan askar o'g'lini kutayotgan onaday, ming dollarning qorasi ko'rinarman, deb yo'l qarab siz sho'rliklarning ham ko'zingiz to'rt bo'ldi. Osmondan chalpak tushmaydi. Bu zamonning otini bozor deb qo'yibdi, aynalaylar. Kerak bo'lsa, dabba eshagingning dumiga munchoq taqib, ukangga maqtab sotasan. O'zing uchun o'l***

---

<sup>108</sup> O'zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b.–Toshkent: Sharq, 2005. –257 b.



yetim dunyo. Bo'yinturuq qiysa ham aravangni tortmasang bo'lmaydi. (<http://marifat.uz/>)

## **2. Shaf-shaf degan bilan**

**Shaftoli og'izga tushmas.** (Maqol)

Bu o'rinda mevachilik leksikasining xususiyati bevosita inobatga olinmagan. Quruq gapdan ko'ra amaliy faoliyat zarur degan ma'noda qo'llanilgan.

## **3. Qo'ling yetgan shoxning shaftolisi shirin.** (Maqol)

Maqolda "o'z imkoniyating darajasidagi ne'matlardan lazzatlan, shukrona qil", ma'nosi mujassam.

## **4. Shaftolidan bog' qilma,**

**Echkidan mol qilma.** (Maqol)

Bilamizki, biologik jihatdan shaftoli daraxti (garchi serhosil bo'lsa-da) 4-5 yil umr ko'radi. Demak, shaftolidan barpo etilgan bog'ning umri uzun emas. Maqolda shu jihatga ishora etilgan.

## **5. Echki boqqan chorvador bo'lmas,**

**Shaftoli ekkan – bog'bon.** (Maqol)

Mazkur maqol yuqoridagi "**Shaftolidan bog' qilma, Echkidan mol qilma**" maqoli ifodalagan mazmuni anglatadi.

"O'zbek xalq maqollari" kitobida **anor** asosli 1 ta maqol uchraydi<sup>109</sup>.

### **1. Bir anor ming bemorga davo.** (Maqol)

Mazkur maqol bevosita anor mevasining shifobaxshligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'rsatilgan kitobida **gilos** nomi ishtirok etgan maqol soni ham bitta.

### **1. Bog'da bitgan gilosim,**

**Otamdan qolgan merosim.** (Maqol)

Mazkur o'rinda gilos daraxtining yashovchanligiga ishora etiladi.

Shuningdek, "O'zbek xalq maqollari" kitobida **meva** so'zi ishtirok etgan 27ta; **bog', bog'bon** mevachilik nomlari ishtirok etgan 39ta; **uzum** asosli 4 ta; **o'rik, zardoli, dovuchcha** so'zlari qo'llanilgan 5 ta; **bodom, pista** asosli 6 ta; **yong'oq**

<sup>109</sup> O'zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b.–Toshkent: Sharq, 2005. –257 b.

asosli 6 ta; *tut, shotut* meva nomlari ishtirok etgan 5ta maqol uchraydi (Qarang: 1-5-ilova)<sup>110</sup>.

Demak, mekachilik nomlari frazeologik birliklarda kamroq, xalq maqollarida esa ko'proq qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Tahlil davomida shu narsaga amin bo'ldikki, o'zbek tilida mekachilik leksikasi mustaqil holda ham, frazeologik birlik hamda maqollar tarkibida ham o'z va ko'chma ma'nolarda keng qo'llaniladi va o'zbek xalqining turmush tarzini, o'zaro munosabatlarini, aqliy va jismoniy ongi, psixologik belgilarini ochib berishga xizmat qiladi.

### **3.2. Tibbiy evfemizmlar va badiiy matnlarda mekachilik nomlarining qo'llanilishi**

O'zbekistonning noyob tuproq-iqlim sharoiti, bir yilda o'rtacha 320 kunning quyoshli bo'lishi, to'rt faslning izchil almashinuvi yuqori sifatli meva va sabzavotlar yetishtirish uchun ham qulay tabiiy imkoniyatni tuhfa etadi. Pirovardida qishloq xo'jaligi mavsumi yangi ko'katlar tabiiy sharoitda yetiladigan mart oyining dastlabki kunlaridan boshlanib, ta'bir joiz bo'lsa, butun yil mobaynida to'xtamaydi. Ya'ni bozorlarga uzum, qovun, xurmo va behining kechki navlari yetkazib beriladigan dekabr oyining boshiga qadar sarxil mevalar taqdim qilinadi.

Ekspertlarning e'tirof etishicha, bizning sharoitimizda yetishtirilgan mevalar tarkibida tabiiy shakar, amino va organik kislotalar, salomatlik uchun zarur mikroelementlar va oziq-ovqat ratsionida o'rnini almashtirib bo'lmaydigan turli biologik moddalarga boyligi bilan ustun turadi. Zotan, qadimda Ibn Sino turli kasalliklarni davolash uchun, avvalo, meva-sabzavotlar hamda turli giyoh va o'simliklardan foydalangan.

Mevalarning shifobaxshligi ularning nomlari orqali turli efimik birliklarda, tibbiy o'gitlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan,

---

<sup>110</sup> O'zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b.–Toshkent: Sharq, 2005. –257 b.

*Olma bor yerdan kasallik qochadi*, deydi shifokorlar va olmani ***kasallikni haydovchi meva*** sifatida tavsiya etishadi. Chunki olma qon tarkibidagi xolesterin miqdorini pasaytirish xususiyatiga ega. Uning po‘stlog‘i saraton kasalligining oldini olishda foydali hisoblanadi. Olmaning po‘stlog‘i bilan yeyishga harakat qilish zarur. Bu tarzda iste‘mol qilish orqali organizmga kvvertsetin va vitamin C kiradi.

***Banan sportchilarning mevasi*** hisoblanadi. Chunki u insonga energiya bag‘ishlash xususiyatiga egadir. Sport maydonchasida bir yarim soat tinimsiz shug‘ullanish uchun ikkita banan yeyish kifoya qilar ekan. Buni tadqiqotlar ko‘rsatmoqda. Uning tarkibida B 6 vitamini mavjud bo‘lib, u qondagi glyukoza miqdorini me‘yorlashtirib, kayfiyatni yaxshilaydi. Banan kamqonlikda yordam beradi. Kaliy moddasi yurak faoliyatini va organizmdagi suv balansini yaxshilaydi<sup>111</sup>.

***Chilonjiyda*** jumrutdoshlar oilasiga mansub bo‘lib, bo‘yi 2,5 metrdan 6 metrgacha yetadigan ulkan daraxtdir. Danakli, dumaloq yoki cho‘ziqroq shakldagi mevasi sentyabr` oyida pishib yetiladi. U qadim zamonlardan ***xosiyatli ne‘mat*** sifatida qadrlanadi. Tabobatda bundan ikki ming yil oldin bir qator kasalliklar chilonjiyda yordamida davolangani buning dalilidir.

Muhammad Husayn ibn Muhammad al-Oqiliyning “Maxzan-ul-adviya” kitobida yozilishicha, behi bosh og‘riqlarini qoldirib, yurakni mustahkamlaydi, jigar va me‘da ishini yaxshilab, ishtahani ochadi, og‘izdagi noxush hidni yo‘qotadi. U lohas bo‘lganda, ich ketganida, sariq kasalida ham foyda beradi. Shuningdek, tanaga noxush qon quyilishining oldini oladi. Zero, ***behi – bog‘lar shohidir***.

Buyuk tabib Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, yong‘oq yaprog‘i shirasi iliq holda quloqqa tomizilsa, yiringlashning oldi olinadi. Qobig‘ining quyultirilgan shirasi tomoq og‘rig‘ini bosib, yo‘talga malham bo‘ladi. Qovurilgani kindik ustiga qo‘yilsa, ichak og‘riqlarini bosib, ich ketishini to‘xtatadi... Ibn Sino ta‘biricha, ***yong‘oq ming dardga darmon meva*** sanaladi.

---

<sup>111</sup> Ma‘lumotlar <https://zarnews.uz/> dan olindi.

Z.M.Bobur “Boburnoma” asarida shunday yozadi: “Yana bir Marg‘ilondur, Andijonning g‘arbidadur, Andijondin yetti yig‘och yo‘ldur. Yaxshi qasaba voqe bo‘lubtur, pur ne‘mat; **anori va o‘rugi asru ko‘p – xo‘p bo‘lur**. Bir jins anor bo‘lur, “**dona kalon**” derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor. **Samnon anorlarig‘a tajreh qilsa bo‘lur**. Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichig‘a mag‘z solib quruturlar, “**subhoni**” derlar, **bisiyor lazizdur**”.

Boburshoh hazratlari va uning avlodlaridan qolgan tarixiy va madaniy meros hanuzgacha jahon xalqlarini hayratga solib kelmoqda. Bobur hazratlari yana yozadilar: “Kobul viloyati to‘rtinchi iqlimdindur. Kobul va kentlarida sardseriy mevalardin **uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yong‘oq qo‘ptur**. Men **olu-bolu** niholini keturub ekturubmen, yaxshi **olu – bolular** bo‘ldi va hanuz taraqqiyda edi. **Garmseriy mevalar** misli norunj va turunj va amluk va nayshakar La o‘monottin keltururlar. Kobulning rivochi **xo‘p bo‘lur, bihi bila olusi** ham yaxshidur. Bodringgi dag‘i yaxshi bo‘lur. Bir nav **uzum** bo‘lur, **obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdir**. Mast chog‘irlari bo‘lur. Xoja Xovard Said Domani ko‘hiyning chog‘iri tundluq birla mashhurdir. Agarchi holo taqlid birla andin ta‘rif qiladurlarki: “Lazzati may mast donad hushyoronro chi haz”<sup>112</sup>.

Qur‘oni Karimda shunday oyat keltiriladi: “Endi inson o‘zining taomiga (ibrat ko‘zi bilan quyidagi ne‘matlarimizga bir) boqsin: Biz (osmondan) suvni mo‘l yog‘dirdik. So‘ngra yerni (giyohlar unsin, deb) yordik. So‘ngra biz unda donlarni undirdik, uzum va ko‘katlarni, zaytun va xurmolarni, qalin daraxtzor bog‘larni, meva-yu giyohlarni ham. (Bularni) sizlarning va chorva hayvonlaringizning iste‘moli uchun (yaratdik)” (Abasa surasining 24-32-oyatlari)<sup>113</sup>.

Davrimiz odamlari nomlari Qur‘oni Karimda zikr etilgan *uzum, xurmo, daraxtzor bog‘lar, meva* kabi mevachilik leksikasining o‘ziga xos tibbiy evfemizmlaridan ham foydalanishadi. Jumladan,

<sup>112</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. –B.698.

<sup>113</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/3114>

*Uzum – jannatiy ozuqa. Qur’oni Karimda eng ko‘p zikr etilgan meva nomi jannatiy ozuqa – uzumdir*<sup>114</sup>.

*Xurmo – Payg‘ambarimiz buyurgan meva.*

*Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadisi sharifda: “Agar sizlarda xurmo bo‘lsa, u bilan og‘iz ochinglar, agar bo‘lmasa, suv bilan. Chunki bu poklanishdir”, deganlar. Xurmo payg‘ambarimiz buyurgan meva erur. (Imom Abu Dovud rivoyati)*<sup>115</sup>.

*Xurmo payg‘ambarimiz buyurgan meva ekanligi hadisi shariflarda ham keltirilgan: “Hazrati Maryam ham Iso alayhissalomni dunyoga keltirgach, xurmo yedi. Agar unga xurmodan foydaliroq narsa bo‘lganida Allohu taolo Maryamga uni taqdim etardi.” (Hadisi sharif)*

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodida, o‘zbek poetik matnlarida meva nomlaridan ramz sifatida foydalanish qadimdan bor. Masalan, olma – muhabbat ramzi, anor – turmushga sadoqat ramzi va h.

Uvaysiyda “Anor” chistoni:

*Ul na gumbazdur eshigi tuynugidin yo‘q nishon,  
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.  
Sindirub gumbazni alar holidin olsam xabar,  
Yuzlarida parda tortig‘liq tururlar bag‘ri qon.*

Uvaysiy ushbu chistoni orqali **anorni** gumbaz ichidagi yuzlariga parda tortilgan **yurak-bag‘ri qon qizlarga qiyoslagan**. Bugungi kun o‘zbek bolalar adabiyotida Anvar Obidjon tomonidan yaratilgan “Anor” adabiy topishmog‘i ulardagi biror jihatni takrorlamaganligi bilan ajralib turadi:

*Har donacham bir askar,  
Bir qal’ada ming lashkar.  
Yotar ular panada,  
Oq pardali xonada.  
Xonalar tinch, atrof jim.*

<sup>114</sup> <https://islom.uz/maqola/15356>

<sup>115</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/3114>

*Qal'achani buzsa kim,*

*Boshlanadi to'olon...*

*U yog'i sizga ayon.*

Shoir *Anvar Obidjon anor donachalarini askarlarga qiyoslaydi*. Kim agar ularning tinchini buzsa, qal'alariga ziyon yetkazsa, qarab turmasliklarini ifoda qiladilar. Ba'zi manbalarda anor lotincha "granatum", "granatus" so'zidan olinib donli, meva ichidagi ko'plab urug'larga ko'ra, suvli qopqoq bilan o'ralgan<sup>116</sup>.

*Olma – sevgi ramzi. Olma – najot ramzi. Olma – abadiy uyg'unlik ramzi. Olma – kosmik ramz va h.*

Demak, birgina meva turli xalqlarda mushtarak ramz ma'nosini ham, ba'zan alohida ramz ma'ntig'ini ham ifodalab kela oladi. Jumladan,

*Olma – sevgi ramzi, shuningdek, vasvasaning, insonning qulashi va najotning ramzi; Keltlar abadiy yoshlikning oltin olma borligiga ishonishgan, xitoyliklar orasida olma sovg'asi abadiy uyg'unlik g'oyasini o'z ichiga oladi. Slavlar uchun bu sevgi belgisi bo'lib xizmat qildi; yigit va qiz bir-birlari bilan olma almashishib, o'z sevgilarini ochiqchasiga e'lon qilishdi. Deyarli mukammal dumaloq shakli tufayli olma kosmik ramz sifatida qabul qilinadi, shuning uchun shohlar va shohlar hassa bilan birga butun dunyoni ifodalovchi suveren olmani (kuchni) qo'llarida ushlab turishadi. (<https://uz.info-4all.ru/>)*

*Baland shoxda qizil olma pishgan ekan,*

*Uzib olib qarasam, qurt tushgan ekan.*

*Men olmani irg'itvorsam, u dod soldi,*

*Tashlab ketar ekan meni nega oldi? (M.Yusuf)*

***Qurt tushgan qizil olma*** – sevgida aldangan qiz ramzi.

*San yodima galanda,*

***Olma-anorlaring yodima tushdi.*** (Xorazm qo'shig'idan)

Qo'shiqdagi olma, anor – ma'shuqaning chiroyli yuzi ramzi.

<sup>116</sup> Юлдашева Д., Хожиева Н. Некоторые соображения о фруктовой лексике// Преподавание языка и литературы (NSSN 2010-5584).–Ташкент, 2020, № 3.–С. 61-63.

**Meva** – farzand, muhabbat ramzi.

...ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, **hayotimizning mevasi** o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma‘lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulillah biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘stlaringiz munda haq taoloning hifzi himoyatida sihat va salomat bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz. (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. 35-b.)

**Odam mevasi** – farzand. (Maqol)

**Ona – daraxt, bola – meva.** (Maqol)

**Muhabbat – dil mevasi.** (Maqol)

**Mevali daraxt** dunyo xalqlarida yaqin o‘tmishga qadar hosildorlik ma‘budasining ramzi hisoblangan<sup>117</sup>.

**Mevali daraxt** –farzandli ayol ramzi.

**Shukur, ona qizim –mevali daraxt. Etagi to‘la bola.**

**Mevali daraxt** – ilmiga amal qiluvchi olim ramzi.

**Ilm olinglar. Ilm bilan birga xotirjamlik, viqor va hilmni (muloyimlikni) ham olinglar. Sizga ta‘lim berayotgan kishiga tavoze‘li bo‘linglar. Sizdan ta‘lim olayotgan kishilar ham tavoze‘li bo‘lishsin. Ilmiga amal qiluvchi ilm ahli mevali daraxt kabidir. Jabr qiluvchi olimlardan bo‘lmanglar. Ilmingiz johilligingiz ustiga qoyim bo‘lmasin.**(Ali ibn Abu Tolib)

**Mevasiz daraxt** –farzandsizlik ramzi.

–Shunaqa... yaxshisiz... Judayam yaxshi insonsiz! Sizdek yaxshi odamni mendek **mevasiz daraxt** bilan yashashingiz...Axir... axir bormagan joyimiz qolmadi-ku? Hech kim umid berolmadi-ku, bizga. Mening farzand ko‘rolmasligimga sizdan boshqa hamma ishonadi.

–Yo‘q, dadamlarni gapini esla. Hammasi Ollohdan, sabrli bo‘linglar deyishadi-yu! (Z.Mirzayeva. Sirli sirdosh)

**Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt.** (Maqol)

---

<sup>117</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари. –Т. 2007.

*Mevasiz daraxt* –ilmsizlik yoki ilmga amal qilmaslik ramzi. *Amalsiz ilm mevasiz daraxt kabidir.* (Hadis) Ibn Raslon ash Shofe'iy o'zining "Az-Zabad" nomli nazmiy to'plamining muqaddimasida shunday deydi:

Olim o'z ilmiga amal qilmas gar,  
Butparastdan oldin azobga giriftor bo'lar<sup>118</sup>.

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning shunday gapi bor: "*Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotdir. Ilm inson uchun g'oyat oliy muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir*"<sup>119</sup>.

*Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam ilmni iymonning mevasiga qiyoslab shunday marhamat qilganlar: "Iymon yalang'och bir narsa bo'lsa, uning libosi taqvo, ziynati hayo, mevasi esa ilmdir"*<sup>120</sup>.

*Ro'zaning barcha qoidalarini tushunmay, unga ko'r-ko'rona amal qilish, go'yo mevasiz daraxt kabi bo'ladi. Islom dini – ilm dini bo'lib, har bir musulmon erkak va ayol o'zi uchun foydali va zararli narsalarni bilib olishi shart.* (D.Nurmuhammad. Ramazonga tayyormisiz?)

*Umr behuda sarf bo'ldimi, demak, odam yaxshi ishlarni amalga oshira olmabdi. Insonlar uchun, jamiyat uchun foyda bermabdi. Vaqtning isrofi xuddi mevasiz daraxt kabi umr kechirishdir.* (T.Malik. Odamiylik mulki)

**Mevasiz daraxt** – saxovatsizlik yoki behimmatlik ramzi.

*Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royahasiz mushki totor. Mevasiz yig'och hamonu o'tun hamon va yog'insiz bulut hamonu tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf birla o'lub qurug'on ne e'tibor*<sup>121</sup>.

Ko'rinadiki, islom dinida va u bilan bog'liq hadislarda, ma'rifiy matnlarda ilmsizlik, ilmga amal qilmaslik yoki saxovatsizlik mevasiz daraxtga o'xshatilgan.

<sup>118</sup> <https://azon.uz/content/views/amalsiz-ilm-mevasiz-daraxt-kabidir>

<sup>119</sup> <https://xs.uz/uzkr/post/manaviyati-yorug-odam-boshqalarning-ham-bagrini-yoritib-yuradi>

<sup>120</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/17276-ilmning-fazilati>

<sup>121</sup> Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 14-том. –Тошкент: Фан, 1998.–315 б. –78-б.



Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo‘lgan urf-odatlari va e’tiqodiy qarashlarini o‘rgangan etnograf G.P.Snetsarevning e’tiroficha, mevali daraxtlar yoki ularning ayrim turlari, mevasining xususiyatlari kishilarni rag‘batlantiruvchi hisoblangan, hatto hosildorlik ramziga aylangan<sup>122</sup>. Shunday mevalardan biri – anor.

**Anor – ramz.** O‘zbek mifologiyasida aytilishicha, “*Anor – mevalarning boshi. Kimda kim anor yesa, qirq kun shaytonning g‘azabini keltiradi*”.

O‘zbek folklorida anor o‘ziga xos ramz hisoblanadi. Jumladan,

**anor** – xotin-qizlarning chiroyli yuzi ramzi (*Oyisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Suvni quyoshda isitdim. Shunda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: ey Humayro (yonoqlari qizil, anor yuzli) bunday qilmang, chunki u moxov kasalini paydo qiladi, dedilar* (hadisdan);

**anor** – mehr-muhabbat ramzi (*Sani yoda olganda, Olma, anorlaring yodima tushdi* (Xalq qo‘shig‘idan);

anor – oilali, farzandli ayol ramzi (*Yorning bog‘i bor ekan, Bog‘ida anori bor ekan, Yolg‘iz deb ko‘ngil bersam, Bo‘lak yori bor ekan* (Xalq qo‘shig‘idan);

**anor** – to‘kinlik, to‘kislik ramzi sifatida momolarimizning kashtalarida ham aks etgan.

*Anor yenglar, u yurakni hasad va nafratdan forig‘ qiladi.* (Hadis)

“Tavrot”da yozilishicha, Sulaymon payg‘ambarning anorzori bo‘lgan ekan.

*Bir anor ming bemorga davo.* (Maqol)

Anorni turkiyda **nor**, arabiyda **rummon** (arab tilida “Qur‘on” ham rummon) deb atashgan.

*Qatrasi lal va rummoni,*

*Qaysi rummon, degilardistoni* (Alisher Navoiy)

Anor ruslarda **zpanam**, ingilizlarda **garnet**, fransuzlarda **grenat**, nemislarda **granat**, ispanlarda **granate** ekanligi mazkur meva nomining rus tilidan boshqa tillarga o‘zlashganligini ko‘rsatadi.

---

<sup>122</sup> Снецарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросим ва урф-одатлари.– Урганч, 2018. – Б.332 – 192.

Meva nomlari tilshunoslikning tabiiy fanlar, xususan, flora va fauna olamiga aloqador bilimlar bilan integratsiyasini, jamiyat va tabiat, jamiyat va adabiyot bog'liqligini asoslashga xizmat qilishi jihatidan diqqatga sazovor. Jumladan, uning tarkibiga kiruvchi mevalar olamining badiiy adabiyotda obrazlantirilishi orqali alohida mavqe egallagani, an'anaviy poetik obraz, ba'zan turg'un yoki vaziyat ramzi sifatida keltirilishi, fitopoetonom darajasida kuzatilishi, inson obrazini berishda, shaxs sifatlarini poetik ifodalash va baholashda keng qo'llanishi bevosita e'tiborga molik jihatlardir.

Mevachilik leksikasi, jumladan, mevalar obrazi, ko'pincha, badiiy adabiyotda inson xususiyatlarini, shaxs go'zalligi yoki uning biror jihatini poetik ifodalash uchun ishlatilishi ma'lum. Shunda mevalar nomining til va nutqdagi leksik-semantik belgilari, nominatsion-motivatsion asoslari yorqin ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan ularni o'rganish esa tilda meva nomlarining o'rni, leksik tizimi va tarkibi, xalqning yashash hududi, milliy-madaniy hayoti, turmush tarzi bilan bog'liq holda qo'llanib boyib kelayotganini anglashga xizmat qiladi.

Berilgan ramzlarda metafora usulida ma'no ko'chishini kuzatamiz.

Leksikologiyaga doir adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlanganidek, yangi ma'noning hosil bo'lishi nom ko'chishi asosida yuz berishi e'tirof etilgani (ya'ni bunda nom ko'chishi nazarda tutilgani) holda, ko'pchilik ishlarda bu hodisa «ma'no ko'chishi», «ma'no ko'chishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi» deb ta'riflanadi. Aslida ma'no ko'chishi hodisasi yo'q. Albatta, bu fikrlar nom ko'chishining metafora usuliga ham taalluqli.

B. Mirsanov asati, ho'kizkalla, bo'rikalla, jiydagul, atirqovun, jo'raqand, qoraqand, amiri, aligavhar kabi ayrim metafora va metonimiya, sinekdoxa usuli asosida shakllangan qovun navlarini tahlil qilgan.

Metafora – narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so'zning) o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo'llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o'tishi (aylanishi)dir.

Metafora asosida nom ko‘chishi o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan konkret narsalar doirasida bo‘lganida, bu hodisa aniq sezilib turadi. Mavhum narsa-hodisalar doirasida bo‘lganida esa uni sezish biroz qiyinroq bo‘ladi.

Metafora asosida nom ko‘chishi ko‘proq ot so‘z turkumi doirasidadir. Lekin hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik faqat predmetlar doirasidagina bo‘lmay, o‘zaro o‘xshashlik belgilar, shuningdek, harakatlar o‘rtasida ham bo‘ladi. Buni meva nomlarida ham kuzatish mumkin. Masalan,

*Shunchalik bular axir alloma deganlari,  
Agarchi, qismat chigal, noshukur ul zamona.  
Javohir iste’dodning mevasi buning bari:  
“Osor ul-boqiya”yu “Hindiston” u “Saydona”.*

(A.Oripov. “Alloma” she’ridan)

Mazkur o‘rinda **iste’dodning mevasi** metaforik birligi iste’dod natijasi, samarasi ma’nosida qo‘llanilgan.

*Mening nazarimda bularning bari,  
Baxt degan daraxtning shoxobchalari.  
Baxtga o‘sha choy ham daxldor erur,  
Aql dam, chiroy ham daxldor erur.*

(A.Oripov. “Baxt haqida suhbat” she’ridan)

Mazkur o‘rinda **baxt degan daraxt** metaforik birligi parvarish qilsang, baxt ham gurkirab o‘suvcchi daraxt misoli ma’nosida qo‘llanilgan.

*Ilk sevgi – eng baland shoxdagi olma,  
Men unga intildim, yetmadi qo‘lim.  
Senga baxt tilayman, mayli, kim bo‘lma,  
Kunlaring xayrli bo‘lsin, sevgilim.*

(M.Yusuf. “Sevgim” she’ridan)

Shoir nazdida birinchi muhabbat, ilk sevgi **eng baland shoxdagi olma**, qo‘l yetmas meva. Ko‘rinib turadi. Uzib olishingga ishonasan. Biroq qo‘ling yetmaydi. Umidvorligingcha qolaverasan. Go‘zal metafora.

*Olmalar to‘kilar duv,  
Olmalar – hissiyotlar.*

*Betuyg 'u niyatlar u –*

*Qiruvchi samolyotlar.* (M.Yusuf. “Qiruvchi samolyotlar” she’ridan)

*O mening hislarim – to‘kilgan olma...* (Z.Mo‘minovadan)

*Olam – go‘zal yalang–ochlikda!*

*Har bir daraxt – bir daho surat.*

*Faqat qarg‘a bu daholikka*

*Qo‘nmoqlikka qiladi jur‘at.* (U.Azim. “Qavs” she’ridan)

Shoir qo‘llagan *har bir daraxt – bir daho surat* metaforani har bir daraxt bir dahoning suratidir yoki har bir daraxtning o‘zi alohida buyuklikdir deb tushunish mumkin.

Metafora kognitiv nuqtayi nazardan qaralsa, oddiygina ko‘chim emas, balki insongagina xos olamni anglash vositalaridan biridir. Inson tabiat, xususan, o‘simliklar va hayvonot dunyosini hamda jamiyatni o‘zaro qiyoslash, o‘xshatish, ya’ni metaforalar vositasida ko‘radi, anglaydi.

*Yurakning toptalgan ko‘chalarida*

*Noparmon gullaydi “Baxt” degan daraxt.*

(U.Azim. “Erkni sog‘ingan” she’ridan)

*“Baxt” degan daraxt* metaforasi insonning ruhiy kechinmalarini yoritishga xizmat qilgan.

*...ulkan bir sayyora kabi ko‘rinding,*

*menday bir faqirga, olmajon, olma!*

*Manim, kichik ko‘nglim,*

*ay, shoir ko‘nglim,*

*nokaslar ra‘yiga tushmagan, ko‘nglim,*

*dunyoning million xil noz suvratidan*

*bir qizil olmani xushlagan, ko‘nglim!*

*Olmajon,*

*tushdingmi osmon bog‘idan,*

*qaysi bir dunyodan elchi bo‘p kelding.*

*Ko‘nglim so‘lar chog‘i tun qiynog‘idan,*

*nahotki, fazoda olovday yelding.*

(Sh.Rahmon. “Qizil olmaga qasida” she’ridan)

Shavkat Rahmonning mevachilik leksikasi bilan bog‘liq metaforalari betakror. Qizil olma – *ulkan bir sayyora*, qizil olma – *osmon bog‘idan tushgan elchi*, qizil olma – *fazoda olovday yeluvchi*.

*Qulog‘imga kelar ko‘cha-ko‘ylardan*

*Qiyqirib o‘ynagan bolalar sasi.*

*Bular – sen ishongan va sen kuylagan,*

*Lek sen yetolmagan zafar mevasi.* (E.Vohidov. “Vafo” she’ridan)

Shoir *zafar mevasi* metaforasini muvaffaqiyat natijasi yoki bayram kuni ma’nolarida qo‘llagan.

Onomastik birliklarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi antonomasiya, onomastik metafora, deonimlashish terminlari ostida o‘rganilgan. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan onomastik birliklar esa konnotonim, ramziy nomlar terminlari bilan atalgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onomastik birliklar ham, o‘z navbatida, metaforik usulda hosil qilinadi. Fitonimlar, asosan, xalq seleksiyasida yaratilgan navlar metafora usulida nomlangan. Metoforik fitonimlar o‘simlik navlarini aniq, siqiq, obrazli ifodalaydi.

A.B. Semenova fikricha, o‘simliklarni nomlashdagi metaforizatsiya yoki bilvosita nomlashda olamni idrok etish, ya’ni etnosning mentaliteti ham aks etadi<sup>123</sup>. Albatta, bu fikrda asos bor. Har bir xalq o‘zining yashash tarzi, dunyoqarashi asosida o‘simliklar dunyosini ko‘radi.

O‘simliklarning metonimik va metaforistik nomlanishida ko‘proq turdosh nomlarning atoqli otga o‘tishi (*Anora, Anorgul, Anorbibi, Olmagul, Bodom, Bodomgul, Konibodom...*) kuzatiladi. Buni o‘zbek tili fitonimiyasiga doir dalillar ham tasdiqlaydi. Masalan,

---

<sup>123</sup> Семенова А.Б. Фитонимия карачаева-балкарского языка: Автореф. дис. канд филолог. наук. – Черкесск, 2011. – 6 с. // <http://www.dissercat.com/content>

*Shu gapdan keyin majlisga kutilmagan bir ruh kirdi. Anorgulning qo‘lidagi dutor “O‘rtoqlar” kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi. Xonimbibi qizlarga qistatib o‘lturmay o‘rnidan sakrab turdi-da, o‘ynab ham ketdi. Dutor yoniga childirmaning chertmagi kelib qo‘shilgandan keyin bazm tag‘in ham jonlandi. (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. 55-b.)*

*Anorbibi*ga o‘xshash tul xotinlarning qiladig‘an ishlari har kimga ham ma‘lum: mahallada dasturxonchilik, boylar eshigida oqsochliq, hunarmandroq bo‘lsa – kinnachilik va hokazo. Anorbibi shu hunarlarning hammasiga ham qobiliyat e‘lon qilib, bolalarini boqish fikriga tushdi. (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. 22-b.)

*Boburning o‘zi ham o‘n oydan beri ko‘rishmagan onasi va egachisining iliq mehrlariga juda tashna edi. Qosimbekning so‘nggi taklifi ma‘qul tushib, mulozimlari va ikki yuztacha qo‘riqchi navkarlari bilan Xo‘janddan **Konibodom** yo‘liga chiqdi. (P.Qodirov. Yulduzli tunlar. 87-b.)*

Dunyodagi barcha xalqlar tilida mevachilikni ifodalovchi lisoniy, onomastik birliklar mavjudki, ular muayyan yaxlit leksik tizimni hosil qiladi. Mevachilik leksikasi bevosita o‘sha xalq va millat mevachilik madaniyatining lisoniy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda “fitonimlar” degan umumiy nom bilan yuritiluvchi bunday leksik birliklar nutq jarayonida nominativ, kommunikativ, uslubiy vazifa kasb etib, motivatsiyasining kengligi bilan alohida e‘tiborni tortadi.

### **Uchinchi bob bo‘yicha xulosa**

**1.** Milliy qadriyat va tarixni ko‘rsatuvchi frazeologik birliklar har doim aksariyat xalqlar tomonidan qadrlangan. Bunday frazeologik birliklarda xalqning mehnat faoliyati, yashash sharoiti va xalq madaniyati o‘z aksini topgan. Inson tashqi ko‘rinishi va xususiyatini ko‘rsatish maqsadida har xil meva va sabzavotlarning nomlari xalq tomonidan frazeologik birliklar tarkibida ham qo‘llanilib kelinadi.

2. O‘zbek tibbiy evfemizmlarida ham, ulug‘larning tibbiy o‘gitlarida ham meva nomlarining qo‘llanilishi meva nomlari o‘zbek tili leksikasining ajralmas, uni boyituvchi qismi ekanligini ko‘rsatadi.

3. Xalq og‘zaki ijodida, o‘zbek poetik matnlarida meva nomlaridan ramz sifatida foydalanish qadimdan bor. Badiiy matnlarda meva nomlarining ramz sifatida qo‘llanilishi o‘zbek tili imkoiyatlarining kengligi, jozibadorligidan dalolat beradi.

4. Mevachilik leksikasini til nuqtayi nazaridan yig‘ish, o‘rganish, jumladan, ularning nomi, xususiyati, shakl-shamoyili, ma’za-ta’mi kabilarning metonimik va metaforistik nomlanishi har bir xalq o‘zining yashash tarzi, dunyoqarashi asosida mevalar dunyosini ko‘rishiga asos bo‘lishini dalillaydi.

## UMUMIY XULOSA

“O‘zbek tilida mevachilik leksikasi” nomli tadqiqot ishi ustida izlanishlar olib borish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Mevachilik leksikasi barcha xalqlarning lisoniy manzarasida mavjud bo‘lgan umummadaniy voqelik hisoblanadi. Ayniqsa, meva nomlari leksikasi madaniyatlararo universalialarni namoyon qilishi bilan bir qatorda milliy-madaniy belgini saqlagan, kognitiv-semantik xususiyatlarga ega falsafiy, lingvistik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Tilshunoslikda mevachilik leksikasining vujudga kelishi insoniyat o‘tmishi bilan, insonning mehnat jarayonini o‘zlashtirish tarixi bilan uzviy aloqadorki, bu meva nomlarini har tomonlama, jumladan, *lison – nutq – matn trixotomiyasi* nuqtayi nazaridan alohida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida meva nomlarining tavsifi yoki ifodasi shu meva daraxtining biologik tavsifi “soyasi”da qolib ketgan.

3. Tilning lug‘at tarkibidagi meva nomlarini, ularning o‘ziga xos tomonlarini o‘xshashlik jihatlariga ko‘ra muayyan paradigmatic qatorlarga, mavzuviy guruhlarga birlashtirish va shu asosda izohli lug‘atlarda nafaqat mevali daraxtlarning nomini, balki meva va unga tegishli atamalarni ham (faqat biologik xususiyati nuqtayi nazaridan emas) til egalari ongida qanday o‘rinlashganligiga qarab izohlash muhim.

4. O‘zbek tilidagi mevachilik leksikasini til nuqtayi nazaridan yig‘ish, o‘rganish, ular bilan bog‘liq izohli lug‘atlar tuzish, meva nomlariga berilgan ta’riflarni til imkoniyatlaridan foydalanib (xalq so‘zlashuv tiliga yaqinlashgan holda) soddalashtirish hamda mukammallashtirish, bir tomondan, til o‘rganuvchilarga qulaylik tug‘dirsa, ikkinchi tomondan, biologiya va tilshunoslik integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. O‘zbek tilidagi mevachilik leksikasini ifodalovchi atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari o‘zbek milliy madaniyati, ma’naviyati, tili tarixiy taraqqiyotining ilg‘or tendensiyalari bilan bog‘liq ravishda tarkib topgan. Shu



boisdan bu tizimga kiruvchi leksemalar o'z va o'zlashma qatlamga oid mikrosistemalardan iborat.

Shuningdek, meva nomlarini ifodalovchi atov birliklarning shakliy tuzilishi ham murakkab bo'lib, ularni so'z, so'z birikmasi hamda murakkab birikmali birliklarga bo'lishni o'rinli deb bildik.

6. Mevachilik leksikasi muayyan xalqning milliy qadriyat va tarixni ko'rsatuvchi frazeologik, nutqiy bunyodkorligiga guvohlik beruvchi evfemik, perifrastik, tibbiy o'gitlarga xos birliklari tarkibida ham mavjud bo'lib, ular o'zbek tili leksikasining ajralmas, uni boyituvchi qismi sifatida xizmat qilaveradi.

7. O'zbek xalq og'zaki ijodida, o'zbek badiiy matnlarida meva nomlaridan ramz sifatida foydalanish qadimdan mavjudki, bu o'zbek tili imkoniyatlarining kengligi, jozibadorligidan nishonadir.

8. O'zbek tili mevachilik leksikasi doirasidagi nomlarning katta qismi uzoq tarixga ega. Ularning paydo bo'lishi, muhimi, umumiste'molda qo'llanilishi qadimgi manbalarga borib taqaladiki, bunda meva nomlarini ifodalovchi birliklar arab, fors, turkiy hamda yevropa tillariga mansubligi, shuningdek, bu mazkur xalqlarning lingvistik, adabiy aloqalarida mushtaraklik borligiga ishora qiladi.

9. Mevachilik leksikasi tilshunoslikning tabiiy fanlar, xususan, flora va fauna olamiga aloqador bilimlar bilan integratsiyasini, jamiyat va tabiat, jamiyat va adabiyot bog'liqligini asoslashga xizmat qilishi jihatidan diqqatga sazovor. Jumladan, uning tarkibiga kiruvchi mevalar olamining badiiy adabiyotda obrazlantirilishi orqali alohida mavqe egallagani, an'anaviy poetik obraz, ba'zan turg'un yoki vaziyat ramzi sifatida keltirilishi, fitopoetionim darajasida kuzatilishi, inson obrazini berishda, shaxs sifatlarini poetik ifodalash va baholashda keng qo'llanishi bevosita e'tiborga molik jihatlar sanaladi.

10. Mevachilik leksikasi, jumladan, mevalar obrazi ko'pincha badiiy adabiyotda inson xususiyatlarini, shaxs go'zalligi yoki uning biror jihatini poetik ifodalash uchun ishlatilishi ma'lum. Shunda mevalar nomining til va nutqdagi leksik-semantik belgilari, nominatsion-motivatsion asoslari yorqin ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan ularni o'rganish esa tilda meva nomlarining o'rni, leksik

tizimi va tarkibi, xalqning yashash hududi, milliy-madaniy hayoti, turmush tarzi bilan bog‘liq holda qo‘llanib boyib kelayotganini anglashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni//28-yanvar, 2022-yil. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон Фармони. –Тошкент, 2020 йил 20 октябрь. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 546 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 417 б.

### II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

#### 1) Milliy nashrlar

7. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари. –Т., 2007.–276 б.
8. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. –Тошкент: Фан, 1991. –161 б.
9. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma.– Toshkent: Yangi asr avlodi. –2018 –698 b. –10-b.
10. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan, 1985. – 200 b.

11. Ҳожиёв А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Toshkent, 1980. – 448 б.–129-б.
12. Исмоилов И., Мелиев К., Сапаев М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот (меваги дарахт, полиз экинлари номлари ва уй-рўзғор буюмлари лексикаси материаллари асосида).– Т.: Фан, 1990.–256 б.
13. Ibrohimov S.M. Vuxoroning mahalliy qovunlari. – Toshkent, 1968.–58 б.
14. Ишонкулов Ю. Ўзбек тилида мева номларининг тарихи ҳақида. – Тошкент, 1985.– 21 б.
15. Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси. – Қарши: Насаф, 2004. – 159 б.
16. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: – Тошкент: Фан, 2011. –149 б.
17. Neʼmatov N., Vozorov O. Til va nutq. –Т.: Оʻqituvchi, 1993.– 32 б.
18. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.–112 б.
19. Маматов Н. Ўзбек мевачилик терминологияси. –Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси, 1955.–107 б.
20. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.–288 б. – 27-б.
21. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков. –М.: Наука, 1984. – 230 с.
22. Qurʼoni Karim (Aloviddin Mansur tarjiması). –Toshkent: Sharq, 1990.– 1,84 Mb.
23. Рустамов А. Сўз хусусида сўз.–Тошкент: Extremum press, 2010.–160 б.
24. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент, 1970. – 56-б.
25. Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилида феъл фразеологизмларнинг боғлашуви. – Тошкент, 1992. –126 б.
26. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi oʻzbek tili. Darslik. – Germaniya: “Globe Edit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020.–555 b.

27. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durдона, 2021.–555 b.
28. Sayfullayeva R., Abuzalova M., Mamadaliyeva N., Yuldasheva D. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Buxoro: Durдона, 2021.–296 b.
29. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.– Тошкент: Фан, 2006.– 162 б.
30. Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. – Тошкент: Фан, 2004. –120 б. – 17-б.

## **2) Xorijiy nashrlar**

31. Абаев В. И. Несколько замечаний к славянским этимологиям // Проблемы истории и диалектологии славянских языков. М.: Наука, 1971.– 274-с.
32. Allan K. Natural Language Semantics. – Oxford: Blackwell Publishers, 2006. – 3-р.
33. Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фразеология и паремиология. – М.: Наука, 2013. –32-с.
34. Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.–320 p.
35. Блинова О.И. Мотивология и ее аспекты. – Томск: Издательство Томского университета, 2007. – 394 с.
36. Buhler K. *Theory of Language. The Representational Function of Language*. – Amsterdam, Philadelphia, 1990. –508 p.
37. Даниленко В.П. Введение в языкознание // Курс лекций. – Москва: Флинта, 2017.– 74 с.
38. Даниленко В.П. Введение в языкознание. – Москва: Флинта, 2020.– 268 с.
39. Дмитриева Л.В. Названия растений в тюркских и других алтайских языках // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков.– Л., 1972. – С.151-223.
40. Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка.–Новосибирск: Наука, 1981.– 130-с.
41. Капанадзе Л.А. Голоса и смыслы. Избранные работы по русскому языку.– Москва, 2005 – 334 с.

42. Кияк Т.Р. Мотивированность лексических единиц (Количественные и качественные характеристики). – Львов: Вища школа, 1988. – 162 с.
43. Кутина Л.Л. Формирование языка русской науки. – Москва: Наука, 1964. – 222 с.
44. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.: Добросвет, 2004. – 228 с.
45. Гареев Д.Б. Сорты овощных культур и картофеля. – Уфа: Башкирское изд., 1972. – 79 с.
46. Головин Б.Н. Термины в языке и речи. – Горький: ГГУ, 1984. – 145 с.
47. Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения. Имя. – Л., 1987. – 170 с.
48. Гринев С.В. Терминоведение. – Москва: Академия, 2008. – 304 с.
49. Горбовская С.Г. Флорообраз во французской литературе XIX века. – Санкт-Петербург: Издательство 3, 2017. – 276 с.
50. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М., 1976. – 356 с.
51. Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. М. Л, 1965. – 109 с.
52. Кубрякова Е.С. Человеческий фактор в языке. Язык и порождение речи. – М., 1991. – 240 с.
53. Косовский Б. Общее языкознание. – Минск, 1969. – 416 с. – 37-с.
54. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М.: Наука, 1977. – 302 с. – С.7-8.
55. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.
56. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминополов. – М.: Наука, 1982. – 165 с.
57. Лопушанская С.П. Изменение семантической структуры русских приставочных глаголов движения в процессе модуляции // Русский глагол (в сопоставительном освещении). – Волгоград, 1988. – С.15.
58. Марков М.В. Дикорастущие съедобные растения Татарии. – Казань, 1987. – 294 с.

59. Плотников Б.А. Основы семасиологии. / Под ред. А.Е. Супруна. – Минск, 1984. – 223 с.
60. Пиотровский Р. Г. Информационные измерения языка. – Л., 1968. – 117 с.
61. Срезневский И.И. Мысли об истории русского языка. – М.: Наука, 1959. – 139 с. – С. 16-17.
62. Сороколетов Ф.П. История военной лексики в русском языке (XI-XVII вв.). – Ленинград: Наука, 1970. – 381 с.
63. Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – 145 с. – 13-с.
64. Татаринцов В.А. Теория терминоведения. Теория термина: история и современное состояние. Т. I. – Москва, Московский лицей, 1996. – 311 с.
65. Ткачева Л.Б. Основные закономерности английской терминологии: Монография. – Томск: ТГУ, 1986. – 198 с.
66. Palmer F.R. Semantics. Moscow, 1982. – 112 p.
67. Punica Granatum // Ботанический словарь / сост. Н. И. Анненков. – СПб.: Тип. Имп. АН, 1878. – 645 с.
68. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. – М., 1959. – 453 с.
69. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. Изд. второе. – М.: Высшая школа, 1972. – 614 с.
70. Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М., 1959. – 492 с.
71. Володина М.Н. Теория терминологической номинации. – Москва, 1997. – 180 с.
72. Войцева Е.А. Водохозяйственная лексика польского языка: от древности к современности / Е.А. Войцева. – Черновцы: Букрек, 2010. – 427 с.
73. Vilayleck E. Ethnobotanique et médecine traditionnelle créoles. Paris, 2002. – 117 p.
74. Залевская А.А. Слово в лексиконе человека. Психолингвистическое исследование. – Воронеж: Изд-во Воронежск. ун-та, 1990. – 208 с.
75. Земская Е.А. Современный русский язык: Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. – 304 с.

76. Шмелев Д.Н. Современный русский язык/ Лексика.– Москва: Академия, 1977. – 335с.

### **III. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari**

77. Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. фан. доктори дисс. ....автореф. – Т., 2005. –56 б.

78. Айгабылов А. Профессиональные слова плодовоовощеводства в казахском языке: Автореф. дис. .канд. филол. наук. –Алма-Ата, 1976. – 29 с.

79. Аллаёрова З.Б. Ўзбек ва инглиз тилларида аграр соҳа терминларининг типологик хусусиятлари. ): Филол. фан. б. фалсафа док. дис. автореф. –Т., 2022.–62 б.

80.Базаркулова Т. Формирование и развитие киргизской биологической терминологии: Автореф. дис. . канд. филол. наук.– Фрунзе, 1978.–26 с.

81.Эшонкулов Ю. Опыт историческо-этимологического анализа названий плодов в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1977. – 24 с.

82.Жамолхонов Ҳ. Ўзбек ботаника терминологиясининг шаклланиш ва ривожланиш тарихидан: Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати. – Т., 1969. – 25 с.

83. Джурабоева З. А. Ўзбек тилида экологик терминлар. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2018. – 26 б.

84. Кулиев Э.С. Фитонимы в азербайджанском языке (опыт историко-типологического анализа): Автореф. дис..канд. филол. наук.–Баку, 1987.–24с.

85. Калиев Б.К. Названия растений в казахском языке: Автореф. дис. . д-ра филол. наук. Алма-Ата, 1991. – 47 с.

86.Мухтарова Г.М. Этимологическая лексика в татарском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. –Казань, 2009.– 26 с.

87. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2002.–56 б.



88. Муқимова Г. Фитоморф метафораларнинг лингвопоэтик, лингвокультурологик хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. –Бухоро., 2023. – 50 б.
89. Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши. Филол. фан. ном. ... дисс. автореферати – Т., 1998. – 21 б.
90. Нугмонов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 22 с.
91. Пазлиддинова Н. Ўзбек тилида фитонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона., 2018. – 52 б.
92. Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. докт. дисс.... автореф. – Тошкент, 2001.– 56 б.
93. Курбонов А. Термины зерновых культур и зернового хозяйства узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 24 с.
94. Усмонова М. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Жиззах., 2022. – 55 б.
95. Хошимхўжаева М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалсафа док. дисс. автореф. –Т., 2018.– 56 б.
- 96.Завалишина Ю.Г. Зоонимы и фитонимы в русской и английской паремиологии в аспекте этнического менталитета. Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Белгород, 1998.–18 с.
97. Залевская А.А. Слово в лексиконе человека. Психолингвистическое исследование. –Воронеж: Изд-во Воронежск. ун-та, 1990. –208 с.
- 98.Шуригин А.Н. Семасиологический и лексикологический аспекты таксономизации лингвистических терминов и терминопонятий: Автореф. дис. ...док. филол. наук. – Тюмень, 2005.–32 с.

#### **IV. Jurnal, gazeta maqola va tezislari**

99. Апресян Ю.Д. Что такое структурная лингвистика? // Иностранные языки в школе. –1961. № 3. –С. 82-96.
100. Begmatov E., Avloqulov Y. O‘zbek tili onomastikasining makro-ko‘lami tarkibi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2007. – № 5 – В. 33-39.
101. Боровков А.К. Названия растений по бухарскому списку «Мукаддамит ал-адаб» (к изучению узбекской ботанической терминологии) // Тюркская лексикология и лексикография. М., 1971. – С. 96-111.
102. Белова А.Ю. О разграничение терминов и номенов // Актуальные проблемы стилелогии и терминоведения. Тезисы межгосуд. конф. посв. 80-летию проф. Б.Н. Головина. –Нижний Новгородский гос.ун-т, 1996. – С. 15-
103. Гак В.Г. Лисоний белги ассиметрияси ва терминологиянинг айрим умумий муаммолари. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси//Филология. IV чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. –Самарқанд: СамДУ, 2002. –183 б.
104. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация: Общие вопросы. М.: Наука, 1977. – С. 230-293.
105. Кустова Г.И. Когнитивные модели в семантической деривации система производных значений // Вопросы языкознания, 2000. – №4.
106. Mahmudov N. Termin, badiiy so‘z va metafora // O‘zbek tili va adabiyoti, 2013. – №4 – В.3-8.
107. Она тилимиз ривожини таъминлаш – асосий мақсадимиз // Янги Ўзбекистон. 2020, 12 сентябрь.– 175-сон.
108. Равшанов М. Сўзларнинг денотатив маъно компонентлари //Тил ва адабиёт таълими журнали. 1999.– № 1. – Б. 39-41.
109. Юлдашева Д., Хожиева Н. Некоторые соображения о фруктовой лексике// Преподавание языка и литературы (NSSN 2010-5584).–Ташкент, 2020, № 3.–С. 61-63.

## V.Lugʻatlar

110. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-том. –Тошкент: Фан, 1984. –624 б. –259-б.
111. Айни, С. Луғати нимтафсилии тоҷикӣ барои забони адабии тоҷик. – Душанбе, 1976.– 564 с.
112. Ҳоҷиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985.–218 б.
113. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк/ таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов/. Уч томли. 1-том.–Тошкент: Фан, 1960.–498 б.
114. Саҳобиддинов С.С. Ўрта Осиёдаги фойдали ва зарарли ўсимликларнинг маҳаллий номлари луғати. – Т. 1953. – 452 б.
115. Муҳаммад Хусайн Бурхон. Бурхони қотей. Луғат. II жилдли. – Душанбе: Адаб, 1993.– 492 с.
116. Mahmud Hasaniy. Qadimgi bogʻdorchilik izohli lugʻati. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2016. –144 b.
117. Муҳаммадхонов С., Жонгузаров Ф. Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. – Т.: Меҳнат, 1989. – 320 б.
118. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.
119. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – 1-jild. – 680 b.
120. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-jild. – 671 b.
121. Oʻzbek tilining izohli lugʻati.– Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 3-jild. – 687 b.
122. Oʻzbek tilining izohli lugʻati.– Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 4-jild. – 606 b.
123. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 5-jild. – 591 b.

124. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. I жилд.—Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. —165-б.

## **VI.Badiiy asarlar**

125. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma.— Toshkent : Yangi asr avlodi. — 2018 —698 b. —10-b.

126. Фарохӣ А. Нисоб-ус-сибён / Тасхеҳи Ҳасан Анварӣ. — Техрон: Маркази нашри донишгоҳӣ (toshbosma), 1876. — 85 с.

127.Навойӣ А. Мукамал асарлар тўплами. 14-том. —Тошкент: Фан, 1998.— 315 б. —78-б.

128. O‘zbek xalq maqollari/ Tuzuvchilar: Mirzayev T. va b.—Toshkent: Sharq, 2005. —257 b. —

## **VII.Internet materiallari**

129. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Кошғарий М. Девони луғатит турк. I-II-III китоб.

130. <https://www.google.com/> викепедия\_лекси́ка

131. [www.google.com](http://www.google.com) Ўзбекистон Республикасига 2010-2015 йиллар мобайнида олиб келинган олма навлари рўйхати

132. [www.twirpx.com](http://www.twirpx.com) Ўзбек тилининг изоҳли луғати. О ҳарфи.

133. <https://aim.uz/> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. О ҳарфи.

134. Семенова А.Б. Фитонимия карачаева-балкарского языка: Автореф. дис. канд филолог. наук. — Черкесск, 2011. — С. 6. // <http://www.dissercat.com/content>

135. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Яблоко>

136.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. P harfi. —200-b. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/102-lug-atlar>

137. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/orik-uz/>

138. <https://manzur.uz/?p=2886>

139. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A harfi [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

140. <http://www.ekogazeta.uz/xabarlar/5570>

141. <https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/mojiza-kitob/meva-va-sabzavotlar-ortasida-qanday-farq-bor/>
142. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. S harfi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi 409-b.
143. <https://www.google.com> **Teofrastus - Vikipediya**
144. <https://www.google.com> Qissasi\_Rabg‘uziy
145. <https://cyberleninka.ru/article/n/osveschenie-v-turkestanskom-sbornike-protssesa-razvitiya-selskogo-hozyaystva-andizhanskogo-uezda>
146. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Vozeh>
147. <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniyning-saydana-asari-dorivor-o-simliklar-xazinasasi>
148. Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. II-2. Спб. 1893.–1734.  
<http://scientists.uz/uploads/202204/B-101.pdf>
149. <https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14789>
150. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. X harfi. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
151. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов  
<https://www.proquest.com/>
152. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi “Ў” harfi 163-b.  
<https://wordparts.ru/crossword/120904/>
153. <http://www.hozir.org/ii-kurs-magistranti-libos-dizayn-kafedراس.html>
154. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/foйда-va-zarar-haqida-maqollar>
155. Ma’lumotlar <https://zarnews.uz/> dan olindi.
156. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/3114>
157. <https://islom.uz/maqola/15356>
158. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/3114>
159. <https://azon.uz/content/views/amalsiz-ilm-mevasiz-daraht-kabidir>
160. <https://xs.uz/uzkr/post/manaviyati-yorug-odam-boshqalarning-ham-bagrini-yoritib-yuradi>
161. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/17276-ilmning-fazilati>

162. Семенова А.Б. Фитонимия карачаева-балкарского языка: Автореф. дис. канд филолог. наук. – Черкесск, 2011. – С. 6. <http://www.dissercat.com/content>

## ILOVALAR

### *I-ilova*

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida meva asosli 27ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <i>meva</i> asosi qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>Mevaning yaxshisini qurt yeydi.</i>	yaxshilik va yomonlik
2	<i>Har mevaning po‘chog‘i bor, Har so‘zning o‘lchovi bor.</i>	me‘yor haqida
3	<i>Hunarli yigit – mevali daraxt.</i>	hunar haqida
4	<i>Daraxtdan meva olaman desang, Niholligidan parvarish qil.</i>	mehnatkashlik haqida
5	<i>Daraxtiga ko‘ra – mevasi, Ota-onasiga ko‘ra – bolasi.</i>	tarbiya haqida
6	<i>Baxilning bog‘i ko‘karmas, Ko‘karsa ham, meva bermas.</i>	baxillik haqida
7	<i>Hasad ko‘chatini ekkan, Balo mevasini yer.</i>	hasadgo‘ylik haqida
8	<i>Daraxtning husni – bargi bilan mevasi.</i>	natija haqida
9	<i>Daraxt qancha baland bo‘lsa ham, Mevasi quyida bo‘ladi.</i>	me‘yor haqida
10	<i>Mevali daraxt yerga engashar, Mevasiz daraxt ko‘kka tirmashar.</i>	kamtarlik va nokamtarlik haqida
11	<i>Mevasiz daraxt egilmas.</i>	nokamtarlik haqida
12	<i>Mevasiz daraxtning boshi – tuman.</i>	befarzandlik haqida
13	<i>Sabr – achchiq, mevasi – shirin.</i>	sabrlilik haqida
14	<i>Muhabbat – dil mevasi.</i>	muhabbat haqida
15	<i>Odam mevasi – farzand.</i>	farzand haqida
16	<i>Ona – daraxt, bola – meva.</i>	farzand haqida
17	<i>Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt.</i>	befarzandlik haqida
18	<i>Daraxtni yaxshi ko‘rsatgan Shoxidagi mevasi.</i>	samara haqida

19	<i>Butamasang, meva oz, Butasang yeysan qish-u yoz.</i>	bog‘ parvarishi haqida
20	<i>Mevani po ‘sti saqlar.</i>	andisha haqida
21	<i>Mevali daraxt ko ‘p kaltak yeydi.</i>	samara haqida
22	<i>Mevali daraxtga hamma qaraydi.</i>	samaradorlik haqida
23	<i>Mevali daraxtning shoxi xam.</i>	samaradorlik haqida
24	<i>Mevasini ye, egasini surishtirma.</i>	ehtiyoj va zarurat haqida
25	<i>Har meva o ‘z vaqtida pishar. Har narsa o ‘z vaqtida yarashar.</i>	me‘yor haqida
26	<i>Mevasini desang, gulini asra.</i>	ehtiyotkorlik haqida
27	<i>Yoz mevasi – qish xazinasi.</i>	yil fasllari haqida

## 2-ilova

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida **uzum** asosli 4 ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <i>uzum</i> so‘zi qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>Uzum tilaganga uzib-uzib ber, Qovun tilaganga – qon yalatib.</i>	halollik haqida
2	<i>Sharob uzumdan rang olar, Odam odamdan rangtolar.</i>	odob o‘rganish haqida
3	<i>Uzumini ye, bog‘ini so‘rama.</i>	ehtiyoj haqida
4	<i>To‘qsonga borsang ham, tok ek, Yuzga yetguncha, uzumini yeysan.</i>	yaxshilik haqida

## 3-ilova

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida **o‘rik, zardoli, dovuchcha** so‘zlari qo‘llanilgan 5 ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <i>o‘rik, zardoli, dovuchcha</i> so‘zlari qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>O‘rik o‘rikni ko‘rib ola bo‘ladi, Odam odamni ko‘rib balo bo‘ladi.</i>	odob o‘rganish haqida
2	<i>Xom o‘rik qorirmi dam qilar, G‘o‘r masala – boshni kalava.</i>	samara haqida
3	<i>O‘rik o‘rikni ko‘rib oqarar.</i>	odob o‘rganish haqida

4	<i>Zardoli ye-da, suv ich, Zirillamasang, menga kel.</i>	samara haqida
5	<i>Dovchaning tagiga dovcha yotar.</i>	samara haqida

#### 4-ilova

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida **bodom, pista** asosli 6 ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <b>bodom, pista</b> so‘zlari qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>Chillada sug‘orilgan bog‘, Chil botmon uzum berar.</i>	me‘yor haqida
2	<i>Odam bilan odam tengmi, Aris bilan bodom tengmi.</i>	tenglik va notenglik samara haqida
3	<i>Bog‘ ko‘rki – bodom, Dunyo ko‘rki – odam.</i>	go‘zallik va xunuklik haqida
4	<i>Odam odam bilan, Pista bodom bilan.</i>	hamjihatlik haqida
5	<i>Ustani shogird sindirar, Pistani – po‘choq.</i>	ilm va ilmsizlik haqida
6	<i>Puchak pista og‘iz ochsa, O‘z aybini oshkor etar.</i>	farosat haqida

#### 5-ilova

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida **yong‘oq** asosli 6 ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <b>yong‘oq</b> so‘zi qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>Yong‘oq ming yashar, Archa bilan teng yashar.</i>	turmush tarsi haqida
2	<i>Yong‘oq olsang, chaqib ol, Ipak olsang – boqib.</i>	sinchkovlik haqida
3	<i>Har odamga sunma aslo bo‘yningni, Puch yong‘oqqa to‘ldiradi qo‘yningni.</i>	ziyraklik haqida
4	<i>Puch yong‘oqqa qo‘yin to‘lg‘azma.</i>	ziyraklik haqida
5	<i>Ter to‘kkanga – besh yong‘oq, To‘kmaganga – puch yong‘oq.</i>	mehnat mukofoti haqida
6	<i>Maraz bo‘lsang yong‘oq ye, Qusung‘a bo‘lsang – qalampir.</i>	shifobaxshlik haqida



## 6-ilova

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida *tut, shotut* meva nomlari ishtirok etgan 5ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <i>tut, shotut</i> so‘zlari qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>Tut yaxshisi – yerga, Qiz yaxshisi – ko‘rga.</i>	omad va omadsizlik haqida
2	<i>Bola shoshar, Tut vaqtida pishar.</i>	me‘yor haqida
3	<i>Nevarani boqma, Shotutni qoqma.</i>	tarbiya haqida
4	<i>Bir yil tut ekan kishi Qirq yil gavhar terar.</i>	samara haqida
5	<i>Tuyali yerda tut bo‘lmas.</i>	dehqonchilik va chorvachilik haqida

## 7-ilova

“O‘zbek xalq maqollari” kitobida *bog‘, bog‘bon* mevachilik nomi ishtirok etgan 39ta maqol uchraydi.

	Tarkibida <i>bog‘, bog‘bon</i> so‘zlari qo‘llanilgan xalq maqollari	Maqol mavzusi
1	<i>Bulbulga bog‘ yaxshi, Kaklikka – tog‘.</i>	vatan haqida
2	<i>Boqsang – bog‘, boqmasang – tog‘.</i>	samara haqida
3	<i>Bog‘ jamoli – bog‘bondan.</i>	mehnat haqida
4	<i>Bog‘ kimniki – bog‘bonniki.</i>	samara haqida
5	<i>Bog‘bonga tog‘ yarashmas, Biyobonga – bog‘.</i>	me‘yor haqida
6	<i>Bog‘ni boqsang – bog‘ bo‘lur, Botmon dahsar yog‘ bo‘lur.</i>	samara haqida
7	<i>Boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘lur, Yurak-bag‘ring dog‘ bo‘lur.</i>	ishyoqmaslik haqida
8	<i>Qarasang – bog‘man, Qaramasang – dog‘man.</i>	mehnatsevarlik va ishyoqmaslik haqida
9	<i>Itimning bog‘i yo‘q, Yemishi qora charos.</i>	mehnatsevarlik va ishyoqmaslik haqida
10	<i>Yaxshi – bog‘-u bo‘ston, Yomon – qora qozon.</i>	yaxshi va yomon haqida

11	<i>Jangal o'zini bog' aylar.</i>	me'yorni bilmaslik haqida
12	<i>Tog'dagi kelib bog'dagini quvibdi.</i>	me'yorni bilmaslik haqida
13	<i>Do'sting bo'lsa, bog'ing chamandir.</i>	do'stlik haqida
14	<i>Tinch elning bog'i gullar.</i>	tinchlik haqida
15	<i>Sohibkordan bog' qolar, Donodan – kitob.</i>	natija haqida
16	<i>Bog'ing bo'lsa, qo'ra qil, O'g'ling bo'lsa, mulla qil.</i>	ilmlilik haqida
17	<i>Baxilning bog'i ko'karmas, Ko'karsa ham meva bermas.</i>	baxillik haqida
18	<i>Bog' ko'rki – bodom, Dunyo ko'rki – odam.</i>	go'zallik haqida
19	<i>Bog' o'zini tog' aylar, Tog' o'zini – bog'.</i>	natija haqida
20	<i>Har bog'ning – guli, Har chorbog'ning – bulbuli.</i>	alohidalik haqida
21	<i>Sabr bilan xor guliston bo'lar, Sho'r zamin bog' bilan bo'ston bo'lar.</i>	sabr haqida
22	<i>Toqat qilsang, tog' egilar, Sabr qilsang, bog' egilar.</i>	sabr haqida
23	<i>Qo'shningni yanima, kinoya so'z dog' etar, Qurbing yetsa ko'maklash, eshigingni bog' etar.</i>	qo'ni-qo'shnichilik haqida
24	<i>Bolali qo'rg'onga bog' yetmas.</i>	farzand haqida
25	<i>Soni bor, salmog'i yo'q, Bog'i bor, parvoyi yo'q.</i>	e'tiborsizlik haqida
26	<i>Uzumini ye, bog'ini so'rama.</i>	ehtiyoj haqida
27	<i>O'zbek xalqi — bog' bilan.</i>	xalq turmush tarsi haqida
28	<i>Bog'bon bog'ini tuzar, Dehqon dalasin suzar.</i>	me'yor haqida
29	<i>Bog'bon bo'lsang, sarxar qil, Dehqon bo'lsang, shudgor qil</i>	sohalar ilmi haqida
30	<i>Bog'ni qishda ko'l qil, Yozda cho'l qil.</i>	sohalar ilmi haqida
31	<i>Yer ichida oltin bor, Qaziy bersang, topasan. Bog' ichida kumush bor, Kavlaybersang, topasan.</i>	sohalar ilmi haqida

32	<i>Yerga qarasang, bog' bo'lar, Ko'ngil ochilib, chog' bo'lar.</i>	e'tibor haqida
33	<i>Toshsiz tog' bo'lmas, Ko'chatsiz bog' bo'lmas.</i>	dehqonchilik haqida
34	<i>Shaftolidan bog' qilma, Echkidan mol qilma.</i>	sohalar ilmi haqida
35	<i>Echki boqqan chorvador bo'lmas, Shaftoli ekkan – bog'bon.</i>	sohalar ilmi haqida
36	<i>Yantoqdan yog' chiqmas, Jangaldan – bog'.</i>	sohalar ilmi haqida
37	<i>Qarovsiz bog' bo'lmas, Qorsiz – tog'.</i>	dehqonchilik haqida
38	<i>Chillada sug'orilgan bog', Chil botmon uzum berar.</i>	sohalar ilmi haqida
39	<i>Yantoqning yog'i yo'q, Kambag'alning – bog'i.</i>	ega bo'lish va ega bo'lmaslik haqida